Yuqoridagi jadvalning tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak yuqori likvid aktivlar 2021 yil yanvar oyiga nisbatan 25 516 mlrd so‘mga ortganini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotning barcha sohalari ham bir hil yuqori tiklanish sur'atlari kuzatilmayapti. Ichki va tashqi turizm, yo‘lovchi tashish, avtomobil ishlab chiqarish umumiy ovqatlanish sohalari hali ham 2019 yil darajasiga yetgani yo‘q. Kelgusi yilda ushbu sohalarda ham iqtisodiy jarayonlarning to‘liq tiklanishi yuqori iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarini qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘ladi. Pandemiyaning davom etayotganligi, global iqlim sharoitlarining noqulayligi, ishlab chiqarish va yetkazib berishdagi uzilishlar jahonda aksariyat oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini sezilarli darajada o‘shishiga olib keldi. Bu, o‘z navbatida, ichki narxlarga ham ta'sir ko‘rsatmay qolmadi. Shuningdek, jahonda iqtisodiy tiklanishning jadallashuvi asosiy energiya manbalariga va xalqaro yuk tashish tizimiga bosimni yuzaga keltirib, jahon bozorlarida yonilg‘i mahsulotlari va yuk tashish xizmatlari narxlarini oshishi kuzatilmoqda. Ushbu omillar ta'sirida, inflyasiya dinamikasi prognozlarimizning yuqori chegarasida shakllanmoqda. Sentyabr' oyi yakunlari bo‘yicha yillik inflyasiya darajasi 10,8 foizni tashkil etib, oxirgi to‘rt oydan beri birinchi marta pasayuvchi dinamikaga o‘tdi.

¹ [Банк тизими ликвидлилик динамикаси - Ўзбекистон Республикаси Марказий банки \(cbu.uz\)](http://www.newjournal.org/)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. - М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. - 880 с.
2. Куликов А.Г. Деньги, кредит, банки: Учебник. - М.: КНОРУС, 2009.- 656 с.
3. Лаврушин О.И. Деньги. Кредит. Банки. Учебник под. ред. - М Кнорус, 2014-320 с.

БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ ВО ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Зокирова Диёра Студентка Ташкентский финансовый институт
Избосаров Бобур, доцент, PhD Ташкентский финансовый институт

Аннотация: В тезис рассматривается внешняя деятельность нашей страны и факторы, влияющие на нее. При этом обсуждалось значение бухгалтерского учета во внешнеэкономической деятельности и анализировалась связанная с ним информация.

Ключевые слов: внешнеэкономические связи, бухгалтерский учет, сделки, финансовая отчетность, законы.

Ряд стран мира и республики нашей страны и развитие международной торговли между другими странами мира, развитие расширение и совершенствование производственной интеграции и внешнеэкономической вызывая дальнейшую либерализацию деятельности. Коренные реформы, проведенные в нашей стране, показывают, что бухгалтерский учет и аудит, как и во всех аспектах нашей экономики произошли большие изменения в сфере деятельности. В последующие годы, о создании системы бухгалтерского учета, отвечающей международным стандартам. Проводятся многие реформы.

Сегодня в Узбекистане происходит новый Ренессанс - Третий Ренессанс за период значительно увеличилось количество пользователей бухгалтерского учета усиление, углубление международных интеграционных процессов, финансов рынке, и особенно в развитии рынков капитала, инвестиций, труда и свободное движение валют между зарубежными странами требует более строгой организации учета по мировым стандартам. Этот и для эффективного развития всех отраслей экономики нашей страны о знании финансового состояния субъектов внешнеэкономической деятельности в учете документов сопровождения товаров должностными лицами таможенных органов при осуществлении углубленного изучения отражения и таможенного аудита определяет актуальность. В нашей стране на предприятиях и организациях всех форм собственности правила организации учета и отчетности в новой редакции Регулируется Законом №1 «О бухгалтерском учете» ОРВ-404. Этот закон состоит из 32 статей, основной частью закона является бухгалтерский учет цели и принципы, субъекты бухгалтерского учета, объекты, учет ряд стандартов бухгалтерского учета и организации бухгалтерского учета задачи определены. Решения Кабинета Министров на основании настоящего Закона, разработаны методические указания, внутренние документы, стандарты.

Следует отметить, что импорт участников внешнеэкономической деятельности отражение произведенных товаров в учетных документах и их ввоз проверка законности Закона «О бухгалтерском учете» № ОРВ-404 и Президента Республики Узбекистан 5 июня 2020 года «Таможенная административная реформа и государственная таможня Республики Узбекистан Приказ № ПФ-6005 о совершенствовании деятельности органов обслуживания, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 февраля 2021 года "Об утверждении Положения о порядке таможенного аудита". Регулируется постановлениями №101. Эта договоренность является предметом внешнеэкономической деятельности предоставляется в наличии на ввозимые товары и транспортные средства информация о грузовых таможенных декларациях и связанных с ними документах по отслеживанию товаров бухгалтерский учет организации связан с ее входом, выходом и движением исследование по сравнению с информацией, представленной в документах и значит проверка.

Субъекты внешнеэкономической деятельности в своей финансово-хозяйственной деятельности товары и транспорт для учета в Узбекистане Национальный стандарт бухгалтерского учета Республики Казахстан № 4 «Товарно-материальные Резервы» и № 5 «Основные средства» национального учета на принципах, установленных стандартами. Субъекты внешнеэкономической деятельности ввозят товары, для которых независимо от их движения в экономической деятельности - происхождения, размещения, учет фактического наличия, оттока и наличия остатков отражается в первичных регистрационных документах учета. Эти регистрационные формы. Специально утвержденный Министерством финансов Республики Узбекистан на основе форм. Информация в документах предварительного учета на основании бухгалтерских записей об их движении по счетам формируется на основе примечания. Информация в этих бухгалтерских документах на основании которых составляется достоверная бухгалтерская отчетность и из отчетных данных предоставляется пользователям. Проведение выездной таможенной проверки должностным лицом таможенного органа учетные регистры бухгалтерского учета в процессе и их привязка они должны иметь представление о требованиях. На этом этапе будет затронуто понятие регистров бухгалтерского учета. Что касается Закона Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете». Статьей 15 предусмотрено следующее положение: регистры бухгалтерского учета - два Журналы, записи, книги и состоит из утвержденных форм. Статья 47 Налогового кодекса Республики Узбекистан Счет-фактура является законным для продажи товаров (услуг). Физические лица и индивидуальные предприниматели, если иное не предусмотрено настоящей статьей покупателям

этих товаров (услуг), если не указано иное необходимо предоставить счет-фактуру. Ввоз уполномоченным экономическим оператором субъектов внешнеэкономической деятельности товар производится с грузоотправителем, т.е. поставщиками товара договора, счета и расчетные документы в первую очередь сдается в бухгалтерию. Они будут проверены, а затем перечислены в надлежащее время. После этого данные документы являются залогом субъектов внешнеэкономической деятельности. будут переданы в отдел. Для каждой фактуры определяется, будет ли оно платным или нет. Если вы доставляете товар по условиям договора в этих счетах-фактурах, если поставщики полностью выполнили товары из данного списка отдаются на склад. Товарный внешнеэкономической деятельности Все документы хранятся в специальной папке, пока не дойдут до своей тематики. Заведующий складом ТИФ тему о товарах, не отправленных в срок уведомляет отдел снабжения о принятии соответствующих мер. Товар находится на складах по их отдельным видам, разновидностям, размерам и номенклатурным номерам необходимо учитывать. Инвентаризация товаров на складе в числовой форме, учет а на счету он отличается тем, что хранится в денежной форме.

Следует отметить, что должностное лицо, проводящее таможенную проверку синтетический и аналитический учет импорта товаров желательно знать процедуру. Товары, ввозимые субъектом внешнеэкономической деятельности, т.е. в бухгалтерском учете информация о своих доходах и расходах является предварительным отчетом отражаются в документах. Следует отметить, что темы внешнеэкономической деятельности являются предварительными. Составляет финансовую отчетность на основании бухгалтерских документов. Финансовый отчет содержанием является статья 22 и № 1 Закона «О бухгалтерском учете». См. пункт 12 НСБУ. Годовой хозяйствующий субъект финансовая отчетность состоит из:

- «Бухгалтерский баланс» форма 1
- Форма 2 «Отчет о финансовых результатах».
- «Отчет о движении денежных средств» Форма 4
- Форма 5 «Отчет о собственном капитале».
- Примечания, расчеты и пояснения.

По нашему мнению, таможенный аудит иностранных хозяйствующих субъектов полная и правильная копия первичных документов, связанных с ввозимыми товарами сдача и полная проверка финансовой отчетности на ее основе является важным.

Список используемой литературы.

1. Федеральный закон от 06.12.2011 N 402-ФЗ (ред. от 26.07.2019) "О бухгалтерском учете" // "Собрание законодательства РФ", 12.12.2011, N 50, ст. 7344
2. Алексеева Г. И. Бухгалтерский учет и отчетность. Учебник. — М.: КноРус, 2021. — 412 с.
3. Андреев В.Д. Введение в профессию бухгалтера: Учебное пособие / В.Д. Андреев, И.В. Лисихина. — М.: Магистр, НИЦ ИНФРА-М, 2019. — 192 с.
4. Астахов В.П. Бухгалтерский учет от А до Я: Учебное пособие / В.П. Астахов. — Рн/Д: Феникс, 2018. — 479 с.
5. Бабаев Ю. А., Петров А. М. Теория бухгалтерского учета. 6-е изд. — М.: Проспект, 2021. — 256 с.
6. Бабаев Ю. А., Петров А. М. Финансовый учет. Учебник. — М.: Центркаталог, 2020. — 552 с.

GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Zokirova Diyora Iqboljon qizi

Toshkent moliya instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston sug'urta bozori, uning rivojlantirish imkoniyatlari va uni raqamlashtirish istiqbollari ko'rib chiqilgan hamda mavzu yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta xizmatlari, sug'urta tizimi, sug'urta bozori ishtirokchilari, investitsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sug'urta shartnomasi, raqamlashtirish.

Global iqtisodiyot sharoitida har bir mamlakatning taraqqiyoti jamiyat va davlat hayotida axborot-kommunikatsiya va «raqamli» texnologiyalar qanchalik joriy etilgani bilan baholanmoqda. Mamlakatimizda ham davr talabidan kelib chiqqan holda, barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur islohotlardan natijasida, "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasiga mos ravishda faoliyat ko'rsatishni yo'lga qo'yimoqda. Kompaniyada xizmat ko'rsatishning barcha turlarini to'liq raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi. Jumladan, 2020–2022 yillarda "O'zagrosug'urta" AJ elektron to'lov tizimidan foydalangan holda onlayn sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, kadrlarning axborot texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalari hamda malakasini oshirish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, kompaniyaning raqamli infratuzilmasini kengaytirish borasida 156 ta tuman (shahar) bo'linmalarni yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulash va ularni to'liq kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash ko'zda tutilgan¹.

Ta'kidlash joizki, "O'zagrosug'urta" AJ onlayn xizmat ko'rsatishda mavjud qulayliklarni yanada takomillashtirish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, dasturiy mahsulotlarni joriy etishda majburiy sug'urta turlari portfelinii shakllantiruvchi "UzagrosOnline" yagona elektron axborot tizimi yaratildi. Bir so'z bilan aytganda, Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash "O'zagrosug'urta" AJ tomonidan jahon standartlariga mos ravishda zamonaviy moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt hozirgi axborot asrida nihoyatda dolzarb bo'lib, insoniyat sun'iy intellekt orqali XXI asrning global muammolariga ilm-fanda yangi imkoniyatlarni kashf etish yo'li bilan ijobiy yechimlarni topadi. Shuningdek, bu

¹ <https://www.agros.uz/news/post/89/>

tibbiyot, ta'lim, energetika, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik va boshqa barcha sohalarda sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini oshiradi. Sun'iy intellektni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining o'rni yildan-yilga ortib bormoqda. 2019-yil yakuni bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi o'zining oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan dunyo mamlakatlari ichida dastlabki 10 talikda yetakchilikni qo'lga kiritdi. Keyingi o'rinlarni Koreya, AQSH, Yaponiya va Yevropa davlatlari egallagan. Umuman, dunyoda sun'iy intellektga talab va uning qo'llanilish sohasi ham ortmoqda. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, soha va tarmoqlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, "aqlli dasturlar"ning qo'llanilish sohasini kengaytirish bo'yicha davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ijro etilmoqda. Faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilarga ustav kapitali tuzilmasini ushbu talablarga muvofiqlashtirish majburiyatini yuklash rejalashtirilmoqda. Yetakchi xalqaro sug'urta kompaniyalarini texnologik hamkor va/yoki muassis sifatida jalb etgan holda yirik qayta sug'urtalash kompaniyasini tashkil etish tashabbusiga qo'l urildi.

Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasini tugatish, shuningdek Moliya vazirligi huzurida Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligini (bundan keyin – Agentlik) hamda Agentlik huzurida sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoyalash xizmatini tashkil etish taklif qilinmoqda. Rejada – sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta mukofotlari yig'implaridan 0,3% miqdoridagi ajratmalarini maqsadli jamg'arish uchun Moliya vazirligida maxsus schyot ochish. Schyotdagi mablag'larni quyidagilarga yo'naltirish taklif etilmoqda:

- sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) bilan Agentlik o'rtasida ma'lumotlarni ayirboshlash uchun axborot texnologiyalarini joriy etish, jarayonlar va tartib-taomillarni raqamlashtirish, masofadan turib onlayn-nazorat qilish sharoitlarini yaratish tadbirlarini moliyalashtirish;
- Agentlik xodimlari va sug'urta bozori professional ishtirokchilarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, moddiy rag'batlantirish, xalqaro nazorat tuzilmalari va institutlarining malakali ekspertlarini jalb etgan, shuningdek xodimlarni xorijga chiqargan holda tayyorlash va qayta tayyorlash.

“Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori (PQ–5265-son, 23.10.2021 y.) qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2022 yil 1 iyuldan sug'urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat beriladi. 2023 yil 1 yanvardan majburiy sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinadi. 2022 yil 1 yanvardan 2025 yil 1 yanvargacha hayot sug'urtasi sohasidagi sug'urta tashkilotlarining mazkur faoliyati qismi uchun hisoblanadigan foyda solig'i bo'yicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga

kamaytiriladi. 2022 yil 1 yanvardan 2024 yil 1 yanvargacha ish beruvchi tomonidan o'z xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish va tibbiy sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari asosida O'zbekistonda sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga yo'naltiriladigan mablag'lar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida qaralmaydi. 2022 yil 1 iyungacha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha yagona axborot tizimi negizida barcha sug'urta polislarini ro'yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etiladi². Sug'urta shartnomalarini Yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish sug'urta tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. 2022 yil 1 iyuldan inflyasiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlari chiqariladi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida belgilanib, 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilingan edi. Boshlangan ishlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohalarida yagona vakolatli organ etib belgilanib, Vazirlik qoshida "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" hamda "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" tashkil qilinmoqda. 2020-2022 yillarda elektron hukumat, telekommunikatsiyalar va dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha jami 268 ta loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Jumladan: - iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida jami 87 ta loyiha, shu jumladan Elektr energiyasi va tabiiy gaz hisobini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, Yirik aeroportlarda yo'lovchilarni ro'yhatga olish tizimini takomillashtirish, Bank tizimida jismoniy shaxslarni masofadan turib identifikatsiya qilish mexanizmini joriy qilish; - elektron hukumatni yanada rivojlantirish bo'yicha jami 104 ta loyiha, shu jumladan, "Pensiya tayinlash jarayonini boshqarish" axborot tizimi, "Yer minerallari va tog' jinslari" milliy elektron bazasi, "Raqamli qishloq xo'jaligi" axborot tizimi, "Majburiy tibbiy sug'urta" axborot tizimini joriy qilish;³ Bugungi kunda ushbu axborot tizimida qishloq xo'jaligi va boshqa sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan shartnomalarning onlayn elektron bazasi yuritilmoqda. Bundan tashqari, xodimlarni zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'qitish, bilim va ko'nikmalarini oshirish,

²https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/sugurta_bozorini_rivojlantirish_agentligini_tashkil_etish_tashabbusiga_qo'l_urildi

³ <https://review.uz/uz/post/sugurtaning-barcha-turlari-elektron-amalga-oshiriladi>

bunda xorijiy o‘quv muassasalari bilan hamkorlik qilish, xalqaro IT-sertifikatga ega xodimlar ulushini oshirish yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.- Toshkent,2002-yil 5aprel
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi “Sug‘urta bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-618 sonli Qarori.
3. Shennayev X.M Sug‘urta ishi:O‘quv qo‘llanma T.: Iqtisod-Moliya 2014
4. Shennayev X.M.O‘zbekiston sug‘urta bozori: O‘quv qo‘llanma T.:Iqtisod-Moliya 2013
5. Mahmudova L.Sug‘urta ishi-O‘quv qo‘llanma

SHE'RIYATDA FONOPOETIK IFODA
(Zulfiya Mo'minova ijodi misolida)

To`rayeva Azima Izotullo qizi.

Peshku tumanidagi 18-umumiy o`rta ta`lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Fonopoetika-tilshunoslikda nisbattan yangi soha bo`lib, yangicha izlanishlar natijasidir. Ushbu sohani lirik asarlar orqali tadbiq etish masalasi fanning bugungi ravnaqiga zamin yaratadi.

Kalit so`zlar : Lingvopoetika, fonetika, poetika, lirika, jamiyat.

Tilshunoslik nazariyasidan ma'lumki, lingvopoetika – tilshunoslik va adabiyotshunoslik oralig`ida shakllangan soha. Tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqi shundaki, bunda tadqiqot manbai badiiy asarlar hisoblanadi. Adabiyotni til jihatidan o`rganiladi. Lingvopoetika badiiy asarlarda qo`llanilgan lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o`rganadi. Badiiy til keng qamrovli obyekt sifatida funksional darajalangan qismlarga fragmentlarga bo`linish xususiyatiga ega. Biroq amalda ushbu obyektning fragmentlarini badiiy nutq tahliliga beriladi. Demak, badiiy nutq keng tushuncha bo`lib badiiy asar tili badiiy nutqning bir ko`rinishidir. U tilning ekspressiv vazifasini o`z ichiga olgani uchun til sistemasining barcha sath birliklarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, lingvopoetika fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo`linadi. Lingvopoetikaning vazifasi ushbu sohalarni alohida-alohida o`rganish va ularning o`zaro munosabatini ham yoritib berishdan iborat. Jumladan, fonetik-fonologik sathda bir xil tovushlar bir xil bo`g`inlarning takrorlanib kelib, assonans(bir xil unilarning takrorlanib kelishi), alliteratsiya(bir xil undoshlarning takrorlanib kelishi) hodisalarini yuzaga keltirishi hamda ta`sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi o`rganiladi.

Fonografik stilistika fonetik stilistika va grafik stilistika oralig`idagi fandır. Fonostilistik vositalar va ularning nutqda qo`llanishi haqidagi fikrlar ilk bor Ayub G`ulomov tomonidan aytilgan. Olim fonetik vositalarda uslubiy imkoniyatlar ko`pligi, ayrim so`zlarning ohang va fonetik qiyofasini o`zgartirish orqali hissiy ta`sirchanlik paydo bo`lishini qayt etadi. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, urg`u, ohang, ton, tovush tenbiri. Grafik vositalar- harflar. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida e`tibor qaratmoq lozim. Sheriy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she`rda o`ziga xos jozibador ohang bo`ladi. Bu ohangdorlikka

tovushlarning uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), gemenatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish yuqoridagi vositalar, shuningdek tovushlarni orttirish yoki tovush tushurish kabi vositalardan ham foydalaniladi.

Tildagi fonemalarning asosiy vazifasi so'z ma'nolarini farqlash bilan birga stilistik-ekspressiv va apellyativ vazifalarni ham bajaradi. Tinglovchi fonemalardagi bu xususyatlarni tovushlar vositasida qabul qiladi. Undosh tovushlar o'zining hosil bo'lish o'rni va usuli hamda tovush miqdorining ko'pligiga ko'ra unli tovushlardan farqlanadi. Talaffuzda undosh tovushlarning ikkilanish, takror qo'llash, tushurib qoldirish, so'zda ularning o'rnini almashtirish; yozma nutqda esa ushbu talaffuz hodisalarni aynan aks ettirish fonografik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Fonografik jihatdan so'zdagi bir undoshning takror miqdori u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo'yoq miqdorini ifodalaydi, natijada konnotativ ma'no yuzga chiqadi. Undosh tovushning so'z boshida ikkilantirilishi qahramonga hos nutqiy kamchilik yoki o'ta hayajonlanganligini ifodalasa, so'z oxirida undoshning takrori shu so'zning cho'zib talaffuz qilinganligini bildiradi. Badiiy nutqda keng qo'llaniladigan fonetik usullardan yana biri gemenatsiyadir. Ya'ni bunda tovushlarni qavatlash orqali poetik aktualizatsiya sodir bo'ladi.

Shuningdek, badiiy nutqda ohangning ifodalanishi muhim. Badiiy nutqda muhimvazifa bajaruvchi vositalar:

1. Ohang
2. Urg`u
3. Pauza
4. Alliteratsiya
5. Assonas
6. Tovush takrori
7. Tovushga taqlid

Istalgan nutq o'ziga xos intonatsion butunlikka ega bo'lib, nutqning sintaktik tuzilishi, so'zlarning gapdagi o'rni kabilardan tashkil topadi.

Zulfiya Mo'minova ijodini turli tomonlardan o'rganish mumkin. Shoiri ijodi fonopoetik tahlil uchun ham asos bo'la oladi. Ijodkor, ayniqsa, tovushlar takroridan foydalanib, lirik asarlarda go'zal qochirimlar va so'z o'yinlarini yaratgan. Quyida keltirilgan misollar muallifning "Ayolga baxt bering, saodat bering" to'plamidan olingan.

“S” tovushi takrori :

Salom setoralar , sarhush havolar,
Sevgilar assalom , salom vafolar.
Salom sayyoralar , salom samolar,
Mustaqilman , uchib yuribman.(26-sahifa.)

Ushbu parchadagi uch misradagi “S” tovushining ketma-ket qo’llanilishi to’rtinchi misradagi “Mustaqilman” so’zidagi tovushlar bilan o’zgacha hamohanglik kasb etgan. She’r o’z mazmun –mohiyati bilan shukronalik hissiga yo’g’rilgan. Bunda ilhaq kutilgan istiqloq quvonchi tarannum etilgan.

Siz so’zni singlim deb qizg’ongan kezlar,
So’zfurush narxini naq bozordan aytdi.(34-sahifa.)

Ushbu misralar “Oybek domlaga” nomli she’rdan parcha bo’lib, unda Oybekka ehtirom , uning boshidan kechirgan kechmishlarini xotirlash orqali, unga hamrozklik bildirish aks ettirilgan. Shu bois yuqoridagi tovush takrorida Oybekona qochirimni sezish mumkin. So’zni “Singlim” deya suyish faqat Oybekka xos bo’lgan benazirlikdir.

Seni ko’rgan kundan ziyolandim men ,
Sim –sim sabolandim , sadolandim men.(70-sahifa.)

Shoira ning ushbu she’ri lirikaning “Intim lirika “mansub bo’lib, unda qahramon o’z ko’ngil egasiga “Birda Alloh dedim , birda sen dedim” deya murojaat etadi. Jumladagi “Sabo” va “Sado” so’zlari esa, qalb izhorini sohibiga yetkazish vositasi sifatida qo’llanilgan.

“K” tovushi takrori:

Ko’ngillarni ko’zlab kelgan shubha-yu gumon,
Saksovullar orasida qolar oyoqdan.

“Bu ovulning yonidagi...” deb boshlanuvchi she’rdan olingan yuqoridagi misralarda “K” tovushi yetakchilik qiladi.” Ko’ngil “,”Kelin”, “Kovush “, “Ko’rpa” kabi qator so’zlarni qo’llarkan, ushbu she’rda urush yillaridagi o’zbek ayoli umumlashma obrazini tasvirlab beradi:

Kelinlari novvot ta’mlil uyqularini,
Ko’rpasiga o’rab tongda yig’ib qo’yadi.

“Novvot tamli uyqu”ni “Yig’ib qoyish”ning esa sababi- mehnat! Chunki urushga ketgan er yigitlarnind dala-yu shiyponlardagi o’rnini yosh kelinlar-u, gul qizlarning egallashi tabiiy bir majburiyat edi. Zulfiya Mo’minovaning she’rlarida holat va kechinmalar orqali ishonaarli va ifodali chizgilarda aks etgan tuyg’ular shu kabi haqiqatlarni-da akslantiradi.

Aytish joizki, Zulfiya Mo’minova o’z she’rlarida “Tashbeh “ san’atidan unumli va o’rinli foydalanadi. Ahamiyatlisi, uning ijodiy topilmalari isbot talab qilmaydigan , go’yo barchamiz guvohlik qilgan-u , uni faqat ijodkorona qalb va nigoh bilan ilg’ash mumkin bo’lgan voqea-hodisalardir:

Maysalarni yopib qo’l-oyog’iga ,
Dalalar uxlaydi, yobon uxlaydi.

Bahor faslidagi tabiat hodisasi hisoblangan maysalarning unib chiqishi she’riy misralarda ajib sirlilik kasb etgan. Yoki:

Alvon ko’ylak kiygan qizni sog’inib,
Alvon ko’ylak kiygan ufq uxlaydi.

Bunda ufqning quyosh botishdagi holati-alvon libosga qiyoslanmoqda. Go’yoki, u alvon rangdagi ko’ylak kiygan qizni sog’inganidan o’zi ham shu zayl qiyofalangandek.

Xulosa qilib aytganda , fonopoetika lingistikaning alohida sohasi bo’bib , undagi hodisalar lisoniy birliklar va badiiy-lirik asarlarning jozibadorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Zulfiya Mo`minova „Beshiklarni asragin, dunyo“ (1988)
2. Zulfiya Mo`minova „Samoga sochilgan yulduzlar“
3. Zulfiya Mo`minova “Istiqlol — oltin gulim”
4. Zulfiya Mo`minova „Yonayotgan ayol“ (1993)
5. Zulfiya Mo`minova „Azizim, baxtiyorman“ (1997)
6. Zulfiya Mo`minova „Qudratli yurtimga“ (1997)
7. Zulfiya Mo`minova „Birinchi o‘qituvchim“
8. Zulfiya Mo`minova „Nikoh shartnomasi“
9. Zulfiya Mo`minova „Ayolga baxt bering“, „Bir kun dars qoldirgan bir umr pushaymondir“
10. Zulfiya Mo`minova „Nikoh shartnomasi“ kabi kitoblar muallifi.

ZULFIYA MO'MINOVA SHE'RIYATINING MILLIY –MADANIY XUSUSIYATLARI

Normamatova Nigina

Olot tumani 12-umumiy o`rta ta`lim maktabi

Ona tili va adabiyot o`qituvchisi

Annotatsiya: She'riyat o'z mohiyati bilan his –tuyg'ular va ijtimoiy hodisalar ko'zgasidir. Zulfiya mo'minova ijodidagi milliy tushunchalar va o'ziga xos jihatlar tahlilga molikdir.

Kalit so'zlar: Milliylik, lirika, istiqlol, globallashuv, tafakkur, lingvopoetik.

Adabiyot o'z mohiyati bilan umuminsoniyatga daxldorlik qilsa-da ,u o'zini milliy shaklda namoyon qiladi.O'zida millat fitratiy holatini aks ettiradi.”Adabiyot yashasa , millat yashaydi “-, jumlasining bugun aforizmga aylanganiga ham bois shudir.Zamonlar otadi ,tafakkur evriladi , ehtimol ,she'riyatda surat o'zgaradi.Bu haqiqatlarga qaramay , adabiyot, she'riyatning darajasi –milliy ruh va mahoratga ko'ra baholanadi.

Texnika-texnologiyalar asrida globallashuv sabab,xalqlarning madaniy qarashlari,san'ati o'zaro yaqinlashib,yaxlitlashib bormoqda.Adabiyot-ijtimoiy hodisa.Shunday ekan,u davr bilan hamnafas va hamohang.E'tiborlisi , u har qanday makon va zamonda ham o'z qahramonlarini izlab topadi.Hozirgi o'zbek she;'riyatining ma'naviy miqyosi , badiiy salohiyati kundan kunga o'sib , yangilanib bormoqda. Mustaqillik,istiqlol sabab she'riyatga e'tibor ,ayniqsa , yaqqol ko'zga tashlanmoqda.Buni ijodkorlarimizning yangroq ovozidan sezish mushkul emas. “Shoirlik qismatiga bardosh berish,uning shon –shuhratiga munosib yashash,eng muhimi shoir o'z millatining vijdoni, yuzi , so'zi va ko'zi ekanini har doim esida tutishi ,albatta , osonmas. Shoir –istedod egasi ,shoir so'z va tafakkur odami ,shoir iste'dodli dardmand inson., shoir –el-yurt quvonchiga sherik odam...” , - degan edi adabiyotshunos Bahodir Karim. Haqqiqatan,shoirlik bu qismatdir.

Shu qismat sohibasi bo'lmish Zulfiya Mo'minova ijodi mavzu ko'lami va topilmalarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Zulfiya Mo'minova -1959-yil Samarqand viloyatining narpay tumanida tug'ilgan.Mirzo Ulug'bek Nomidagi Toshkent Davlat Milliy universitetida tahsil olgan.1980- yillarda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan ijodkor bugungi kunda “Beshiklarni asragin,dunyo”, “ Vatan tashlab ketmaydi”, “Istiqlol oltin gulim”, “Yonayotgan ayol”, “Ayolga baxt bering , saodat bring “ kabi qator she'riy to'plamlar muallifidir. Uning she'rlari tub mohiyati bilan milliy o'zlikni anglashga , urf –odat va an'anarga hurmat ko'rsatish, bag'rikenglik kabi tushunchalarni chin ma'noda targ'ib etrishga

qaratilgandir. She'riyat insonlarda kelajakka ishonch va yashashdan shukronalik hissini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, lirikada, shubhasiz, aks-sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugunning she'riyatida milliy ruh tamoyili yetakchilik qilmoqda. Milliylikdan xoli bo'lgan tuyg'u ta'sir kuchini yuqotishi bor gap. Abdulla Oripov: "xalqning olmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o'ziga xosligini, va nihoyat, bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalari gina yashashga haqli", - deya ta'kidlagan edi. Zulfiya Mo'minova muhabbat haqida yozadimi, inson kechinmalari to'g'risidami uning ko'z ongida Vatan gavdalanadi:

Vatan desam onam keladi,
Oq ro'mollar o'rab boshiga.
Men onamdan qarzdor kabi,
Qarzdorman shu so'z oldida.

Ushbu parchadagi "Oq ro'mollar o'ragan ayol" nafaqat lirik qahramonning, balki, butun o'zbek ayolining, o'zbek onasining timsoliga ishoradir. Yoki:

Kitob bilan nonni teng ko'rgan
Ulug'lar darsxonasi – Vatan!
Mehnat bilan sochi oqargan
Onaginam onasi – Vatan!

Ushbu misralarni o'qigan o'quvchida xuddi non singari kitobning ham uvolidan qo'rqish hissi, qolaversa buyuklarning avlodi ekanidan faxrlanish tuyg'usi uyg'onadi, albatta. O'zbek ayollarining mehnatkashligi esa go'zal tashbehda milliylik kasb etgan.

Beshigida go'dak uxlagan yurtim,
Shukrlar aytadi har yorug' kungaa.
O'g'il tug'ganida sevingan ONA-
Vatanni ishonib bo'lmas har kimga.

Ijodkorning vatan madhiga bag'ishlangan she'rlari ona timsoli bilan yonma-yon kelishi ko'p o'rinlarda ko'zga tshlanadi:

O'zbekiston – ona, onajon!
Ona, Sandig'ingda qonli ko'ylak bor.
Qirq birinchi yilda teshib o'tgan o'q,
Ona, ko'kragingda olov yurak bor.
Qahraton ayozda muzlagani yo'q.

Bu she'riy parchada O'zbekiston – onaga qiyoslanar ekan, uning sandig'i-o'tmish; qonli ko'ylagi-tariximizdagi urush yillari; ko'kragidagi olov yurak- tinchlikka umid; muzlamagani-shu umidning so'nmganiga ishoradir. Bu she'rni oxirigacha o'qigan o'quvchi lirik qahramonga nimalarnidir aytgisi, xulosada esa, undan faxrlangisi keladi. Bular shunchaki alqash emas, chinakamiga milliy ruhni obrazli ifodalashdir.

Ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda, tarixiy xotirang o'rni beqiyos. Zulfiya Mo'minova ijodida o'z o'tmishi ,ajdodlari bilan g'ururlanish va shu asnoda buni kelajak avlod ruhiga singdirish masalasi yetakchilik qilgan o'rinlar ham talaygina :

Menkim , xonlar bergan, sultonlar bergan ,
Qutlug' Nigorlarning zuryodidirman.
Sohibqiron sevgan Bibixonimning ,
Saroymulxonimniing avlodidirman.

Ushbu misralardagi tarixiy shaxslar har birimizga tanish.Qutlug' Nigorxonimning jasoratlari va Bibixonimning aql –zakovati to'g'risidagi tarixiy bilomlarimiz she'ni o'qishimiz bilan yodimizga tushadi. Yoki :

Mening bobolarim muhabbat haqqi
Toshlarni taroshlab tojmahal etgan.
Mening momolarim Alpomishni
Umr bo'yi kutgan , intizor kutgan.

Ushbu misralarni tahrirga tortishdan oldin , aytish joizki,"Milliy" so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati "da quyidagicha ta'riflar berilgan :

Milliy [a.] 1. Biror millatning , xalqning o'ziga xos bo'lgan, uning xususiyatlarini ifodolovchi.

2. Biror mamlakatga , davlat va uning aholisiga oid.

3. Millat bilan bog'liq , millatiga ko'ra bo'lgan.

Ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi bilan yuqoridagi misralarni tahlilga tortish yanada asoslidir. "Toshlarni taroshlab "- ushbu jumla ,adabiy bilimlarimizga tayanib aytganda, "Xamsa" qahramoni Farhod obraziga ishoradir. "Farhod va Shirin" dostonida Farhhod o'z yori Shiringa erishish uchun to'shni yo'nib, suv chiqargan va qahramonlik ko'rsatgan. Qolaversa, tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Temuriyzoda Shohjahon Sulton o'zining suyukli rafiqasi Mumtozmahalga bo'lgan sadoqati ramzi sifatida Hindistonda ulkan Tojmahal bunyod etgan va ushumuhabbat koshonasi bugun dunyoning yeti mo'jizasidan biridir. O'z Alpomishi kelishiga umid bog'lab, qalmoqlarga olti oy muhlat bergan ,o'zbek xalqining jasorat va sadoqat ramziga aylangan Barchinoy obrazini zulfiya Mo'minova "Mening momolarim " deya xotirlaydi.Ko'rinib turibdiki,ushbu xotira ijodkorga ruhiy madad singari g'oyaviy quvvat beraotganini sezishimiz mumkin.Milliy ruh uch jihat – harakat , holat va nutq uyg'unligiga bog'liq.lirik asarlarda esa uning nutq va holat qirralari yetakchilik qiladi.

Ijodkorning qaysi she'rini o'qimang , unda shunchaki his tuyg'u va kechinmalar emas , balki, aniq maqsad ifoda etilganiga guvoh bo'lasiz.Masalan :

Xazinai jahon u,
Kichik Abu Rayhon u,
Sizga qarab hayron u,

Bolaga kitob bering!
 Buxoriy –sarvarim u,
 Termiziy –anvarim u,
 Mahmud Zamahsharim u,
 Bolaga kitob bering!

E'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqoridagi she'riy parchada bir qator o'zbek allomalarining nomlari zikr etilgan, demak, muallifning maqsadi nafaqat kitobxonlikka chorlash, balki, o'quvchiga kimlarning avlodi ekanini eslatish va ularga munosib avlod bo'lishga undashdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Tarixiy xotirasiz, o'zlikni anglash mumkin emas".

Zulfiya Mo'minova she'rlarida milliy o'zlikni anglash va targ'ib etish hissi yetakchilik qiladi. Ayniqsa, Vatan va ona mavzusidagi asarlarida faqat o'zbek xalqi uchungina xos bo'lgan insoniy munosabatlar aks ettirilgani ahamiyatlidir. Qolaversa, ijodkorning talay ijod namunalarida ming yillar davomida saqlanib kelingan an'ana va qadriyatlarga murojaat etiladi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning "Yaxshi she'r hamisha odamlar orasida bo'ladi" degan so'zlari nechog'li haqiqat ekaniga guvoh bo'lamiz. Zulfiya Mo'minova she'rlari ham insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatlar, ular qalbidagi yashirinib yotgan ezgu tuyg'ular asosiga qurilgandir. Shoir faqatgina tuyg'ular ifodasi bilan chegaralanib qolmasdan, o'z ijod namunalarida aniq maqsadning ifodalanishi bilan zamondosh ijodkorlardan bir qadar farqli xususiyatlarga egadir. Uning ijodida kitobxonni yangi tarixiy voqelikni his qilishga, yangilanish va poklanishga chorlovchi g'oyalarni ko'ramiz. Bu g'oyalar doimgidek baland pardalarda tarannum etilgan, ammo shunchaki hissiz so'zlar bilan emas! Bu so'zlar yurak qa'ridan, yurak qonlariga qo'shilib chiqqan, shu bois, boshqa qalblarga –da yetib bormoqda. Shu tariqa, shoir ijodida xalqni uyg'otuvchi, unda milliy g'urur va e'tiqod, istiqol va istiqbolga ishonch tuyg'ularini ardoqlovchi she'rlar yetakchilik qiladi.

Adabiyotshunoslar G'afur G'ulomning "Sog'inch" she'rini o'zbek otasiga qo'yilgan haykal deb atashadi. Zulfiya Mo'minova ijodini kuzatar ekanmiz, lirik qahramon otasiga, bu orqali esa Vatan va yurt timsollariga ko'p bora murojaat qilinganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "O'zbekiston otamga o'xshar" she'rini o'qir ekansiz, she'rning boshdan oyoq milliy ruhda yozilganining shohidi bo'lasiz:

U ham sahar turib omonlik kutar,
 Qizlari- oy kabi to'linlariga.
 Uyalmasin debmi qaramay o'tar,
 O'zidan kech turgan kelinlariga.

Shu o'rinda adabiyotshunos Nurmon Jabborovning: "Milliy ruh ekan deb ko'pda egniga chopon tashlab, beliga belbog' boylab yaktakchan bo'z yigit obrazini yaratishga urinamiz... Urg'uni tashqi metaforik chizgilarga yuklaymiz. Jo'ngina aytganda milliy ruhni kiyim-kechaklar qatiga berkitamiz. Holbuki, zamon, makon va holatni ifodolovchi birgina

HARAKAT, birgina SO'Z yakka obraz timsolidatarbiya va muhit , asar ruhi pirovardida millat xarakterining “kod”lari aslida. Shu sababdan ham ijodkor o'zi qalamga olayotgan makon odamlari xarakterini (zamondosh bo'lgani holda) ilg'ashi shart...” -degan mulohazalari asoslidir.” O'zidan kech turgan kelinlariga uyalmasin deb qaramay otish” esa chinakamiga o'zbekona axloq va izzat ifodasidir. She'r quyidagi misralar bilan yakunlanadi:

Otamdek olganin unutmaydi hech ,
Birovga ne bersa , yodida turmas.

She'rdagi ushbu misralar xulosa sifatida “Yaxshilik qil daryoga ot” degan o'zbek xalq milliy maqoliga ishora qiladi. Vatanni onaga qiyoslash –she'riyat , umuman , adabiyot uchun yangilik emas, ammo uni otaga mengzash Zulfiya Mo'minova ijodidagi yana bir takrorlanmas jihatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zulfiya Mo`minova „Beshiklarni asragin, dunyo“ (1988)
2. Zulfiya Mo`minova „Samoga sochilgan yulduzlar“
3. Zulfiya Mo`minova “Istiqlol — oltin gulim”
4. Zulfiya Mo`minova „Yonayotgan ayol“ (1993)
5. Zulfiya Mo`minova „Azizim, baxtiyorman“ (1997)
6. Zulfiya Mo`minova „Qudratli yurtimga“ (1997)
7. Zulfiya Mo`minova „Birinchi o'qituvchim“
8. Zulfiya Mo`minova „Nikoh shartnomasi“,
9. Zulfiya Mo`minova „Ayolga baxt bering“, „Bir kun dars qoldirgan bir umr pushaymondir“
10. Zulfiya Mo`minova „Nikoh shartnomasi“ kabi kitoblar muallifi.

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR RIVOJLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jangabaeva Gulnora Genjebaevna

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Qonlikul tumani 2-sonli maktabning
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития мышления у детей младшего школьного возраста. Статья предназначена для педагогов и психологов.

Ключевые слова: современное общество, психолог, интеллект, восприятие, образование, образовательный процесс.

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda fikrlashni rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola o'qituvchilar va psixologlar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: zamonaviy jamiyat, psixolog, intellect, idrok, ta'lim, o'quv jarayoni.

Annotation: In this article, small school children have thought about the peculiarities of thinking. The article is designed for teachers, psychologists.

Key words: modern society, psychologist, intellect, perception, education, educational process.

Hozirgi globallashuv jarayonlari va fan-texnika sohasidagi ilg'or tadqiqotlar ijtimoiy soha vakillarining zimmasiga shaxsning jamiyat talablari bilan uyg'un rivojlanishi va faol bilish motivatsiyasini qaror toptirish bilan bog'liq zaruriy vazifalarni yuklaydi. Bunday hollarda jamiyat ijtimoiy rivojining ilmiy asoslangan istiqbolli rejasini tuzib, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurilishi yangi hayotiy muammolarni samarali va g'ayrioddiy hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor faol shaxsning shakllanishini talab etmoqda. SHu bilan bog'liq ravishda zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida barcha bilish jarayonlarini psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sohasini takomillashtirishni talab etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri ta'lim jarayonida juda katta o'zgarishlarga uchraydi. Mashhur psixolog L.S.Vigotskiy to'g'ri ko'rsatib o'tganidek, idrok va xotira maktab ta'limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt (aql) jadal taraqqiy etadi. Tafakkurning rivojlanishi idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o'zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanishga olib keladi.

Vigotskiyning ko'rsatishicha, maktab yoshiga bola idrok va xotira funksiyasiga nisbatan kuchsiz intellekt funksiyasi bilan qadam qo'yadi. Biroq intellekt shunday rivojlanadiki, na xotira va na idrok bunday rivojlanishni o'z boshidan kechirmaydi. Bu yerda ta'lim mazmuni va motivlarining stimullashtiruvchi roli, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayoniini tashkil qiluvchilik roli xususan yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayoni har xil yo'sinda tashkil qilinganda, ta'lim mazmuni o'zgartirilganda, o'qitishning turli metodikasiga qarab kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri nihoyatda xilma-xil xarakteristikaga ega bo'lishi mumkin. Bola xususan 7 - 8 yoshlik davrida konkret narsa va hodisalarning ko'rgazmali xususiyatlari va sifatlariga asoslanib, odatda konkret kategoriyalar bilan fikr yuritadi. Ayrim izohlar bilan mashhur shveysariyalik psixolog J. Piajening 7-10 yoshdagi o'quvchilar asosan konkret operatsiyalar bosqichida turadilar. Ana shu bosqichda bevosita, tajribadan olingan xususiyatlar sistemalashtirilishi mumkin, degan fikrlariga qo'shilish mumkin. Ammo, o'ylaymizki, kichik maktab yoshi davrining oxiriga kelib, to'g'ri tashkil qilingan ta'lim jarayonida o'quvchilar keyingi bosqichga, ya'ni umumlashtirish va abstraktsiyalashtirish qobiliyati taraqqiyotining ma'lum darajasi bilan bog'liq bo'lgan formal operatsiyalar bosqichiga o'tishga qobildirlar. IV sinflarning yangi programmalari ana shunga mo'ljallangan. IV sinf programmasida o'quvchilarning yangi material bilan tanishib, mustaqil mulohaza yuritishlari va xulosa chiqarishlari, faktlarni solishtirib ko'rishlari, taqqoslashlari va analiz qilishlari, juz'iy hamda umumiyini topishlari, oddiy qonuniyatlarni belgilashlari ko'zda tutilgan. SHunday qilib, bola maktabda o'qiy boshlar ekan, konkret tafakkurga ega bo'la boradi. Ta'lim ta'siri bilan hodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta-sekin ularning mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga o'tiladi. Bu esa dastlabki umumlashtirish, birinchi xulosa chiqarish, dastlabki solishtirishlarni o'tkazish va sodda xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ana shu asosda bolada sekin-astalik bilan tushunchalar tarkib topa boshlaydi. Bu tushunchalarni biz L.S.Vigotskiydan keyin (bolada maqsadga muvofiq ta'limdan tashqari uning tajribasi asosida yuzaga kelgan hayotiy tushunchalardan farq qilib) ilmiy tushunchalar deb ataymiz. Bolada ilmiy tushunchani tarkib toptirish uchun o'quvchini narsalarning belgilariga differensiyali yondashishga o'rgatish lozim. O'quvchiga narsalarning muhim belgilari borligini, ana shu muhim belgilarimiz narsalarni biron tushunchalar turkumiga kiritib bo'lmasligini ravshan ko'rsatishi kerak. Bu muhim belgilarni hamma vaqt ham osonlik bilan ko'rib va ajratib bo'lmaydi. SHuning bilan birga maktab o'quvchisi shuni ham tushunishi kerakki, mazkur tushuncha uchun muhim bo'lmagan belgilar ham bo'ladi. Bu belgilar narsalarning individual xususiyatlarini xarakterlab beradi, ba'zan juda ko'zga tashlanib turadi va ta'sir etuvchan bo'ladi. Narsalarning belgilarini differensasiya qilish va muhimlarini ajratishga birdaniga o'rganib bo'lmaydi. Axir kichik maktab yoshidagi o'quvchilar birinchi navbatda narsalarning

tashqi belgilarini idrok qiladilar. Xuddi ana shu tashqi belgilar muhim bo'lmashliklari mumkin. Tushunchalarning tarkib topishi jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tomonidan tez-tez yo'l qo'yiladigan xatolar, ya'ni belgilarning o'rnini almashtirib yuborish, muhim bo'lmagan belgilar asosida yoki muhim va muhim bo'lmagan belgilarni qator qo'yish asosida noto'g'ri umumlashtirish ham xuddi ana shu sababdan kelib chiqadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarning mashg'ulotlar jarayonida axborotlarni qabul qilishi bilish jarayonlarini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar jarayonida beriladigan axborotlar ham boshqa axborotlar singari vaziyatga qarab qabul qilinadi, shuning uchun axborotlarni o'zlashtirishdagi individual farqlar, ehtiyojlar, topshiriqlar va bolalarning maqsadlari mos bo'lmashligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, kichik maktab yoshdagi bolalarning axborotlarni qabul qilishlari bir xil bo'lmashada, ularning bilish faoliyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rus psixologlarining tadqiqotlarida kichik maktab yoshdagi bolalarda qabul qilishning ikki turi; analitik va sintetik turlari ajratilgan. Analitik turda diqqat e'tibor alohida mayda - chuydalarga qaratiladi. Sintetik turda umumiy yaxlit holda qabul qilinadi. Ikkala turni bir-biriga qarama - qarshi qo'yish psixologiyada hozirgacha saqlanib keldi. Ammo turli yo'nalish vakillari buni shunday ta'riflaydilar. Differensial psixologiya uchun perseptiv usullarni farqlash muhimdir, chunki bu barcha bolalarda bir xil emas. Bu turdagi individual xususiyatlar bolada umrbod o'zgarmas bo'lib qolmaydi, ular ontogenez jarayonida rivojlanadi, nafaqat rivojlanish jarayonida balki pedagogik mashqlar, pedagogik ta'sirlar orqali o'zgarib boradi. Kichik maktab yoshdagi bolalarda mashg'ulotlar jarayonida namoyon bo'ladigan tafakkurga xos bo'lgan uslubni o'rganish maqsadida A.A. Alekseeva va L.A. Gromovalar tomonidan ishlab chiqilgan tafakkur uslubini aniqlash so'rovnomasi o'tkazilganda, bolalarning 8,7 % sintezatorlik, 8,7 % idealistiklik, 8,7 % pragmatiklik, 56,5 % analitiklik, 17,4 % da realistlik uslubining ustunligi aniqlandi. Bolalarning axborotlarni qabul qilishlari bilan tafakkur uslublari o'rtasidagi korelyatsion koeffitsenti Pirson formulasi orqali o'rganilganda, analitiklik uslubi bilan bilish jarayonlarini rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy aloqalar borligi aniqlangan. Axborotlarni qayta ishlab chiqish tezligini an'anaviy taxistostopik usul va ko'z harakatini o'lchash zamonaviy muolajasi yordamida aniqlash mumkin. Taxistaskopik tajaribalarda insonlarda bir xil sharoit va bir xil vaqt ichida axborot qabul qilish va qayta ishlash qobiliyati har xilligi kuzatilgan. Axborotni qayta ishlash tezligi va sifatini o'rganishning ikkinchi metodik uslubi bu ob'ektlarni ko'rib chiqish va matnlarni o'qish paytida amalga oshiriladigan ko'z harakatlarni o'lchash va belgilab qo'yishdir. Axborotlarni qabul qilish qayd etish paytida sodir bo'ladi. SHuning uchun fiksatsiyalar davomiyligini o'lchash axborot qabul qilishga qancha vaqt kechishini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, jismni ko'rgazmali tahlil qilish kuzatuvchining bilimi, tajribasi va kuzatishlariga bog'liq. Rus psixologlari tomonidan kuchli va kuchsiz asab tizimiga ega bo'lgan bolalarni o'yin

faoliyatida kuzatilganda nigohni fiksatsiya qilish davomiyligi va qaror qabul qilishdagi vaqtda farq borligini aniqlaganlar. Kuchsiz asab tizimiga ega bo'lgan bolalar kuchlilariga qaraganda nigohlarini tez va uzoq to'xtatib turishgan, qarorni sekinroq qabul qilishgan, raqiblarining figuralariga emas, o'z figuralariga ko'proq e'tibor berishgan. Kuchli asab tizimiga ega bo'lgan bolalar bir fiksatsiyada juda ko'p axborot qabul qilishgan, o'yinning keyingi holatiga ahamiyat berishgan. Faol qidiruv axborotini amalga oshirgan. Narsalarni bolalar tomonidan tartibga solish guruhlash bo'yicha kuzatilganda ikki faza aniqlangan:

1. Axborot qidirish fazasi - bunda materialni ko'rib chiqish amalga oshiriladi va uni turlash va toifali tartibga solish rejasi tuziladi.

2. Tuzilgan rejalar asoslanadi va tekshiriladi. Ammo, differensial psixologik nuqtai - nazaridan qaraydigan bo'lsak, biror individual farqlar aniqlanadimi? degan savolga javob berishimiz kerak. Albatta bunday farqlar mavjud. Impulsiv va reflektiv bolalarning har xil xulqlari aniqlanganligini aytish mumkin. Bunda impul'siv bolalar "O'xshash jismlarni topish" kabi topshiriqlarga duch kelganda juda tez javob topadilar. Ammo ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Reflektiv bolalar esa xuddi shunday topshiriqqa ancha ko'p vaqt sarflaydilar. Ammo xatolari kam bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi. Xulosa shuki, axborot qabul qilish tezligidagi individual farqlar, o'tkazilgan farqlarning aniqligidagi, qaror qabul qilishda bola uchun kerak bo'ladigan axborotlarning sonidagi va ahamiyatidagi farqlar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov A. Jumanazarov Yo. "Yosh va pedagogik psixologiya". Namangan. 2008
2. Рогов Е.А Настольная книга практического психология Москва. 1999

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Jangabaeva Gulnora Genjebaevna

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Qonlikul tumani
2-sonli maktabning Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ona tilini namunalar va maxsus mashqlar asosida amaliy, muntazam va izchil o'rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borishni taqozo qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: nutq, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, metodika, ona tili darslari.

Аннотация: Формировать форму литературно-художественной речи необходимо путем практического, регулярного и последовательного обучения родному языку на примерах и специальных упражнениях. Основная задача уроков родного языка в начальной школе – подготовить учащихся к учебной деятельности, сформировать человека, умеющего общаться с другими, умеющего в понятной форме доносить до других свои мысли.

Ключевые слова: речь, культура речи, начальный класс, учащиеся, методика, уроки родного языка.

Annotation: It is necessary to form the form of literary and artistic speech through practical, regular and consistent teaching of the mother tongue based on examples and special exercises. The main task of elementary school mother tongue classes is to prepare students for educational activities, to form a person who can communicate with others, who can convey his thoughts to others in an understandable way.

Key words: speech, speech culture, primary class, pupils, methodology, mother tongue lessons.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'limi tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u «milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, mehnat ko'nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlar olinishini ta'minlash, bilimlarni

o'zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish»ga yo'naltirilgan.

Xususan, boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinf O'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rin egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq sohibi bo'lish haqida shunday deydi: - Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisijismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o'z-o'zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidentiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logic figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz. Nutq atamasi arabcha so'zdan olingan bo'lib, so'zlash, nutq; gapirish qobiliyati ma'nosini bildiradi. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o'rni va roli qadimdan ko'pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: —...so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

M.Koshg'ariyning —Devon-u lug'otit turk asarida —Adab boshi - til maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u berganini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so'z orqali a'yon bo'lishini aytib, nutqning ravon bo'lishiga da'vat etadi: —o'quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir.

Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi.

Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lgin.

Kaykovus o'zining —Qobusnoma asarida so'zlash madaniyati quyidagicha e'tirof etadi: —... xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin.

Xaloyiq sening so'zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar, har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug'at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Boshlang'ich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so'z yasalishi, morfemik (so'z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o'quvchilarning nazariy tushunchalarni o'zlashtirishlariga yordam berishi, lug'atini boyitishi, bog'lanishli nutqini o'stirishi jihatidan keng qamrovli bo'lib, o'quvchilarning tilni har tomonlama o'zlashtirishlarini ta'minlashini nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o'stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, O'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo'la olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan terma to'qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog'lanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy so'zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o'quvchi nutqini boyitish uchun manba bo'la olmaydi. O'quvchilarning o'zbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog'liq. Darslarni didaktik o'yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin namunalari keltiramiz:

Zanjirli o'yini. O'qituvchi tilda mahnodoshi bo'lgan so'z aytadi, o'quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh so'zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagan paytda navbatdagi o'quvchining o'zi tilda ma'nodoshi bor so'z aytib o'yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator parta o'quvchilari bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. O'yin ketma-ketlikda davom ettiraveriladi. Masalan, bir qatorda 10 ta o'quvchi o'tirgan bo'lsa uchta, to'rtta mahnodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. 4-sinfda 304-mashq bajarilib bo'lingach bu o'yin uyushtirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masharipova U. Formirovanie kommunikativnix kompetentsiy mladshix shkolg'nikov na osnove razvitiya svyaznoy rechi // XIII mejdunarodnoy konferentsii —2. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. -T.: O'qituvchi. 1995.
3. Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari
4. Nishonaliyev U.N. Talim standarti va pedagogik innovatsiyalar // Xalq tahlimi j. - T.: 1999. 6-son. - 28-31-b.
5. Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. ped. f. n. dissertatsiya, Qarshi: 2008. 145 b.

BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI TA'LIMIDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jangabaeva Gulnora Genjebaevna

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Qonlikul tumani 2-sonli maktabning
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolda yozma nutqni o'stirish tushunchasi, ona tili darslarida nutq o'stirishning shakli va vositalari, nutq o'stirishda noan'anaviy usullardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: yozma nutq, nutq o'stirish, erkin fikrlash, so'z, so'z boyligi, so'zlarning talaffuzi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о концепции развития письменной речи, формах и средствах развития речи на занятиях по родному языку, использовании нетрадиционных методов в развитии речи.

Ключевые слова: письменная речь, развитие речи, свободное мышление, слово, словарный запас, произношение слов.

Annotation: The article discusses the concept of development of written speech, forms and means of speech development in the lessons of the native language, as well as the use of non-traditional methods of speech development.

Keywords: written speech, speech development, free thinking, vocabulary, vocabulary, pronunciation of words

Ona tili fani yosh bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgaralar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Yozma nutqni o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida izlanish.
- 2) so'z birikmasi va gap ustida izlanish.
- 3) bog'lanishli nutq ustida izlanish.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z

navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'qituvchi shuni ham unutmazlik lozimki, ko'pincha o'quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko'pincha mavzuga aloqasi bo'lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo'lishi, materialning to'g'ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to'g'ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili darslarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o'quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o'z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. O'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, ona tili mashg'ulotlari samarali o'tilgan bo'ladi. Pedagogik kitoblarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar nutqning rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o'quvchilarning uyda, ko'chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko'pchiligi uyda tojik, qirg'iz va hokazo tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishdi. Bu hol, shubhasiz, o'quvchilarda tilning boy

imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o'tilgan salbiy omillardan tashqari ona tilimizdan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan bo'shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, ota-onalarning bola nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman. "Hikoya" O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafosat, yomg'ir, soat va adabiyot kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. "O'zaro bog'liqlik" O'quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi buyum haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu olma daraxti. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi" Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi buyum haqida gapiradi va o'zidagi buyum bilan birinchi o'quvchidagi buyumini o'zaro bog'liqligini aytishi kerak bo'ladi. Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

"Umumiylikni izlash" O'quvchilar aylana bo'lib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

"Safar" O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida "obyekt"ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin.

Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni

yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.:O'qituvchi, 1980.66-bet
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.:Sharq, 2000. 110-bet
3. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet

O'ZIGA XOS ANOR DARAXTINING ISHLATILADIGAN QISMLARI HAMDA XALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI

Xolisbekov Jaloliddin Kamoliddin o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Axmadjonova Shaxnoza Zafarbek qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Ravshanova Gulnoza Vohid qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Anor tabiiy holda, O'zbekistonning janubiy tumanlarida, janubiy va g'arbiy Hisorda uchraydi. Anorning jaydari, nordon turlaridan limon kislotasi, meva po'stlog'idan tanin moddasi olinadi. Anorni qon qusishida, milk va ichakdan qon kelganda, shuningdek siydik haydovchi, yara va jarohatlarga malham sifatida qo'llaniladi.

Kalit so'zlari: Anordoshlar oilasi, yovvoyi anor, xalq tabobati, Oq anor, Achchiq anor, Qozoqi anor, Qay anor, Qizil anor, Ulfi anor

Anor (*Punica granatum*) madaniy sharoitda O'zbekistonda keng tarqalgan anordoshlarga kiruvchi subtropik o'simlik. Anor bo'yi 5 metrgacha o'sadigan buta, tanasi qo'ng'ir rangga moyil po'st bilan qoplangan. Shoxlari kulrang yoki jigarrang-sariq tusda, silliq yosh novdalari yashil-kulrang, kalta tikanlari bo'ladi. Barglari qarama-qarshi joylashgan, ba'zan bir-biriga taqalib turadi, qalin, yaltiroq, ellipssimon yoki uzun nashtarsimon, kalta bandli. Gullari yakka-yakka, ba'zan to'pgul holida bo'ladi, kalta gulbandi bor. Mevalari dumaloq shaklda bo'lib, burishtiradigan, taxir mazali, qalin po'st bilan qoplangan, mevalarining ichida gul kosasining qizg'ish yoki sarg'ish rangli qoldig'i bo'ladi. Mevasining ichi parda to'siqlar bilan 6 ta dan to 12 tagacha uyalariga bo'lingan, uyalarida qirmizi-qizil sershira et bilan o'ralgan nordon-shirin mazali bir talay urug'lari bo'ladi. May-avg'ust oylarida gullaydi, mevasi sentabr-oktabr oylarida pishadi. Uning asl vatani Eron, Afg'oniston hisoblanadi. Yer yuzida Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Dog'iston, Qrim va O'rta Osiyo respublikalarining deyarli barchasida o'stiriladi. Yovvoyi turlaridan seleksiya usuli bilan talaygina serhosil va shirin navlari yetishtirib chiqarilgan. O'zbekistonda anorning 40 ga yaqin

navlari bor. Anorning Oq dona, Achchiq dona, Qozoqi anor, Qay anor, Qizil anor, Ulfi anor kabi navlari ekiladi.



Ular orasida sifati jihatidan jahon standart anorlaridan qolishmaydigan navlar ko'plab topiladi. Anor juda foydali o'simlik, bevosita iste'mol qilinishidan tashqari xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida ishlatiladi. Ildizlari, tanasi va shoxlarining po'stida 0,25 % gacha har xil alkaloidlar bor, shulardan pelterin, izopelterin va kislota ajratib olingan. Tanasining po'stlog'ida 0,15 % miqdorda, barglarida esa 0,2 % miqdorda betulinat kislota, mevalarining po'sti va barglarida ursolat kislota ham topilgan. Anorning tarkibida 0,9-4,0 % limon kislotasi, 14-21 % qand, ko'p miqdorda vitamin va boshqa foydali moddalar bor. Mevalarining po'stida 28 % gacha oshlovchi moddalar, vitamin C, organik birikmalar (kislotalar) va qand moddasi bor. Anor xalq va ilmiy tibbiyotida, bo'yoqchilik va manzarali o'simlik sifatida juda qadrlanadi. Xalq tabobatida anor po'sti, mevasi va gullari ko'pgina kasalliklarda, jumladan sariq, istisqo (vadyanka), gijja, qo'tir, lavsha (zangila), ichak kasalliklarida, shuningdek ishtaha pastligida, badan lat yeb, suyaklar singanda va og'riq qoldiruvchi vosita tariqasida qadimdan ishlatiladi. Ichak kasalliklari, qon tuflash, qon ketishiga davo qilish uchun Abu Ali ibn Sino anor gullaridan, me'da-ichak yo'li, jigarning, taloqning yallig'lanish kasalliklarida foydalangan, shuningdek jarohlarni bitiruvchi, siydik haydovchi vosita tariqasida buyurgan. Asalga qorishtirilgan anor urug'lari hadeganda bitavermaydigan yaralarga qo'yiladi, tish va quloq og'rig'iga qarshi ishlatiladi. Gippokrat ichburug' va turli jarohlarni davolash uchun anor mevalarini buyurgan. Anor sharbati va qaynatib, quyuqlashtirilgan suvi bosh og'rig'iga shifo bo'ladi. Anor po'stloqlari bilan ezilib, sharbati olingan bo'lsa, u ichni qotiruvchi omil sifatida ham ta'sit ko'rsatadi. Shirin anor ichni tozalaydi, nordoni esa me'da kasalliklari, istimada foyda beradi. Safro xilti va qon

xilti ko'payib ketgan kishilarga anor tavsiya qilinadi. Zamonaviy tabobatda anor po'stining peleterin alkaloidi tanin hamda sulfat kislota bilan birikkan holda, ya'ni pellelerin sulfati ko'rinishida uchraydi. Shuningdek, anor po'stidan olinadigan ekstrakt tasmasimon gijjaga qarshi ishlatiladi.



Anor mevasi po'stidan tayyorlanadigan dori-darmonlar esa gastritlar, enteritlar va kolitlarda burishtiruvchi vosita tariqasida qo'llaniladi. Barglaridan tayyorlanadigan tinktura grammm musbat bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Anor gullarining damlamasidan Xitoyda ichburug', paradontozni davolash uchun foydalaniladi, gullarini quritib, turli jarohatlarga sepiladi. Shirin anor suvi gastritlar, buyrak sanchiqlarida, nordon anor suvi esa qandli diabetda buyuriladi. Quyuqlashtirilgan suvi lavsha, bavoasil, konyunktivitlarda ishlatiladi, ishtaha ochish uchun, shuningdek jarohatlarni bitiruvchi, istimani tushiruvchi, chanqoq bosuvchi vosita tariqasida ishlatiladi. Anor uch yoshdan boshlab hosilga kira boshlaydi. Har tupdan olinadigan o'rtacha hosil 20-30 kg ga yetadi. Anor juda uzoq, yani 200 (300) yilgacha umr ko'rishi mumkin. Anor asosan ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Mamlakatimizda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Shahrisabz tumanlarida o'stiriladi. Ayniqsa, Kitob tumanining Varganza qishlog'i plantatsiyalarida o'stiriladigan anor navlari butun respublika va qo'shni Qozog'iston, Rossiya davlatlarida mashhurdir. Qolgan tumanlarda aholi tomonidan o'stiriladi. Anor daraxti sovuqqa chidamsiz. Shu sababdan uni respublikamizning janubiy tumanlaridan tashqari, boshqa joylarida kech kuzda tuproqqa ko'mish lozim. O'zbekistonda madaniy anor navlaridan tashqari, tabiatda tog' daralarida saqlanib qolgan kichik-kichik yovvoyi anorzorlarni uchratish mumkin. Bu yovvoyi anorzorlar haqida botaniklar har xil fikr yuritganlar. Masalan, V.V.Kuznesov(1949 y.) To'palon daryoning yuqori qismi (Xisor tizma tog'i), G'arbiy Kopetdog' (Turkmaniston) va Panj daryosining yuqori qismida (Tojikiston) da o'suvchi anorlarga yovvoyi deb qaraydi. O'zbekiston florasining to'rtinchi jildida esa To'palon vohasidagi anorlar madaniy sharoitda o'stiriladigan anorlarning yovvoyilashgani deb

olingan. Bu bilan O'rta Osiyodagi yovvoyi anorlar inkor etilmaydi. O'zbekiston florasida uchun anorlar turkumini ishlagan R.P.Sumiyevich Kopetdog' va Darvozda uchraydigan anorlarni yovvoyilar qatoriga kiritadi. Shunisi qiziqki, Surxondaryo viloyatida (To'palon daryo vodiysi), Kopetdog' va Darvozda uchraydigan anorlar morfologik va boshqa belgilari bilan bir-biriga juda ham o'xshab ketadi. Shunday qilib, O'rta Osiyoning yuqorida qayd qilingan tumanlarida uchraydigan anorlar bir taksonomik birlikka mansub o'simlikdan boshqa narsa emas. Tabiiy holdagi anor madaniy anorlarning yovvoyilashgan holdagi formalarini yoki ular azaldan bormi, degan savol jiddiy mulohaza yuritishni talab etadi. Ma'lumki, madaniy o'simliklarning aksariyat qismi insonlar tomonidan tabiiy o'simliklar orasidan saralab olingan. Hech shubhasiz madaniy sharoitda ekiladigan anorlar ham xuddi mana shu tarixga ega. O'rta Osiyo bir qator madaniy o'simliklarning vatani bo'lib, ularning yovvoyi turlari hozirgi kunda ham ko'plab topiladi. Demak, bizdagi yovvoyi anorlar ham azaldan shu yerda o'sgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.Nabiyev, T.Odilov, O'.Pratov, G'.Shermatov. Qiziqarli Botanika. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent-1975. 141-142 betlar.
2. A.Sattorov. Dard borki, darmon ham bor (O'simliklar bilan davolash 1-kitob). "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti. Toshkent-2016. 41-44 betlar.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari (uch jildlik saylanma). "Abdulla Qodiriy" nashriyoti. Toshkent-1992. 2-jild.
4. N.Jo'rayeva. Shifobaxsh o'simliklar. Gulxan N:2(807). "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent-2008. 24-bet.
5. N.Hoshimov. Marjon tabib (2-qism). "IJOD-PRESS" nashriyoti. Toshkent-2017. 208-246 betlar

OMBORXONA XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INNOVATSION LOGISTIKADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Boymatov O‘tkir Tulovmurod o‘g‘li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

E-mail: utkir.boymatov.92@bk.ru

Tel: +998 94 216-65-07

Tashkent, Republic of Uzbekistan.

ANNOTATSIYA

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘shishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o‘zgarishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Innovatsiya ishlab chiqarishni va barcha sohalarni modernizatsiyalashga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Samarali innovasion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish strategiyasi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishni ham belgilaydi. Logistik tizim u yoki bu logistik funksiyalarni amalga oshiruvchi, teskari aloqaga ega bo‘lgan oddiy tizimdan iborat. U, asosan, bir nechta tizim ostilardan tashkil topadi va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo‘ladi.

Logistikaning asosiy maqsadi iste’molchiga kelishilgan vaqtda kerakli mahsulot (tovar)ni, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni minimal xarajat qilgan holda yetkazib berishdan iborat. Material, xomashyo, tayyor mahsulotni aniq, o‘z muddatida yetkazib berish butun bir iqtisodiy tizimning ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, moddiy zaxiralar, ularni shakllantirish va saqlash bo‘yicha xarajatlarni, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarni qisqartirishga imkon tug‘diradi.

Kalit so‘zlar: Logistik tizim, ishlab chiqarish, ombor hizmati, zaxiralar to‘plash.

ABSTRACT

At the current stage of development of our country, innovation is becoming a key factor in human development and economic growth. The constant development of the innovation process has a significant impact on the transformation of humanity and social life

Innovation has a great impact on the modernization of production and all industries. Effective innovation activity determines not only the production strategy, but also the strengthening of the economic potential of the country.

A logistics system is a simple system with feedback that performs one or another logistics function. It consists mainly of several subsystems and has well-developed relationships with the external environment. The main purpose of logistics is to deliver

the required product (commodity), labor, material and financial resources to the consumer at the agreed time at minimal cost.

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni muhim ahamiyat kasb etadi¹. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsiya ishlab chiqarishni va barcha sohalarni modernizatsiyalashga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Samarali innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish strategiyasi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishni ham belgilaydi. Innovatsiya deb yangi ko'rinishda mahsulot, tovar, ish, xizmat, uslub yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rinlari tashkil etishni, boshqaruvni yoki tashqi aloqalar o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi. Innovatsiyalar turli sohalar rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

O'zbekistonda innovatsion sohada olib borilgan ishlar, olib borilayotgan islohotlar negizida tashkil etilib, B.Abdullayev, I.Abduraimov, S.Qosimov, N.Mo'minov, S.G'ulomovning ilmiy iqtisodiy izlanishlarida bu masalalarga to'xtalib o'tilgan. Ammo omborxonada sohasida, xalqaro yuklarni tashish, saqlash qayta ishlab chiqarish innovatsiyalar borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagan, shu sababdan magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalarini aniq belgilab oldik.

Magistrlik dissertatsiyasining obyekti va predmeti. O'zbekiston Respublikasida qulay, turli xil iqlim sharoitida ham omborxonada yuklarni saqlashni ta'minlovchi logistika turidan omborxonada hisoblanadi. Shu sababdan, magistrlik dissertatsiyasining obyekti sifatida "Termez cargo centre" masuliyati cheklangan jamiyati tanlab olindi. O'zbekiston Respublikasi qonuning transport xizmatlaridan foydalanish chog'ida transport korxonalarini orqali yuk jo'natuvchilar, yukni oluvchilar, yo'lovchilar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasida omborxonada yuklarni tashish, saqlash qoidalari, shuningdek boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi. O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni "Xalq so'zi" gazetasi, 04.09.2018-yil, № 182.

Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining omborxonona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan. Dissertatsiya predmeti omborxonona xo‘jaligini boshqarishni tashkil etishdir.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi omborxonona tizimida yuk harakatini o‘rganish bunda asosan, omborxonona tizimida xalqaro yuk tashuvlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yuk harakatini nazorat qilish, yuklarni yetib borishidagi xavfsizlik choralarini ko‘rish, xalqaro yuk tashish qoidalari o‘rganish, xalqaro konvensiya va hujjatlar asosida yuk harakatini to‘g‘ri tashkil qilish. Bundan tashqari, iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalar keng qo‘llanilayotganini va samarali ishlayotganini hisobga olgan holda, omborxonona logistikasida xalqaro yuk tashuvlarini innovatsiyalar asosida boshqarish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Omborxonona logistika tushunchasi va uning bugungi kunda iqtisodiyotdagi o‘rni

Mamlakatimizda oxirgi yillarda innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘shishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o‘zgarishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Logistikaning maqsadlari. Logistika bosh maqsadiga erishish vositalari bo‘lib ikkinchi darajali maqsadlar hisoblanadi va asosiy maqsadlarga xizmat qiladi; ularni logistika sohasidagi korxonaning faoliyati aniqlab beradi. Innovatsiya ishlab chiqarishni va barcha sohalarni modernizatsiyalashga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Samarali innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish strategiyasi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishni ham belgilaydi. Innovatsiya deb yangi ko‘rinishda mahsulot, tovar, ish, xizmat, uslub yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko‘rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o‘rinlari tashkil etishni, boshqaruvni yoki tashqi aloqalar o‘rnatilishini o‘zida mujassamlashtirgan faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi. Omborxonona tushunchasi.

Ombor deganda - tovarlarni qabul qilish, saqlash, joylashtirish va taqsimlash bo‘yicha amaliyotlar kompleksini amalga oshirishga mo‘ljallangan, maxsus texnologik uskunalalar bilan jihozlangan bino, inshoot va turli qurilmalar tushuniladi.

Omborlarning asosiy vazifasi — iste‘molchilar buyurtmasi zaxirasini jamlash, ularni saqlash va uzluksiz bir me‘yorda ta‘minlanishini amalga oshirish.

Logistika – moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manbayidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakatini boshqarish, nazorat qilish, rejalashtirish va tashkil etish to'g'risidagi fandır. Logistikani o'rganish obyektiv moddiy va unga tegishli moliyaviy, axborot oqimlaridir.


Innovatsion logistika – bu logistik tizimda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni innovatsiyalar asosida amalga oshirish va rivojlantirishdir.

Innovatsion logistika – logistik operatsiyalarni bajarishda innovatsion jarayonlarni boshqaruv mexanizmlari bo'yicha umumiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish, innovatsion fikrlash, ma'lumotlar oqimini qabul qilish va umumlashtirish, shuningdek logistik zanjirda boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi zaruriy ichki resurslarni rivojlantirish bo'yicha bilimlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu yo'nalish logistik innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari bo'yicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, logistik innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk obyektlarini yaratish, huquqiy muhofazasi va himoyasini ta'minlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar va ta'riflarni, O'zbekiston va boshqa davlatlarning logistik jarayoni va innovatsion tizimi hamda shu sohadagi qonunlarni o'rganadigan sohadir.

Ushbu logistik innovatsion faoliyatni o'rganish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar quyidagilar:

-logistik innovatsion faoliyat konsepsiyasi, logistik innovatsion faoliyatni boshqarish sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, makro va mikro darajada innovatsiyalarni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning logistik innovatsion tizimlari va soha bo'yicha qonunlar, tashkilotlar, ularni tashkil qilish va strukturalari, innovatsion g'oya egasining huquqi va majburiyatlari, intellektual mulk obyekti, ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish haqida tushunchalar;



-innovatsion faoliyatni, logistik operatsiyalarni amalga oshirish yo'llarini, ya'ni ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlarni tahlili.

Shuningdek, transport-logistika, ixtiro, sanoat namunalari, tovar va xizmat belgisi obyektlarining patent qobilyati, shartlari va foydali modellarning himoyalalanuvchanligi, xalqaro patent tasnifi, patent axboroti, ma'lumotlar ba'zasi, Yevropa, AQSH, MDH mamlakatlarining innovatsiya bo'yicha qonunchiligi va ulardan foydalanish, qiyosiy tahlil o'tkazish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlash joizki, bir necha yillardan beri innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquq egalariining manfaatlarini himoya qilish, respublikamizning sohaga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali mamlakatimiz mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida innovatsion logistikaning ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o'rni salmoqlidir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu logistik operatsiyalarni amalga oshirishda ham nihoyatda dolzarblik kasb etadi.

Innovatsion faoliyat makon va zamonda mavjudligi, o'z o'rniga ega ekanligi sababli iqtisodiyotning muhim obyektlaridan biri hisoblanishi tabiiy hol. Biroq, iqtisodiyotga oid adabiyotlarda innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyati, uni tasniflash va tavsiflash asoslari, ushbu faoliyatga doir ma'lumotlarni hisob va hisobotda real aks ettirilganligini tekshirish tartibi yetarlicha ochib berilmagan.

Omborxonada faoliyatida innovatsion logistikadan foydalanishning ahamiyati

Logistika — moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manbayidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakatini boshqarish, nazorat qilish, rejalashtirish va tashkil etish to'g'risidagi fandir. Logistikani o'rganish obyekti moddiy va unga tegishli moliyaviy, axborot oqimlaridir.

Logistikaning asosiy tushunchalari. Logistika o'zining tushunish apparatiga ega, uning tarkibiga logistikaga xos bo'lgan kategoriyalar, tushunchalar, atamalar kiradi.

Moddiy oqim. Moddiy oqim tushunchasi logistikada muhim o'rin tutadi. Moddiy oqimlar tashish, omborga joylashtirish va xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar

hamda tayyor mahsulotlar bilan boshqa moddiy amallarni bajarish natijasida yuzaga keladi.

Moddiy oqim - bu vaqt oralig'iga keltirilgan va har xil logistik amallarni joriy etish jarayonida ko'rib chiqilayotgan tovar - moddiy boyliklarning yig'indisi. Ishlab chiqarishning aniq manbayidan to iste'molgacha bo'lgan oraliqda joylashgan bir turdagi resurslar yig'indisi oddiy moddiy oqimni yuzaga keltiradi. Korxonada shakllanadigan bir nechta oddiy oqimlar korxonaning me'yoriy faoliyatini ta'minlab beruvchi integrallashgan moddiy oqimni tashkil etadi.

Makrologistik tizim - bu mamlakatning har xil mintaqalarida yoki har xil mamlakatlarda joylashgan sanoat korxonalari va tashkilotlarini, turli xil sohalarda ish yurituvchi vositachi, savdo va transport tashkilotlarini qamrab oluvchi moddiy oqimlarni boshqarish tizimidir. Makrologistik tizim mintaqa, mamlakat yoki mamlakatlar guruhi iqtisodiyotining infrastrukturasi tashkil etadi.

Mezologistika - tarmoqning bir necha korxonasini bir tizimga integratsiya qilish sohasi. Mikrologistik tizimlar makrologistik tizimlarning strukturaviy tashkil etuvchilari, ichki ishlab chiqaruvchi logistik tizimlarning sinflaridir, ularning tarkibiga bir butun infrastruktura bilan birlashtirilgan ishlab chiqarishning texnologik bog'lovchilari kiradi (ishlab chiqarish va savdo korxonalari, territorial (hududiy) ishlab chiqaruvchi komplekslar).

Mikrologistika - lokal masalalarni alohida bo'g'in va logistika elementlari darajasida, moddiy va axborot oqimlarini ichki ishlab chiqarish darajasida hal etadi. Bu korxonada amalga oshiriladi. Logistikaning funksional sohalari va ularning tavsifi. Logistikaning asosiy maqsadi iste'molchiga kelishilgan vaqtda kerakli mahsulot (tovar)ni, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni minimal xarajat qilgan holda yetkazib berishdan iborat. Material, xomashyo, tayyor mahsulotni aniq, o'z muddatida yetkazib berish butun bir iqtisodiy tizimning ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, moddiy zaxiralarni, ularni shakllantirish va saqlash bo'yicha xarajatlarni, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarni qisqartirishga imkon tug'diradi.

Logistika ham marketing kabi iste'molchi manfaatidan kelib chiqib, quyidagi oltita shart bajarilganda logistika faoliyatining maqsadiga erishildi, deb hisoblanadi:

- 1) zarur tovar;
- 2) talabga muvofiq sifatli;
- 3) zaruriy miqdorda yetkazib berilgan;
- 4) kelishilgan vaqtda;
- 5) zaruriy joyga;
- 6) minimal xarajatlarni bilan.

Logistikaning global maqsadi - siklni qisqartirish, zaxiralarni kamaytirish bo'lib, bunga ishlab chiqarish bosqichida jarayonlarni sinxronlashtirish hisobiga, moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, o'z-o'zini boshqarish hisobiga (ishlab

chiqarish biron bir mahsulotga bo'lgan talabga muvofiq ishlaydi) erishiladi. Taqsimot boshqaruvini tashkil etish, moddiy oqimning o'tib borishini tezlashtirish va sotilishini ta'minlash tashkiliy yo'nalishga kiradi. Shunday qilib, tashkiliy yo'nalish logistikaning funksional sohasi bo'lib, moddiy oqimlarning harakatini olib boradi va ta'minot hamda sotuvni ta'minlaydi. Zaxiralar ishlab chiqarish muomala va iste'mol orasida qalqon (bufer) rolini o'ynaydi. Ular bevosita ishlab chiqaravchida jamlangan, yoki ularning saqlanishi iste'molchiga yaqinlashtirilgan bo'lishi mumkin. Zaxiralar talab o'zgarishlariga tez javob berishga imkon beradi va transport xizmatining bir maromda ishlashini ta'minlaydi. Korxonani xomashyo va materiallar bilan ta'minlash jarayonida sotib olib g'amlash logistikasi masalalari hal bo'ladi. Bu bosqichda mol yetkazib beruvchilar o'rganiladi va tanlanadi, shartnomalar tuziladi va ularning ijrosi nazorat qilinadi. Ishlab chiqarish logistikasi korxonasi (firma) ichidagi moddiy oqimlar harakati jarayonini o'z ichiga oladigan sohadir.

Taqsimot - bu logistikaning ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan yo'ldagi moddiy oqim boshqaruvi bo'yicha vazifalar kompleksini o'z ichiga olgan, sotish xususida qo'yilgan vazifalardan boshlab, iste'molchiga mahsulotni yetkazib berishgacha yoki sotib bo'lingandan keyingi xizmatlar yakunlanguncha bo'lgan vazifalarni o'z ichiga olgan sohadir.

Yuk tashish - o'z ichiga nafaqat yukni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha, korxonadan omborgacha, ombordan omborgacha, balki ombordan iste'mol yerigacha yetkazib berishni o'z ichiga oladi.

Ombor xo'jaligi - o'z ichiga mahsulot uchun ombor obyektlarini ularni joylashtirish va ulardan foydalanishni oladi.

Axborot - har qanday logistik tizim axborot va nazorat tizimostilar tizimlari yordamida boshqariladi. Ular orqali buyurtma, mahsulotni yuklash va jo'natish haqidagi talabnomalar, zaxiralarning kerakli miqdorda ushlab turishi kabi operatsiyalar amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, axborot logistikasi logistikaning bir tarmog'i bo'lib, ma'lumotlar oqimini tashkil etadigan materiallar oqimini kuzatishda hamda ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini bog'lab turadigan bo'g'in hisoblanadi.

Logistikaning asosiy maqsadi - ishlab chiqarilgan mahsulotni vaqtida va zarur miqdorda belgilangan joyga eng kam xarajatlar bilan yetkazib borishdir. Logistik funksiyalar va maqsadlarning yig'indisini logistikaning asosi tasniflaydi deyiladi. Logistikaning asosi integratsiyalashuvdan, tovar harakati jarayonining qatnashchilari va bosqichlarining o'zaro hamjihatligini ta'minlashdan, zarur mahsulotlarni belgilangan joyga, so'ralgan vaqtda eng kam xarajatlar bilan yetkazib berish maqsadida moddiy oqimni, unga tegishli bo'lgan ma'lumotlar asosida boshqarishdan iborat. Logistik tizimda bo'lib o'tayotgan va tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini

xarakterlovchi jarayonlar logistikaning tuzilishini amaliy faoliyat turi sifatida ochib beradi.

Logistikaning funksiyalari va tamoyillari. Logistika materiallar harakatining har bir bosqichida moddiy oqimlarning ishlashini ta'miniash va tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Logistikaning uchta funksiyasi ajratiladi:

— integratsiyalashuvchi - tovar harakati jarayonini bir butun jarayon sifatida tashkil etadi;

— tashkillashtiruvchi - tovar harakati qatnashchilarini o'zaro kelishilganligini ta'minlaydi;

— boshqaruvchi - material o'tkazuvchi tizim parametrlarini belgilangan chegarada ushlab turadi.

Logistika tamoyillari. Logistika tamoyillari boshlang'ich nuqtalarni tashkil etadi va ular asosida logistik tizimlarning ishlashi va qurilishi amalga oshiriladi.

1. Tizimlilik tamoyili. «Ishlab chiqarish - sotish» tizimi chegarasida moddiy oqimlarni boshqarishning integrallashgan tizimini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu tamoyil ishlab chiqarish buyurtmalarini xarid qilish, ishlab chiqarish va mahsulotni sotish bosqichlarida bir butun texnologik jarayonning ishlab chiqarilishida va amaliyotda qo'llanilishida o'z aksini topadi.

2. Teskari aloqa tamoyili. Bu tamoyilga, asosan, logistik tizimning maqsad va vazifalari mahsulot va xizmatlar bozori talablariga binoan aniqlanadi. Kutilayotgan buyurtmalar miqdori, talab etilayotgan sifat darajasi va yetkazib berish muddatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqariyotgan mahsulot miqdori va assortimenti, materiallarga buyurtmalar shakllanadi. O'z navbatida, qabul qilingan xarid strategiyasidan kelib chiqqan holda zarur bo'lgan zaxiralar miqdori aniqlanadi. Teskari aloqa tamoyilini amalga oshirish logistik tizim tarkibida maxsus bo'lim ajratilishini talab etadi, bu bo'lim boshqaruv tizimining samaradorligi va mahsulot bozori talablari haqida ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashni amalga oshiradi.

3. Optimallik tamoyili — tovar harakati jarayonining bosqichlari va qatnashchilari o'rtasida shunday o'zaro kelishuvga erishiladiki, bunda korxonaning «ishlab chiqarish — sotish» tizimi sifatida faoliyatning eng katta samaradorligi ta'minlanadi.

4. Egiluvchanlik tamoyili - logistik tizimning faoliyat ko'rsatish sharoitlariga va iste'molchilarning o'ziga xos talablariga yuqori darajada moslashuvchanlikni nazarda tutadi. Egiluvchanlik tamoyilini amalga oshirishda, tashqi iqtisodiy muhitning o'zgarish tendensiya (yo'nalish)larini bashoratlash va ularga qarshi xatti-harakatlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlarni olib borish talab etiladi.

5. Kelib tushishning xavfsizligini ta'minlash tamoyili — logistikaning tamoyili sifatida shunday tashkiliy - iqtisodiy sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadiki, unda

korxonaning zarur moddiy resurslar bilan uzluksiz ta'minlanishi va tayyor mahsulotni yetkazib berish muddatlarining so'zsiz bajarilishining ta'minlab berilishi zarur. Kelib tushishning xavfsizligini ta'minlash tamoyili tovar harakatining barcha bosqichlarini sinxronlashtirish, kelib tushish va yuk tashishni boshqarish bo'yicha faoliyatlarni bir biriga moslashtirish, ishlab chiqarish va zaxiralarini tashkil etish zarurligini ko'zda tutadi.

6. Kompyuterlashtirish tamoyili - logistik funksiyalar va umuman tovar harakati jarayonlarini avtomatlashtirish maksimal darajada bajarilishi lozimligidan iborat.

Avtomatlashtirilgan tizim materiallar harakatini nazorat qilish va yarimtayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish zaxiralarining holati, kelib tushishning hajmi, buyurtmalarning bajarilish darajasi va boshqalar haqida ma'lumot to'plash uchun xizmat ajratiladi. Vaqtni zijlashtirishning eng katta samarasini va iste'molchilarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish garovini axborot boshqaruv tizimlari beradi. Bu tizimlar xomashyo xarid qilinishidan to tayyor mahsulotning iste'molchiga yetib borgunicha tovar harakati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Logistikaning raqobatbardoshlikning omili sifatida ko'rib chiqilishi shu sohada qabul qilinayotgan qarorlar, mahsulot sotishdan tushadigan foydaga ko'rsatadigan ta'siri nuqtayi nazaridan baholanishi zarurligini ko'zda tutadi. Shuning uchun logistikani korxonada ishining asosiy iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarini qidirish masalasi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasida omborxonada xo'jaligi xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

Ombor yoki omborlar majmui xizmat ko'rsatish infrastrukturasi bilan birgalikda ombor xo'jaligini tashkil etadi. Sanoat korxonasida ombor xo'jaligining asosiy vazifasi sanoatning tegishli moddiy resurslar bilan to'g'ri oziqlanishini, ularning saqlanishini tashkil etish va omborxonada amaliyotlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni imkon boricha qisqarishdir. Logistika tizimida omborlarning ahamiyati va o'rni.

Omborlar logistika tizimining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi. Logistik tizim omborlarga bo'lgan tashkiliy va texnik-iqtisodiy talablarni shakllantiradi, omborlar tizimining maqsadini va eng maqbul ishlash mezonini belgilaydi, yuklarni qayta ishlash shartlarini aniqlaydi. O'z navbatida, materiallarni omborga joylashtirishni tashkil etib (omborni joylashtirishga joy tashlash, mahsulotlarni saqlash usullari va boshqalar) zaxiraning logistika tizimining turli xil ishlarida aylanishi bilan bog'liq xarajatlarga, miqdoriga va harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Logistikada omborlar ham ijobiy, ham salbiy ahamiyatga ega. Omborda saqlashning salbiy tomoni shundaki, zaxiralarni omborda saqlash bilan bog'liq

xarajatlar hisobiga tovar narxi oshadi. Bu omborga joylashtirish amaliyotlariga sarflanadigan xarajatlar, omborxonani ijaraga olish, omborlarni tartibda saqlash bilan bog'liq xarajatlar.

1. Iste'molchilar buyurtmasiga muvofiq tegishli assortimentni yaratish. Sotib olish va ishlab chiqarish logistikasida mazkur vazifa ishlab chiqarishning turli bosqichlarini kerakli moddiy-texnika resurslari bilan (sifati va soni bo'yicha) ta'minlashga qaratilgan.

Taqsimlash logistikasida mazkur vazifa maxsus ahamiyatga ega. Sotuv omborlari ishlab chiqarish assortimentini mijozning buyurtmasiga muvofiq iste'mol assortimentiga aylantiradi. Omborda kerakli assortimentni yaratish iste'molchilar buyurtmasini samarali bajarishga va mijozlarga kerakli hajmda tovarlarni tez tez yetkazib berishga yordam beradi.

2. Omborga joylashtirish va saqlash. Mazkur vazifaning bajarilishi mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'mol qilish orasidagi vaqtinchalik tafovutni baravarlashga, yaratilgan zaxiralar asosida ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo'lishiga va iste'molchilarning beto'xtov mahsulot bilan ta'minlanishiga imkon beradi. Ayrim tovarlar mavsumga qarab iste'mol etilishi sababli ham tovarlarni taqsimlash tizimida saqlashga zarurat bor.

3. Jo'natishga mo'ljallangan bir to'da tovarlarni birlashtirish va yuklarni transportda jo'natish. Iste'molchilarning aksariyati omborlardan vagonga yoki treylarga sig'adigan miqdordan ancha kam tovar oladilar, bu esa o'z navbatida bunday tovarlarni yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni ancha ko'paytiradi. Transport xarajatlarini kamaytirish uchun omborxonada transport vositasini yuk bilan to'ldirish uchun bir nechta mijozlarning katta miqdorda bo'lmagan yuklarini birlashtirish vazifasini bajarishi mumkin.

4. Xizmat ko'rsatish. Iste'molchilarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish maqsadida omborlar mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatishlari mumkin: tovarlarni sotuvga tayyorlash (mahsulotni qadoqlash, konteynerlarni (maxsus idishlarni) to'ldirish, tovarlarni o'ramidan ochib olish va boshqalar); asboblarni ishlashini tekshirish, yig'ish; mahsulotni sotuvga tayyorlash; transportda jo'natish xizmatlari va boshqalar. Omborda texnologik jarayonni tashkil qilish omborga joylashtirish amaliyotlarini tavsiflash. Omborga invlashtirish amaliyotlari quyida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi:

- yuklarni tushirish va qabul qilish;
- saqlash uchun joylashtirish (tovarlarni tekislab stellajlarga joylash);
- tovarlarni butlash va transportga ortish;
- yuklarni ombor ichida transportlarga ortish. (yuklarni tushirish va qabul qilish tuzilgan shartnoma shartlari) asosan amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan ishlarni omborda bajarish texnologiyasi yukning xususiyatiga (donalab sotiladigan, sochiladigan),

transport vositasi turiga (trejler, konteyner va boshqalar), shuningdek qo'llaniladigan mexanizatsiya turlariga bog'liq. Qabul qilish jarayonida yetib kelgan yuklarning amaldagi o'lchamlarini joylarga qo'shib yuborilgan hujjatlar bilan solishtirish, yetib

kelgan yuklarni axborot tizimi orqali rasmiylashtirish va omborxonada vaqt birligini shakllantirish amalga oshiriladi. Soni va sifatiga qarab qabul qilingan yuk omborning saqlash joyiga ko'chiriladi. Saqlash jarayoni saqlash uchun tegishli omillar ta'minlanishini va omborda mavjud zaxira ustidan nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Yukni tartibli saqlash va tejamkorlik bilan joylashtirish uchun omborxonada manzilli saqlash tizimi mo'ljallaniladi, joy tanlash qat'iy (qayd etilgan joyda) yoki ixtiyoriy (yuk bilan qanday bo'sh joyda joylashtirilishi mumkin) qoida

Ixtiyoricha amalga oshiriladi. Butlash jarayonida tovarlar iste'molchilar buyurtmasi bo'yicha tayyorlanadi. Butlash jarayoni mijozlar buyurtmasiga muvofiq joylarni tanlashni, tovarlarni jo'natishga tayyorlashni (maxsus idishlarga joylashtirish), jo'natishga mo'ljallangan alohida buyurtmalarni boshqa tovarlar bilan birlashtirishni va transport yuk xarajatlarini rasmiylashtirishni, yukni transport vositalariga ortishni o'z ichiga oladi.

Yuklarni ombor ichida transportlarga ortish deganda yukni omborning turli dahalari orasida joyini o'zgartirish tushuniladi: yuk tushirish maydonchasidan qabul qilish dahasiga, u yerdan saqlash, butlash, yuk ortish dahasiga. Yuklarni ombor ichida transportlarga ortish ishlari ikki tomoni ochiq to'g'ri yo'llarda amalga oshirilishi kerak. Bu o'z navbatida omborning har qanday dahasiga qaytadan kelishning va amaliyotlar samarasiz bajarilishining oldini oladi. Yukning bir uskunadan boshqasiga o'tkazish soni eng kam bo'lishi kerak. Sanoat korxonalarida omborlari ishini tashkil etish. Korxonada omborlarning amaliy-ishlab chiqarish faoliyati omborxonaga kelgan

materiallarni va mahsulotlarni tushirishni, saralashni va qabul qilishni, ularni joylashtirishni va saqlashni, shuningdek iste'molchilarga berishni va jo'natishni o'z ichiga oladi. Yuklarni moddiy omborlarga yetkazish zavod rejasiga muvofiq

amalga oshiriladi. Omborga materiallarni va mahsulotlarni qabul qilish texnik hujjatlarda va yo'riqnomalarda bayon etilgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Materiallarni va mahsulotlarni ombordan berish bilan bogliq amaliyotlar tanlashni, butlashni hamda materiallarni tegishli ravishda tayyorlashni o'z ichiga oladi. Materiallardan ishlab chiqarishda foydalanishga tayyorgarlik ularni tozalashni, yarim mahsulotlarga kesishni, taxtalangan materiallarni bichishni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Omborga mahsulotlarni qabul qilish va joylashtirish. Omborga joylashtirish shaklining tanlanishi omborga egalik

qilish masalasining hal bo'lishi bilan bog'liq. Ombor tanlashda ikkita yo'li bor: omborga egalik qilish, yoki umumiy omborlardan foydalanish.

Xarid qiluvchi va taqsimlovchi logistikada (birinchi navbatda kichik partiyalar (to'plamlar) orqali tez-tez yetkazib berish shartini bajarish qat'iy kafolatlangan hollarda) ko'pgina korxonalar iste'molchilarga yonida yaqinlashgan umumiy omborlardan foydalanib qolishga intiladilar. Umumiy foydalaniladigan omborlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ombor xo'jaligini rivojlantirishga mablag;
- ombor xo'jaligini rivojlantirishga mablag' sarflash talab etilmaydi;
- moliyaviy xavf-xatarlar qisqaradi;
- ombor hududidan foydalanishga o'zgartirishlar kiritish mumkin (ijara maydonini va muddatini o'zgartirish imkoni);
- omborni muvofiq darajada ushlab turishga va zaxiralar saqlanishiga ma'suliyat pasayadi.

Omborlar soni haqida qaror qabul qilinganda, korxonada tovar aylanishi bilan bog'liq umumiy xarajatlar miqdorini kamaytirish sharoitlaridan kelib chiqishi kerak.

Ombor maydonini hisoblash. U yoki bu ombor binosini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich - bu omborning umumiy maydoni o'lchamidir. Omborning umumiy maydoni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

- yuklarga mo'ljallangan yoki foydali maydoncha bevosita moddiy boyliklar yoki ularni saqlashga mo'ljallangan uskunalar bilan band qilingan;
 - amalga oshiruvchi maydoncha - bu qabul qilish, saralash, butlash va tovarlarni chiqarish maydonchalari, shuningdek, shtabellar va stellajlar bilan band;
 - konstruktiv maydoncha to'siqlar, ustunlar, narvon va h.k. lar bilan band;
 - xizmatda foydalanish uchun maydoncha idora va maishiy xonalar uchun band qilingan.
- Omborlar faoliyatini baholash amaldagi omborlar faoliyatini baholash. shuningdek, qurilayotgan va qayta qurilayotganlardan ko'proq naf keltiradiganini tanlash quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish joizki, jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida globallashtiruvning amalga oshirilishi sharoitida transport tizimi ishini eng maqbul tarzda tashkil etish, uning faoliyati samaradorligini tahlil etish, baholash va rivojlanish istiqbollari belgilashni logistik tizimli yondashuv asosida amalga oshirish zarur.

Xalqaro mehnat taqsimoti, kooperatsiyasi va integratsiyasi jahonda bir qancha transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishiga turtki bo'lgan. Ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda global logistik zanjirlar va kanallardan foydalanadilar. Ushbu sharoitlarda, davlatlar orasidagi logistik kanallarni yaratilishiga xalqaro transport ekspeditorlik firmalari, infratuzilmalar va global telekommunikatsiya tarmoqlari yordam beradi.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, u quyidagilar bilan belgilanadi: innovatsion jarayon ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni ishlab chiqarishga tatbiq etish; innovatsion jarayon investitsiyalashtirish jarayoniga nisbatan qo'llanilishi jihatidan qisqa muddatli, ya'ni ilmiy fikr va mulohazalarning shakllanishidan, uni amalga oshirish va tatbiq etish davrini o'z ichiga qamrab oladi.

Innovatsiya ilm-fan va texnika taraqqiyoti bo'yicha ma'lum bir yangilik, kashfiyotlarni yaratish yoki mavjud ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan resurslardan foydalanishni takomillashtirish; doimiy ravishda yangiliklar izlash, bozor talablariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash va mehnatni tashkil etish usullaridan foydalanish; bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion investitsiya mablag'laridan foydalanish bozor subyektiv ixtiyorida bo'lib, innovatsion faoliyatni tashkil etish darajasiga bog'liq bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent – O'zbekiston – 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Konstitutsiyaning 26 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 05.12.2018-yil, № 103.
3. Karimov I.A. "Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida". — T.: O'zbekiston, 2008
4. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2010 y.
5. Karriyeva Ya.K.Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. TDAU nashr tahririyati, T.: 2003 y.
6. Qosimova M.S. Logistikani boshqarish. UMK. Iqtisodiyot, Toshkent. 2015y.
7. Бенсон Д., Уайхед Дж. Транспорт и доставка грузов / Пер. с англ. – М.: Транспорт, 2000.
8. "Воjхона кодекси" Qonuni T: Adolat. 2016 y.
9. Большой бухгалтерский словарь. Под редакцией А.Н.Азрилияна. – М.: Институт новой экономики, 2009. С.150.
10. Umarova D.M. Vo'ronova M.A. Logistika o'quv qo'llanma T – 2016
11. Д.Кондратьев «Анализ финансовой отчетности». – М.: Финансы и статистика, 2016. С.383.
12. Макаренко В.А. Современный словарь. 2 т. –М.: 2010.
13. "Xalq so'zi" gazetasi, 04.09.2018-yil, № 182.

QISQA XABARLARNI GAZETA DISKURSIDA O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G'Ofurova Gulhayo Baxtiyorjon Qizi

Kalit soʻzlar: Diskurs, kontekst, nutq, potensial, terminologiya, Pessimizm, davlat.

Key words: Discourse, context, speech, potential, terminology, Pessimism, state.

Diskurs faoliyati koʻp qirrali boʻlib, tilshunoslikda qoʻllaniladigan semiotika konsyeptual apparatining koʻp qirrali taraqqiyoti nutq faolligining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, real aloqa kontekstida uning funksional faoliyatiga oid lingvistik belgi tavsifining asosiy xususiyatlariga tayanib ish koʻrish imkonini beradi.

Gazeta diskursi– potensial oʻlchovdasoʻzlashuv va ushbu kommunikativ sohaga xizmat koʻrsatishga qaratilgan ogʻzaki va yozma belgilar, shuningdek, prezentasiyalar va matnlarni taqdim qilishga bagʻishlangan semiotik makondir.

Diskursning potensial hajmi, shuningdek, nutq xatti–harakatlarining odatiy belgilari va ushbu muloqot turiga xos nutq harakatlari va janrlari haqida fikrlarni oʻz ichiga oladi.

Gazeta diskursining semiotik maydoni haqida gapirganda, u yerda ishtirok etadigan “tillar”ning geterogenligi haqida gapirish mumkin: ogʻzaki belgilar va paralingvizmdan, siyosiy ramzlardan kosmik semiotika muhimdir. Siyosiy soʻzlashuvda siyosatchimuayyan xatti–harakatlar, belgining mavqeiga ega boʻladi¹.

Gazeta diskursi, asosan, inson va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar- ning butun majmuini ifodalaydi va shuning uchun bu hodisa oʻzining asl mohiyati bilan dunyoqarashning maʼlum bir qismini yoki qabul qiluvchilar bilan tasvirni shakllantirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Gazeta diskursni taʼmal toshi sifatida ishlatish turli tilshunoslik maktablarida madaniy qadriyatlarni modellashtirish, ijtimoiy tuzumning taraqqiyoti, olamlisoniy manzarasining qaysi unsurlari soʻzlovchilar ongli nutqi strategiyasidan chetda qolganligi va dunyoning konseptual tasviri qanday shakllantirilganligini tushunish mumkin².

¹ Yuzefovich N.G. Politicheskiy diskurs i mejkulturnoye obsheniye // Interpretatsiya. Ponimaniye. Pervod: sb. nauch. st. / Sankt–Peterburgskiy gos. un–t ekonomiki i finansov; otv. red. V.Ye. Chernyavskaya. – Sankt–Peterburg, 2005. – S. 21–22.

² Tretyakova G.N. Mentalnaya sxema “svoyn mir”// Metodologiya issledovaniya politicheskogo diskursa: Aktualnye problemy soderzhatelnogo analiza obshchestvenno–politicheskix tekstov: sb. nauch. trudov / Belgosuniversitet; pod obsh. red. I.F. Uxvanovoy–Shmygovoy. – Vyr. 1. – Minsk, 1998. – S. 26.

Gazeta diskursi nafaqat haqiqatga bog‘liq, balki muhim “majburiylik” ma’nosini ham anglatadi. Aloqa sohasidagi turli mavzular turli xil tarzda aks ettirilgan: muloqot shakllari ularning tarkibini yaratadi³.

Gazeta diskursining muhim ma’lumotlarini tahlil qilish – bu kommunikativ nominasiyani tahlil qilish: kim bilan va qanday aloqa o‘rnatish demakdir. Siyosiy tushuntirish so‘zlovchining yuz ifodasida namoyon bo‘ladi. Yuz ifodasi matn bilan birlashadi, biroq ayni paytda ushbu “qatlam” yoki tarkibni aralashtirish yangi tuzilmani hosil qiladi. Natijada, muallif turli xil shaxslar tomonidan e’lon qilingan matnning turli xil matnlarga aylanishini anglaydi: ular tinglovchilar tomonidan boshqacha tarzda idrok etiladi, ular ijtimoiy munosabatlarning turli ko‘rinishini belgilaydi⁴.

Gazeta diskursi bu – jamiyatning siyosiy qarashlari to‘plamidir: hokimiyat nutqi, qarama-qarshi oppozitsion guruh nuqtayi nazari, ommaviy ritorika, mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini mustahkamlash yoki uni barqarorlashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Gazeta-jurnalist materiallarining asosiy vazifasi ma’lum bir pozitsiyadan ma’lum ma’lumotlarni etkazish va shu bilan retseptorga kerakli ta’sirga erishishdir. Bunday materiallarda biz mutaxassis bo‘lmaganlarning keng doirasi uchun tushunarli bo‘lgan, ularning hayoti va manfaatlari bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan hodisalar haqida gapiramiz. Vazifa ba’zi faktlarni yetkazish bo‘lganligi sababli, tushunchalar va hodisalarni aniq belgilash kerak. Demak, fikr mavzusini aniq ko‘rsatadigan atamalar, nomlar va unvonlarning muhim roli⁵.

Siyosiy terminologiya, ayniqsa, gazeta axborot uslubiga xosdir. Gazeta axborot materiallarida ko‘pincha noaniq atamalar, sinonimik atamalar, qisqartirilgan atamalar va nomlar mavjud. AQSH siyosiy terminologiyasida “davlat” atamasi “yashash joyi” degan ma’noni anglatishi mumkin: u Trampning Qo‘shma Shtatlarning navbatdagi prezidenti bo‘lishini juda xohlaydi; Boltiqbo‘yi davlatlarida katta olomon o‘z xalqlarini mustaqillikka chaqirishdi (URL: <http://www.theguardian.com/international>). Birinchi holda, "davlat" atamasi ba’zi federal shtatlar tarkibidagi shtat-hududiy birlik ma’nosida qo‘llaniladi. Ikkinchi holda, "davlat" "davlat" ma’nosida ishlatiladi.

Xuddi shu atama o‘zi qo‘llanilayotgan matnning g‘oyaviy yo‘nalishiga qarab turli ma’nolarni olishi mumkin. “Pessimizm” atamasi “dunyoda yomonlikning

³ Uxvanova–Shmygova I.F. Diskurs–analiz v kontekste sovremennyykh issledovaniy // Metodologiya issledovaniya politicheskogo diskursa: Aktualnye problemy soderzhatelnogo analiza obshchestvenno–politicheskix tekstov: sb. nauch. trudov / Belgosuniversitet; I.F. Uxvanova–Shmygova, A.A. Markovich, V.N. Uxvanov; pod общ. red. I.F. Uxvanovoy–Shmygovoy. – Выр. 3. – Minsk, 2002. – S. 50.

⁴ Uxvanova–Shmygova I.F. Diskurs–analiz v kontekste sovremennyykh issledovaniy // Metodologiya issledovaniya politicheskogo diskursa: Aktualnye problemy soderzhatelnogo analiza obshchestvenno–politicheskix tekstov: sb. nauch. trudov / Belgosuniversitet; I.F. Uxvanova–Shmygova, A.A. Markovich, V.N. Uxvanov; pod общ. red. I.F. Uxvanovoy–Shmygovoy. – Выр. 3. – Minsk, 2002. – S. 51.

⁵ Komissarov, V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekty) / V. N. Komissarov – M. : Vyssh. shk., 1990. – 253 s

yaxshilikdan ustunligini ta'kidlaydigan va bo'lishni azob-uqubat deb hisoblaydigan idealistik qarash" sifatida ishlatilishi mumkin. Ammo undan ham ko'proq "hayotga qorong'u, xira qarash, hamma narsani qorong'u nurda ko'rishga moyillik" ma'nosida ishlatiladi, masalan: Uning hamjamiyat menejeri yaxshi sharhlar bo'limida "burch tuyg'usini his qiladigan foydalanuvchilar borligini ta'kidladi. va jamiyat sifatida harakat qiladigan qarindoshlik "; istisno biri "o'quvchilarni xabardor qiladi, mualliflarni to'g'rilaydi va muloyim va konstruktiv tarzda qimmatli fikrlarni beradi". Bu sodir bo'lmadi, shuning uchun engadget xodimlari "sharhlarni moderatsiya qilish" dan bir hafta dam olishni rejalashtirdilar. Bunday hikoyalar ko'pincha pessimizm uchun dalil sifatida ishlatiladi. Deyarli har bir veb-sayt, xoh u gazeta yoki shaxsiy blog bo'lsin, sharhlar bilan kurashgan (URL: <http://www.theguardian.com/international>).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni / Xalq so'zi. - 2017-yil, 8-fevral. – № 28.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish haqida»gi Qarori.
3. Aleksandrova, O. V. Sootnosheniye ustnoy i pismennoy rechi i yazyk SMI / O. V. Aleksandrova // Yazyk SMI kak obyekt mejdissiplinarnogo issledovaniya : ucheb. posobiye – M. : Izd-vo Moskovskogo universiteta, 2004. – 160 s.
4. Alekseeva, I. S. Vvedeniye v perevodovedeniye / Ucheb. posobiye dlya stud. filol. i lingv, fak. vıssh. ucheb. zavedeniya. / I. S. Alekseeva – M. : Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2004. – 352 s.
5. Alekseeva, I. S. Professionalnyy trening perevodchika / I. S. Alekseeva // uch. pos. – SPb. : SOYUZ, 2001. – 287 s.
6. Alefirenko N. F. Sovremennyye problemy nauki o yazyke: Ucheb. posobiye. - M.: Flinta: Nauka, 2014. - 416 s.
7. Anisimova Ye.E. Lingvistika teksta i mejkulturnaya kommunikatsiya (na materialax kreolizovannykh tekstov). M.: Akademiya, 2003 - 128 s.

IN SCIENCE THE ROLE OF TECHNOLOGY

*Akramaliyeva Baxtigul**The student of Uzbekistan State World Languages University*

Annotation: Science and technology is a crucial point for the improvement of any nation. Technology plays an important role in developing science and society, education, policy and even medicine. This article discusses all above-mentioned aspects and its usage in other fields.

Key words: Science, Technology, Roles, Development, Education.

Science and technology is widely recognized as an important tool for fostering and strengthening the economic and social development of the country. It can give a broad range of opportunities to develop every specialty of country and life. Due to technology, up-to-date devices are coming to our lives. Moreover, in parallel with these aspects, science is also improving. Science is an endless frontier, a unique human activity without limits. There is a urgent need for making much more efforts to ensure that appropriate research outputs, which can be put to use for the benefit of society, are generated and reach the people. It is, therefore, key to evolve a mechanism and identify programmes for application of Science and Technology for improving the quality of life of the people, particularly the weaker sections and women, for the improvement of rural areas to reduce regional imbalances and for inculcating scientific awareness among the masses. Technology also of a high benefit in involving people all around the country to solve the problems, such as drought, epidemics, drinking water shortage, nutrition, sanitation, health, housing and etc. This can save the time and energy as well as it occurs online. In addition, it possibly could reach great number of people worldwide. In this way, we can make the world aware of what is happening around us. IT stands for technology in short. Nowadays, everything in our life is being computerized. It makes life easier and the stress is hardly gone through. The heart of IT development is in India. Every field of science is based on technology. Even in medicine, the latest achievements of science can be observed. There are almost all treatments available for diseases through technology. When it comes to science, they contributes to each other in the following ways:

- New knowledge and ideas for technological development
- Source of tools and techniques
- Researches, methods for laboratories
- Practice of researches
- Creation of new knowledge

- Knowledge base and strategies.

Laboratories are important for practicing new inventions. It is more efficient with technology achievements. Through this way, we can prevent the world from dangers. Scientists are able to share their ideas with their counterparts in other countries. Especially, it is useful in periods of epidemics. Education is also the field that needs to be taken into consideration. It is highly noticeable through online education. There no obstacle for people who desires to study abroad. It can be possible by educating online. It is the best way to set aside time, money and energy. They can get education from professors through online courses, such as seminars, conferences and much more things. Besides, great range of international conferences, meetings and other events are feasible online. Technology can reach a great number of audience and members. All of these aspects requires technology literacy in order to use, analyze, evaluate and seek information properly. That is why technological knowledge is far more crucial than just knowing about computers and technology. A person who understands the technology well, they can shape the society in a developed way. Not only using technological tools ensure being technological literate. At the same time one must know how is technology produced, which purposes serve, which conditions should be operated and solutions to possible problems. So, there are infinite chances between science and technology, technological concepts influencing each other mutually. If there is a high potential of technology in one country, everything related to science, medicine or education keeps developing and improving more and more.

To describe more, science, a systematic enterprise that builds and organizes knowledge in the form of explanations and predictions about nature and universe. Technology, the collection of techniques and processes used in the production of goods or services or the objectives such as scientific investigation.

Science and technology are important parts of our day to day life. The evolution of science is like a boon to the world, as human beings come to a lot about the world they are living in including the activities they indulge into. Moreover, the improvement of technology along with the advancement in Science helps to bring in a revolution in various fields such as medicine, agriculture, education, information and technology, and many more. Science is the study of the environmental world by scientific method gathering information through a systematic process. And technology is where we address science to make up devices that ca tackle issues and accomplish various tasks. Technology is technically the application of science. So, it is important to learn about them more and more. Science, technology, innovation and inventions are all related to each other. We can make new innovations that alter our lives completely. They have their crucial roles in a collaborative ways. New knowledge and competences gained by technology and science are shared around the world among nations serving for their development. In this innovative way , people can improve their

capabilities and human qualifications. A broad range of researches will be conducted to add more to the science and other fields. In short, the part of technology is unique as many tough questions in science can be found out due to its achievements.

REFERENCES:

1. *Tenth five year plan, Chapter 10, Science and Technology*
2. *The relationship between science and technology, John F.Kennedy, Cambridge*
3. *The role of science and technology in National developments, Journal volume 1*

ОСОБЕННОСТИ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА СЕРГЕЯ ДОВЛАТОВА

*Мустафоева Х.Х.**Преподаватель кафедры**«Русской литературы и методики преподавания»**ТГПУ имени Низами*

АННОТАЦИЯ

Эта статья предназначена для учителей русского языка и литературы и младших школьников и включает в себя доступ к плану, введению, основному разделу, резюме и списку использованной литературы. Статья дает преподавателям и изучающим английский язык обзор великих произведений Сергея Довлатова, трудной жизни и прекрасных качеств. Данная статья способствует совершенствованию литературных знаний учителей русского языка и повышению уровня знаний учащихся.

Ключевые слова: жизневедение, писатель-эмигрант, объединение журналистов, уникальное творчество.

**"ZONE. OVERSEER'S NOTES "- A WORK THAT CHANGED THE
LIFE OF SERGEI DOVLATOV**

ABSTRACT

This article is intended for Russian language and literature teachers and young learners, and includes access to the plan, introduction, the main section, the summary and the list of literature used. The article gives English teachers and learners an overview of Sergey Dovlatov's great works, difficult lifetime and beautiful characteristics. This article contributes to the improvement of literary knowledge of Russian teachers and the increase of students` knowledge level.

Keywords: study of life, immigrant writer, association of journalists, unique creativity.

Сергей Донатович Довлатов – советский и американский писатель и журналист, считавшийся в Советском Союзе запрещенным. При жизни часто терпел неудачи, а после смерти оказался одним из самых знаменитых писателей-эмигрантов. Прошло более четверти века после его кончины, а книгами Довлатова до сих пор зачитывается люди разных возрастов. Довлатов считается самым читаемым советским автором второй половины XX столетия.

Сергей Довлатов родился в Уфе. Его родители развелись, будущий писатель воспитывался матерью. Писатель признавался, что мать его была армянкой, отец - евреем. При рождении в паспорте национальность Сергея назвали армянской. Чтобы его жизнь была более «безоблачной».

Сергей Довлатов поступил в филологический факультет Ленинградского университета. Здесь он познакомился с Иосифом Бродским и другими писателями. Но скоро из университета его отчисляют из-за неуспеваемости. После отчисления он был призван в армию и в течение трех года прослужил в колонии надзирателем.

Так говорил о себе «очевидно, мне суждено было побывать в аду». При этом была написана его произведения «Зона. Записки надзирателя»¹.

По словам Бродского из армии писатель вернулся «Как Толстой из Крыма, с рассказами и некоторой ошеломленностью во взгляде». Бродский стал первым, кому Сергей Довлатов показал свои литературные опыты.

Сергей Донатович продолжил учебу, но уже на журналистическом факультете ЛГУ и тут же начал работать как журналист.

Три года, с сентября 1972-го до марта 1975-го, он провел в Таллине, это время нашло отражение в сборнике рассказов «Компромисс», где писатель поведал о своем корреспондентском опыте в газете «Советская Эстония». В таллинском издательстве «Ээсти Раамат» была набрана и его первая книга «Пять углов», которая очень скоро была уничтожена по требованию КГБ.

Отношения Сергея Довлатова к Советской власти оказались напряженными, хотя в своих произведениях автор не писал ничего против власти. Он читал запрещённые книги, дружил с Иосифом Бродским, а тонкая ирония и живой свободный слог прозаика не отвечали установленным требованиям времени.

Довлатов мало публиковался в официальной прессе, однако его тексты появлялись и в самиздате, и за рубежом. Именно после первой иностранной публикации, о которой Довлатов якобы и не подозревал, в 1976 году он был исключен из Союза журналистов. Через два года Довлатов из-за преследований властей эмигрировал из СССР и оказался в США.

Сергей Довлатов позже сам отмечал, что не мог оставаться в Союзе, так как его не печатали. Целью эмиграции оказалось творческая свобода. Если бы его признали на родине как литератора, то покинуть Россию он бы не стал. Сергей Довлатов признавал сам: «Я уехал, чтобы стать писателем, и стал им, осуществив несложный выбор между тюрьмой и Нью-Йорком. Единственной целью моей эмиграции была творческая свобода».²

Когда пришло время эмигрировать в Америку, Довлатов «стал евреем».

Известна цитата прозаика, где он сообщил, что, обдумывая свою национальную принадлежность, решил, что он «русскую по профессии»

В Америке его рассказы начали печататься один за другим. Его публикации в эмиграции заставила Довлатова воспрянуть духом и поверить в себе. Первым произведением о жизни в Америке, написанным и изданным за рубежом, стала повесть «Иностранка».

Популярными оказались повести, романы и сборники новелл «Чемодан», «Компромисс», «Соло на ундервуде: Записные книжки» и «Зона. Записки надзирателя». За 12 лет эмиграции из-под пера писателя вышла много книг, которые имели успех в США и в Европе, а российские читатели знакомились с этими произведениями позже.

Личная жизнь писателя оказалось наполненной яркими моментами.

Когда он учился в университете, влюбился в Асю Пекуровскую, она была первой красавицей Ленинградского университета. В то время за Асей ухаживали многие, в том числе Иосиф Бродский, так что Сергею пришлось по-настоящему сражаться за сердце дамы. Ася Пекуровская ответила согласием к своему двухметровому поклоннику. Но их любовные отношения продлились недолго. После свадьбы Ася покинула супругу и продолжала любовный роман популярным писателем Аксеновым. Этот разрыв для Довлатова был очень страдательным. Многие отмечают что, он даже пытался убить себя и свою возлюбленную. После разрыва Ася узнала о своей беременности и родила дочь Машу, с которой Довлатов не общался. С отцом она увиделась только на похоронах. Больше того, она даже не знала, что её папа – «тот самый» Сергей Довлатов. Интересно, что Асю с дочкой эмигрировали в Америку, даже там он с дочкой не встретился.

Спасла его от этого тягости армия. Вернувшись из армии он познакомился с Еленой Ритман. Она становится второй супругой писателя. Елена была женщиной творческой и яркой. У них рождается дочка Екаторина. Но Елена с Сергеем разошлись, а Елену с дочкой эмигрировали в Америку.

Третьей возлюбленной Сергея Довлатова становится Тамара Зибунова. У них тоже рождается дочка Саша. Но вскоре они тоже разошлись.

Когда Сергея Довлатова эмигрировали в Америку, на вокзале он встретит Елену, свою вторую жену. Они вместе начинают жить, как одна семья. И в 1984 года Елена родила мужу сына, Николаса Доули. Сергей Довлатов прожил с Еленой до конца своей жизни в Америке.

Екаторина Довлатова занималась с переводами произведения отца. Позднее Довлатов говорил, что пишет для своих детей, чтобы после его смерти наследники прочли его сочинения и «поняли, какой у них был золотой папаша».

Известно что в зрелые годы он страдал алкоголизмом. В Америке пил

намного меньше, но все равно был не равнодушен к спиртному. Внезапная кончина Сергея Довлатова настигла в Нью-Йорке.

Сергей Донатович Довлатов- неоднозначная личность. В любом обществе он чувствовал бы себя лишним. Его не печатали в Советской Союзе он всю жизнь перебивался грошовыми заработками в газетах и очень много пил. Он прожил в Америке, но писатель сильно тосковал по России.

На западе он выпустил двенадцать книг на русском, плюс две совместные «Демарш энтузиастов» с Вагричем Бахчаняном и Наумом Сагаловским и «Не только Бродский» с Марианной Волковой. Его ещё при жизни напечатали престижные журналы New Yorker и Partisan Review. Им восхищались многие знаменитые коллеги, а сам Довлатов обожал Чехова, Розанова и Зощенко. Из близких по месту и времени – Бродского, который отвечал ему если не тем же, то полным пониманием. После смерти Довлатова Бродский написал воспоминания: *«Серёжа был прежде всего замечательным стилистом. Рассказы его держатся более всего на ритме фразы; на каденции авторской речи. Они написаны как стихотворения: сюжет в них имеет значение второстепенное, он только повод для речи. Это скорее пение, чем повествование (...)»*.

Есть в его книгах какой- то секрет. Их легко читать. Они ненавязчиво овладевают читателем. Может быть, потому, что в его героях читатель узнаёт себя, своих знакомых, может быть, потому, что о серьёзных вещах он говорит с юмором. А может быть, потому, что его проза проста и изящна одновременно.

В своих «Записных книжках» он писал: «Можно благоговеть перед умом Толстого. Восхищаться изяществом Пушкина. Ценить нравственные поиски Достоевского. Юмор Гоголя. И так далее. Однако похотим быть хочется только на Чехова».

Сам прозаик говорил, что его задача скромна: рассказать о том, как живут люди. На самом деле он рассказывает о том, как они не умеют жить. И понятно почему: насущного навыка жить лишен был прежде всего сам рассказчик — собственной своей персоной.

Когда задавали вопрос писателю Андрея Арьева:

Где Довлатов был счастлив, в Петербурге или в Нью-Йорке?

Он отвечал нигде. У Сережи была не та натура, чтобы быть счастливым: это был человек мятущийся, рефлексирующий. В Ленинграде были все его друзья, но он буквально сходил с ума от того, что его здесь не печатали. Признавали талант, хвалили — но не печатали! В отличие, например, от его ровесников Андрея Битова или Александра Кушнера. А Сереже хотелось не просто публикаций, он хотел быть профессиональным признанным писателем и писать то, что он хочет. Поэтому, кстати, он скептически относился к самиздату, но

посылал рукописи абсолютно во все редакции. Он даже говорил мне, что готов на 2–3 года сесть в тюрьму, чтобы после выхода его начали публиковать. Ужасов тюрьмы не боялся, так как знал ее порядки. 3

Русский поэт Иосиф Бродский говорит о Сергее Довлатова в таком образом:

Мне всегда казалось, что при гигантском его росте отношения с нашей приземистой белобрысой реальностью должны были складываться у него довольно своеобразным образом. Он всегда был замечен издали, особенно учитывая безупречные перспективы родного города, и невольно оказывался центром внимания в любом его помещении. Думаю, что это его несколько тяготило, особенно в юности, и его манерам и речи была свойственна некая ироническая предупредительность, как бы оправдывавшая и извинявшая его физическую избыточность. Думаю, что отчасти поэтому он и взялся впоследствии за перо: ощущение граничащей с абсурдом парадоксальности всего происходящего — как вовне, так и внутри его сознания — присуще практически всему, из-под пера его вышедшему.

Сергея был прежде всего замечательным стилистом. Рассказы его держатся более всего на ритме фразы; на каденции авторской речи. Они написаны как стихотворения: сюжет в них имеет значение второстепенное, он только повод для речи. Это скорее пение, чем повествование, и возможность собеседника для человека с таким голосом и слухом, возможность дуэта — большая редкость. Собеседник начинает чувствовать, что у него — каша во рту, и так это на деле и оказывается. Жизнь превращается действительно в соло на ундервуде, ибо рано или поздно человек в писателе впадает в зависимость от писателя в человеке, не от сюжета, но от стиля.

Не следует думать, будто он стремился стать американским писателем, что был «подвержен влияниям», что нашел в Америке себя и свое место. Это было далеко не так, и дело тут совсем в другом. Дело в том, что Сергей принадлежал к поколению, которое восприняло идею индивидуализма и принцип автономности человеческого существования более всерьез, чем это было сделано кем-либо и где-либо. 4

В отклике на смерть Довлатова Лев Лосев написал об этом: «Есть такое английское выражение „larger than life“, крупнее, чем в жизни. Люди, их слова и поступки в рассказах Довлатова становились „larger than life“, живее, чем в жизни. Получалось, что жизнь не такая уж однообразная рутина, что она забавнее, интереснее, драматичнее, чем кажется. Значит, наши дела еще не так плохи». 5

В Советском Союзе талантливый Сергей Довлатов был настоящим неудачником, он не мог заработать здесь ни денег, ни славы. Все это угнетало писателя, чтобы побороть депрессию, он стал злоупотреблять алкоголем.

Его пристрастие к крепким напиткам никуда не делось и в США, но пил он здесь гораздо меньше. Довлатов бывал на медицинских осмотрах у многих врачей, и все они в один голос заявляли – у прозаика отличное, редкое, отменное здоровье.

Но он не дожил даже до своего 49-го дня рождения. Смерть прозаика была внезапной, он умер от сердечной недостаточности. Прах знаменитого писателя погребен в Нью-Йорке, на кладбище «Маунт-Хеброн». Жизнь Довлатова была короткой, но с нами остались его уникальные книги, каждая фраза которых наполнена глубоким смыслом. Этому человеку было что сказать людям, и он воспользовался своим даром в полной мере.

Литературе:

- 1 <http://www.konkurent-krsk.ru/index.php?id=1845>
- 2 <http://www.sergeidovlatov.com/books/slovo.html>
3. Андрей Арьев. История Рассказчика.
4. Иосиф Бродский. О Сереже Довлатове «Мир уродлив, и люди грустны»
- 5 <https://ruskiymir.ru/publications/291873/>

“QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM”

Xodjimatova Nigora Toshmatovna
Toshkent viloyati Angren shahar
34- maktab-internati oliy toifali
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tilimizning qadr-qimmati, ko‘hna tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarash, his-tuyg‘ular, tadrijiy taraqqiyotni ko‘rsatadigan, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazadigan ko‘zgu, milliy ma’naviyatimiz belgisi ekanligi, uning betakror jozibasini, jahon hamjihatida tutgan o‘rni haqida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: milliy til, milliy umumbashariy qadriyatlar, millat g‘ururi, tadrijiy taraqqiyot, ong-u shuur, iftixor tuyg‘usi, ma’naviyat ko‘zgusi, millat ruhi, davlat tili maqomi, adabiy til, bebaho so‘z xazinasi, nufuzli anjuman, vatanparvarlik belgisi, so‘z injusi

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zbek va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy –ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida goyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir”

Shavkat Miriyoyev

Ona tili–ezgu fazilatlar yuksak tuyg‘ular manbayi. U inson kamolotida betakror o‘rin tutadi. Chunki onalarimiz bizga shu tilda alla aytadi, inson uchun hayotiy zarur bilim va tushunchalarni til vositasida ong-u shuurimizga singdiradi, odob-u axloqimiz, fe‘l-atvorimiz til orqali berilgan o‘git va nasihatlar asosida shakllanadi. Ayniqsa, inson tafakkurining shakllanishi bevosita til bilan bog‘liq. Chunki biz biron-bir narsaning xususiyatlari haqida o‘ylaganda har biri aniq bir so‘zda ifodasini topgan tushunchalar, fikr va tasavvurlarga tayangan holda uning o‘ziga xos tomonlarini anglaymiz.

Tilda millatning bor- yo‘g‘i, o‘y- fikri, dunyoqarashi, orzu- umidlari, Vatani, ma’naviyati, his- tuyg‘ulari aks etadi. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson tafakkuri hamda tuyg‘usining natijasi bo‘lib, uning yordamida bu tafakkur va tuyg‘ular orqali Vatan, xalq tarixi, milliy- umumbashariy qadriyatlari, eng avvalo, ma’naviyati ifodalanadi. Shuning uchun til-inson tafakkurining ma’naviy jilosi hisoblanadi.

Ona tili- ko‘hna tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarash, his-tuyg‘ular, tadrijiy taraqqiyotni ko‘rsatadigan, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazadigan ko‘zgu. Shuning uchun o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan ham mahrum bo‘ladi, ma’naviy zavolga yuz tutadi.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda:
«Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur».

Mayli kim qay tilda zavq-u shavq olsa,
Mening o'z tilimga ming jonim fido .
Erta ona tilim agar yo'qolsa,
Men bugun o'limga bo'lurman rizo.

Til-xalqning, millatning eng buyuk qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqning ozodlikka, o'zligini anglab yetishiga intilishida tilning qadrini tiklash, nufuzini oshirish muhim o'rin tutadi.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, so'z mulkingning sultoni bo'lmish hazrat Mir Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, o'zbek adabiy turkiy tilimizning shon-sharafini dunyoga tarannum etgan so'z san'atkoridir.

Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan. XX asr boshida ma'rifatparvar bobolarimiz xalqni ilmga chorlash uchun tilni, alifboni isloh etishga harakat qilgani ham ulkan ma'rifiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'tgan asrning so'ngida esa xalqimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov boshchiligida mustaqillik uchun kurash olib borar ekan, tilimizga davlat tili maqomini berish yo'lida sa'y-harakatlar qildi va 1989 yilda bu ishni amalga oshirishda tamal toshini qo'ygan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Bu ona tilimiz taraqqiyotida ilgari hech ko'rilmagan yangi davr boshlanganining ifodasi bo'ldi.

Bugungi kunda davlatimizning eng muhim hujjatlari o'zbek tilida yozilmoqda. Ona tilimiz davlatlararo muloqotlarda, dunyoning nufuzli minbarlarida, xalqaro anjumanlarda ham keng qo'llanilmoqda. U istiqlol yillarida milliy g'urur va iftixor manbayiga aylandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun har yili mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanadi.

Istiqlolimizning ilk yillaridayoq davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni yuksalishi borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ona tilimizning kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus atama va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda keng qo'llana boshlagani, xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani, xususan xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan rasmiy uchrashuv va suhbatlarda,

muzokaralar va marosimlarda, nufuzli matbuot anjumanlarida o‘rni va ahamiyati ortib borayotgani barchamizga g‘urur-iftixor tuyg‘ularini bag‘ishlaydi.

Ona tilimizning imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va nufuzini yanada yuksaltirish, eng zamonaviy soha va tarmoqlarda faol qo‘llanilishini ta‘minlash bo‘yicha ko‘pgina ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Bu haqda o‘ylaganimizda, Birinchi Yurtboshimizning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir va doimo yodda saqlashimiz lozim: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boyliklarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Barcha sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida ham ko‘p ish qilishimiz lozirligini ham unutmashimiz zarur. Ayniqsa, ba‘zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga amal qilmaslik, faqat ma‘lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo‘shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu haqda so‘z yuritganda, so‘z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning “Tilga e‘tibor- elga e‘tibor” degan ibratli hikmatida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”.

Bugungi kunda shahrimizning ko‘cha va xiyobonlarida, bekatlar, binolarni bezab turgan o‘zbekcha nomlar, shior va lavhalarini ko‘rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qilamiz. Biroq “O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi” berilganiga qariyb 30 yil bo‘lishiga qaramay, ayrim shior va lavhalar yozuvlaridagi imlo xatoliklarini ko‘rib ko‘nglimiz xira tortadi. Aslida ona tilimizning sofligiga, to‘g‘riligiga, mavqeyiga o‘z hissamizni qo‘shish, asrab-avaylash asosiy vazifamiz ekanligini yodda tutishimiz lozim va o‘z kelayotgan yosh - barkamol avlodni ham shunday ma‘naviy ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Ona tiliga hurmat va uning bebaho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta‘sirchan so‘zlab, to‘g‘ri yoza olish hamda nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo‘lgan har bir shaxsning fuqarolik burchidir.

Binobarin, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqini jo‘sh urgan insongina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday ma‘naviy muhit yarataylikki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlar qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Ona tili insoniyat va hayot chamani lolasining yaprog‘i, so‘z injulari esa uning shudringidir. Ona tilini sevish –vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzi. O‘z tilini asrab-avaylagan xalq, o‘zligini, g‘ururini asragan bo‘ladi.

Zero, zamonlar osha ulug‘lashga, e‘zozlashga va ardoqlashga munosib, hurmat-ehtiromga, mehr-muhabbatga muntazir bo‘lgan, ajdodlarimizdan qolgan meros-ona tilimizni yod so‘zlardan asraylik, uning sofligiga, mavqeyiga hamda yuksalishiga o‘z hissamizni qo‘shishni farzandlik burchimiz deb bilaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” “Ma’naviyat” nashriyoti 2008-yil
2. I.A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” 1998-yil
3. A. Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” “O‘qituvchi” nashriyoti 1992-yil
4. A. Ibrohimov va boshqalar “Vatan tuyg‘usi” T. “O‘zbekiston” nashriyoti . 1997-yil
5. Internet ma’lumotlari

ГЕТЕРОГЕН-КАТАЛИТИК УСУЛДА АЦЕТОНИТРИЛ СИНТЕЗИ

Вапоев Ҳ.М, т.ф.д, НДК ва ТУ кафедра мудури
Умрзоқов А.Т, т.ф.ф.д (PhD) НДК ва ТУ доценти
Неъматов З.З, НДК ва ТУ ўқитувчиси
Йулдошев И, НДК ва ТУ магистри

Аннотация. Сирка кислотаси органик синтез жараёнларида хомашё, ярим маҳсулот сифатида кўп ва самарали қўлланиладиган, нисбатан арзон моддалардан биридир. Сирка кислотаси ва аммиак асосидаги реакциялар натижасида олинadиган ацетонитрил ва ҳосилалари ўзига хос амалий аҳамиятга эга. Карбон кислотаси аммолизини учун селектив таъсир этувчи гетероген катализаторларни танлаш ҳамда қўллаш ацетонитрил ва унинг ҳосилалари асосида олинadиган моддалар кимёсидаги долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

Таянч сўзлар. Сирка кислота, аммиак, аммолиз, гетероген катализ, промотор, H_3PO_4 , HNO_3 , NH_4OH , CH_3COOH , пептизатор, карбоксиметилцеллюлоза (КМЦ), ҳарорат, вақт давомийлиги, ацетонитрил, ацетамид, аммоний ацетат.

Абстракт. Уксусная кислота является одним из относительно недорогих веществ, широко и эффективно используемых в качестве сырья и полупродуктов в процессах органического синтеза. Особое практическое значение имеют ацетонитрил и его производные, полученные в результате реакций на основе уксусной кислоты и аммиака. Подбор и использование селективных гетерогенных катализаторов аммолиза уксусной кислоты является одной из актуальных проблем химии веществ, получаемых на основе ацетонитрила и его производных.

Ключевое слово. Уксусная кислота, аммиак, аммолиз, гетерогенный катализ, промотор, H_3PO_4 , HNO_3 , NH_4OH , CH_3COOH , пептизатор, карбоксиметилцеллюлоза (КМЦ), температура, время действия, ацетонитрил, ацетамид, ацетат аммония.

Abstract. Acetic acid is one of the relatively inexpensive substances widely and effectively used as raw materials and intermediates in organic synthesis processes. Of particular practical importance are acetonitrile and its derivatives obtained as a result of reactions based on acetic acid and ammonia. The selection and use of selective heterogeneous catalysts for the ammonolysis of acetic acid is one of the urgent problems in the chemistry of substances obtained on the basis of acetonitrile and its derivatives.


Key word. Acetic acid, ammonia, ammonolysis, heterogeneous catalysis, promoter, H_3PO_4 , HNO_3 , NH_4OH , CH_3COOH , peptizer, carboxymethyl cellulose (CMC), temperature, time of action, acetonitrile, acetamide, ammonium acetate

Кириш. Ацетонитрил кимёсаноатида оралиқ махсулотлар, бутадиең синтезида сифатли экстрагентлар, фармацевтикада хомашё сифатида, қишлоқ хўжалигида пестицидлар, коррозия ингибиторлари ишлаб чиқариш технологиясида кенг миқийёсда ишлатилади. Шунингдек, ўсимлик мойлари ва ёғлар учун селектив эритувчилардан бири хисобланиб уларнинг таркибидан ёғ кислоталарни ажратишда экстрагентлар сифатида қўлланилади [1,2]. Нитриллар эритувчилар, радикал-занжир полимерланишда инициатор, сирт-фаол модда, мономер, доривор моддалар, пестицидлар, пластификаторлар, олинишида хомашё сифатида ишлатилади, Риттер реакциясида нуклеофил, реагент сифатида кенг қўлланилади. Сўнгги йилларда жаҳонда нитриллар ва уларнинг ҳосилалари тарқоқ ва камёб металлларнинг самарали флокулянтлари, агрессив муҳитда коррозия ингибиторлари, антимиқроб препаратлар, махсус хоссали совуққа чидамли полимер ва мономерлар олишда амалий аҳамият касб этмоқда[3].

Тажрибани ўтказиш услублари. Гетероген каталитик усулда сирка кислотаси ва аммиак асосида ацетонитрилсинтези энг қулай ва истиқболли усуллардан бири хисобланади.

Ацетонитрил синтези катализаторларини тайёрлаш

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг солиштирма оғирлиги 2,66-2,67 г/см³ гача бўлиб, энг кам солиштирма оғирлик тупроқнинг гумусли қатламида учрайди. Тупроқнинг пастки қатламлари томон солиштирма оғирлик ошиб боради. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг ҳажм оғирлиги тупроқнинг чимли қатламида 1,35-1,40г/см³ бўлиб, пастки қатламларда 1,58-1,65г/см³ гача етади. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг ғоваклиги юқори қатламларда 47,36-49,05 %, тупроқнинг қуйи қатламларида эса камайиб, 39,78-44,69 % атрофида эканлиги аниқланган [3;4].

ҚИЗҒИШ ТУСЛИ ЛАЛМИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ХОССАЛАРИ.

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқлар ўзининг бир қанча хоссалари билан фарқланади. Тупроқнинг қатламлари яхши табақаланмаган, гумус миқдори унча кўп эмаслиги билан фарқланиб, гумус миқдори 1-1,5% гача етиши мумкин.

Эрозияга учрамаган қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг гумусли қатламининг қалинлиги турличадир; тупроқ қатламининг қалинлиги кам

(<40см), қатлам қалинлиги ўртача (40-70см) ва қатлам қалинлиги юқори (>70см) турларга ажратилган.

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқлар таркибида темир элементининг гематитли ва лимонитли ҳамда марганецли бирикмалар юқори кўрсаткични ташкил қилиб, гидрослюдалар, монтморролинит гуруҳи минералларидан хлорид, вермулит ва аморф моддалар кўп учрайди.

Таҳлил қилинган эрозияга учрамаган қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг гумус юқори қатламларда 0,89-1,11% гача бўлиб, пастки қатламларида 0,46-0,58% бўлиб, қуйи қатламлар томон бу кўрсаткич камайиб боради. Умумий азот миқдори юқори қатламларда 0,084-0,096% фосфор миқдори 0,112-0,123%, калий миқдори 1,90-2,00% бўлиб, ҳаракатчан фосфор миқдори 16,0-20,0 мг/кг гача, ҳаракатчан калий 120-140 баъзан 190 мг/кг гача етади

Ўрганилган эрозияга учраган қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг гумус ва озуқа элементларининг миқдори тупроқ қатламларида қуйига томон кескин камайиб кетади. Бу тупроқларда CO₂ карбонатлар миқдори 7,48 дан 8,12% гача бўлиб, қуйи қатламларда бу кўрсаткич 9,86-10,21% гача етади. Гипс миқдори анча юқори бўлиб, 1,30-200см чуқурликда майда кристалли гипсли қатлам мавжуд. Тупроқ муҳити рН 7,25-7,75 гача етади [5;6].

Эрозия таъсирида ювилиб тўпланган қизғиш тусли лалми бўз тупроқларда гумус миқдори 0,98-1,56% ялли азот миқдори ҳайдалма қатламларда 0,092-0,110%, фосфор 0,126-0,146, калий миқдори 2,20-2,25% бўлиб, CO₂ карбонатлар миқдори 7,63 дан 8,78% гача бўлиб, қуйи қатламларда бу кўрсаткич 11,56-11,86% гача етади. Тупроқ муҳити рН 7,20-7,80 гача етади [4;5].

ҚИЗҒИШ ТУСЛИ ЛАЛМИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРДАГИ МИКРОЭЛЕМЕНТЛАР МИҚДОРИ.

Тупроқда жуда оз миқдорда бўлиб, ниҳоятда зарур бўлган қатор кимёвий элементлар борки, уларни микроэлементлар дейилади. Тупроқдаги микроэлементлар ўсимликлар ўсиши ва ривожланишида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ўсимликлар микроэлементларга бўлган талабини тупроқлардаги микроэлементлар ҳисобига тўлдиради. Микроэлементлар-ўсимликлар ўсиши ва ривожланиши учун зарур бўлган ферментлар таркибига кириб, уларнинг биологик фаоллигини тезлаштиради, оксидланиш-қайтарилиш жараёнларида иштирок этади, уруғларнинг тез униб чиқишига ва чиришининг олдини олади, моддалар алмашинувида, тупроқда биокимёвий, биологик фаолликнинг кечишида асосий роль ўйнайди ва фотосинтез жараёнида иштирок этади.

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларда эса эрозияга учрамаган лалми бўз тупроқларда мис (Cu)-миқдори 0.40-0.55 мг/кг, рух (Zn)-миқдори 0.20-0.25 мг/кг,

марганец (Mn)-миқдори 100-105 мг/кг, бўр (B)-миқдори 0.50-1.28 мг/кг, ўртача эрозияга учраган тупроқларда Cu-миқдори 0.30-0.35 мг/кг, Zn-миқдори 0.15-0.20 мг/кг, Mn-миқдори 70-85 мг/кг, B-миқдори 0.69-0.50 мг/кг. Ювилиб тўпланган тупроқларда Cu-миқдори 0.65-0.70 мг/кг, Zn-миқдори 0.25-0.30 мг/кг, Mn-миқдори 105-115 мг/кг, B-миқдори эса 1.80-1,65 мг/кг эканлиги маълум бўлди. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг қуйи қатламларида бўр (B) микроэлементлари кўпроқ эканлиги маълум бўлди. Сабаби учламчи чўкиндилар-бу энг кўхна денгиз чўкиндилари бўлиб, бўр (B) “денгизсевар” элементдир.

ҚИЗҒИШ ТУСЛИ ЛАЛМИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ БИОЛОГИК ФАОЛЛИГИ.

Тупроқнинг унумдорлигини сақлаш ва оширишда тупроқнинг биологик ва биокимёвий жараёнларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эгадир. Тупроқнинг биологик ва биокимёвий жараёнлари ундаги микроорганизмларнинг ва ўсимликлар қолдиқларининг чириши натижасида парчаланиб, тупроқда ҳосил бўладиган биологик фаол моддаларнинг ҳаракатига, оксидланиш-қайтарилиш реакцияларига, микроорганизмлар миқдorigа боғлиқ. Тупроқнинг органик комплексида биологик жараёнларнинг жадал боришида тупроқдаги ферментлар алоҳида ўрин тутаяди. Ферментлар тупроқдаги турли хил биокимёвий реакцияларнинг юз беришида, органик моддаларнинг парчаланишида, тупроқда ўсимликлар ўзлаштира оладиган азот ва гумус ҳосил бўлишида иштирок этиб, тупроқ унумдорлигини оширади. Ферментлар тупроқнинг биологик ҳолатининг сезгир индикатори ҳисобланади.

Протеаза ферменти тупроқда азот ҳосил бўлишида зарур бўлган фермент бўлиб, оксиллар ҳосил бўлишида ва эркин аминокислоталаргача парчаланишида иштирок этувчи фермент.

Уреаза ферменти мочевиначининг аминификацияланиши ва азотнинг ўсимликлар ўзлаштира оладиган шаклга ўтиши уреаз ферментининг фаоллигига боғлиқ. Уреаза ферментини тупроқдаги уробактериялар гуруҳи ишлаб чиқаради. У замбуруғларда, чиритувчи бактерияларда ва азотабактерияларда учрайди.

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг тарқалишини, келиб чиқишини, тупроқдаги мис ва бўр микроэлементларининг таркибини ва миқдорини, уреаз, фосфатаза ва каталаза ферментларининг фаоллигини ва уларга эрозия жараёнларининг таъсирини ўрганганлар [1;2].

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг морфологик белгиларини, механик таркибини, физикавий ва агрокимёвий хоссаларини, қизғиш тусли тупроқдаги мис, рух, бўр ва марганец микроэлементларининг миқдорини, протеаза ва уреаз ферментларининг фаоллигини ўрганди. Ферментларнинг баҳор

ва кузда турлича микдорда бўлишини, гумуснинг ферментлар билан, тупроқнинг механик таркибининг физик лой билан ўзаро коррелятив боғлиқлигини ўрганди [5].

2- жадвал

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқлардаги ферментлар фаоллиги
(Раимбаева.Г.Ш.2019)

Кесма рақами	Кесма чуқурлиги, см	Протеаза фаоллиги тирозинда 1гр тупроқда 24 соатда мг ҳисобида		Уреаза фаоллиги, N-NH ₄ да 1гр тупроқда 24 соатда мг ҳисобида.	
		Баҳор	Куз	Баҳор	Куз
К ₁ Эрозияга учрамаган тупроқ	0-4	0,127	0,116	4,20	3,75
	4-20	0,072	0,060	3,50	2,10
	20-42	0,055	0,042	2,50	1,05
	42-64	0,033	0,028	1,00	0,67
	64-118	0,022	0,012	0,30	0,21
	118-175	0,005	0,003	"из"	"из"
К ₂ Эрозияга Учраган тупроқ	0-3	0,092	0,078	2,55	2,25
	3-23	0,053	0,046	2,05	2,00
	23-43	0,040	0,034	1,80	1,36
	43-75	0,020	0,014	0,70	0,55
	75-120	0,010	0,006	"из"	"из"
К ₃ Ювилиб тўпланган тупроқ	0-6	0,158	0,130	4,85	4,15
	6-24	0,102	0,090	4,00	3,05
	24-42	0,068	0,052	3,00	2,20
	42-67	0,042	0,030	1,15	0,98
	67-98	0,030	0,018	0,42	0,25

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларда уреаза ферментининг кўрсаткичлари анча кам эканлиги маълум бўлди. Эрозияга учрамаган лалми тупроқларда 3,50-4,20 мг 1г тупроқда, эрозияга учраган тупроқда 2,05-2,55 мг, ювилиб тўпланган 1г тупроқда 4,00-4,85мг. Эрозияга учрамаган тупроқларда уреаза ферменти эрозияга учраган тупроқларга нисбатан юқори бўлади. Уреаза ферменти тупроқ кесмасининг 50см дан кескин камайиб кетади. Тупроқ қатламлари бўйича уреаза ферментининг тарқалиши тупроқ ҳосил бўлиш жараёнининг қандай кечаётганлигига ва тупроқнинг хусусиятларига боғлиқ бўлади.

Эрозияга учрамаган қизғиш тусли лалми бўз тупроқларда протеаза ферментининг фаоллиги 24 соатда 1г. тупроқда 0.072-0.127мг, ўртача эрозияга учраган тупроқда 24 соатда 1г. тупроқда 0.053-0.092 мг, эрозия натижасида ювилиб тўпланган тупроқда 24 соатда 1г. тупроқда 0.102-0.158 мг ҳосил бўлади. Куз фаслида баҳорга нисбатан кам микдорда бўлиши кузатилди [5;6].

Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларда биологик фаоллик тупроқнинг юза 50см гача бўлган қатламларида юқори бўлиб, тупроқнинг 50-70см дан кейинги қатламларида биологик фаоллик кескин камайиб, деярли кузатилмайди. Тупроқдаги биологик фаоллик унинг унумдорлигини оширишда катта аҳамиятга эга. Эрозия натижасида тупроқдаги ферментлар фаоллиги сустлашади. Уреаза ва протеаза ферменти эрозия таъсирида тупроқнинг юза қатламларида кескин камайиб, ювилиб кетади.

Тупроқдаги уреаз ва протеаза ферментларининг фаоллиги баҳор фаслида куз фаслига нисбатан кўпроқ бўлиши кузатилди. Эрозия жараёни уреаз ва протеаза ферментларининг фаоллигига салбий таъсир этиб, тупроқнинг унумдорлигининг пасайишига олиб келади.

Х У Л О С А

1. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқлар тоғ олди қия текисликларида, адирларда, паст тоғларнинг анча баланд қисмида тарқалган бўлиб, неоген ётқизикларида шаклланган қизғиш тусли лалми тупроқлар тоғ олди қия текисликларида тарқалганлиги сабабли, рельефи нотекис, эгри-бугри қияликлар мавжуд.
2. Қизғиш тусли лалми тупроқлар турли даражада эрозияга учраган. Эрозия лалми тупроқларнинг механик таркибига, физикавий, агрокимёвий, биологик хоссаларига ва хусусиятларига салбий таъсир кўрсатади.
3. Қизғиш тусли лалми тупроқлар морфологик белгилари билан ҳам фарқланади. Неоген ётқизикларида шаклланган лалми тупроқларнинг рангитуси қизғиш, қизғиш-кўнғир тусли, карбонатлар миқдори ва ишқорийлиги юқори. Азот, фосфор миқдори кам, калий билан ўртача таъминланган. Сингдирувчи комплексида магнийнинг миқдори кўплиги билан характерланади.
4. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг механик таркиби оғир кумоқ, енгил лойдан иборат, зич, ғоваклиги кам, солиштирма ва ҳажм оғирлик юқори.
5. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг унумдорлиги кам, таркибидаги гумус миқдори ва озуқа элементларининг анча кам эканлиги кузатилди.
6. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг юза қисмида ўсимликлар кам ўсади сабаби, тупроқнинг механик таркиби анча оғир, физикавий хоссаси зичлашган тупроқлардир.
7. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг гумусли қатламининг қалинлиги қисқа ва гумус миқдори анча кам.
8. Қизғиш тусли лалми бўз тупроқларнинг 30см қатламида ферментлар фаоллиги юқори, тупроқ қатламининг 50см.дан қуйи қатламларида протеаза ва уреаз ферментларининг фаоллиги жуда камайиб кетади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гафурова.Л.А. Почвы, сформированные на третичных красноцветных отложениях, их экологическое состояние и плодородие, в пределах предгорья и низкогорий Узбекистана. Автореф. доктор. дисс. Ташкент.1995.
2. Пейве.Я.В. Биохимия почв. Москва. 1961.
3. Раимбаева.Г.Ш. Чирчиқ-Келес дарёлари оралиғидаги эрозияга учраган неоген ётқизикларида шаклланган типик бўз тупроқларнинг механик таркиби. Тошкент. 1997.
4. Раимбаева.Г.Ш. Тошкент вилояти Қибрай туманининг эрозияга учраган учламчи неоген ётқизикларида шаклланган типик бўз тупроқларининг агрохимёвий хоссалари. Тошкент, 1998.
5. Раимбаева.Г.Ш. Свободные аминокислоты в эродированных типичных серозёмах в междуречья Чирчик-Келес. канд.дисс.Ташкент. 2000.
6. Раимбаева Г.Ш. Элементы плодородия и биохимические процессы в типичных серозёмах. Монография. Ташкент. 2020.

УЗУМ ЕТИРИШНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ

*Магистр С. Комилов, т.ф.д., профессор Б.Худаяров
“ТИҚХММИ” МТУ*

Аннотация. Ишда узумчилик соҳасидаги мавжуд муаммолар ва уларнинг таҳлили келтирилган. Таҳлил қилинган муаммолар соҳадаги амалда қўлланилиб келинаётган усуллар асосида юзага келиб чиққан.

Калит сўзлар: узумчилик, контурлар, қўд меҳнати, вино тайёрлаш, мотоблок.

Кириш. Ҳозирги кунда қишлоқ хўжалигининг барча соҳалари қатори боғдорчилик хусусан узумчиликка ҳам катта эътибор берилмоқда [1]. Энди нафақат етиштирилаётган узумнинг миқдори эмас, балки сифати талабга жавоб бериши, истеъмолчиларнинг талабларидан келиб чиқиб, янги турдаги навларни яратиш каби масалалар қўйилмоқда. Бу борада республикамизда жаҳон стандартлари асосида узум етиштиришнинг янги дастурлари ишлаб чиқилмоқда [2].

2017-2021 йилларда Ўзбекистан Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши буйича Ҳаракатлар стратегиясининг 3.3-бандида «...қишлоқ хўжалигида экин майдонлари ва экинлар таркибини оптималлаштириш, илғор агротехнологияларни жорий этиш ҳамда ҳосилдорликни ошириш, мева-сабзавот ва узум етиштиришни кўпайтириш, касаллик ва зараркунандаларга чидамли, маҳаллий ер-иқлим ва экологик шароитларга мослашган қишлоқ хўжалиги экинларининг янги селекция навларини яратиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини кенгайтириш» масалалари ҳам устувор вазифа этиб белгиланди [3].

Республикамизда узум асосан вино тайёрлаш, тез ва қурутиб истеъмол қилиш учун етиштирилади. Узумчилик ўзига хос парваришlash усуллари билан бир қаторда маълум иқлим шароитларни ҳам танлайди. Узумни иқлими турлича бўлган ва исталган ҳудудда етиштириб, режадаги мақсадга эришиб бўлмайди. Яъни узум ҳам боғдорчиликнинг бошқа соҳалари каби тоғли, тоғ олди ва сувли ҳудудларда етиштирилади.

Узум етиштиришда инсон таъсири муҳим омил ҳисобланади. Ундаги агротадбирларнинг аксарияти қўл кучи ёрдамида бажарилади. Шу сабаб бўлса керак, узумзорлар майдонни катта бўлмаган контурлардан ташкил топган. Узумчиликдаги асосий муаммо ҳам шунда.

Узумчиликни ривожлантириш учун қўл меҳнати сарфини камайтириб, ундаги жараёнларни механизациялаштириш лозим. Масалан, қатор ораларига ишлов бериш, ўғитлаш ва кимёвий ҳимоялаш каби жараёнларни механизациялаштириш ёрдамида мақсадга эришиш мумкин. Ушбу масала узумчиликни ривожлантиришда долзарб ҳисобланади.

Каттароқ майдонларда қатор орасига ишлов бериш плуглар орқали амалга оширилади. Бунда ток шохлари ва навдаларининг таги, яъни одатда бу масофа 80-100 смлик кенгликдан иборат бўлиб, унга ишлов бериш имконияти бўлмайди. Бу жой ҳозирги кунда қўл меҳнати орқали юмшатишмоқда. Шунингдек бу жараёнда инсон меҳнатини камайтириш учун мотоблоклардан (1-расм) ҳам фойдаланиб келинмоқда. Мотоблокдан фойдаланилганда ҳам ишлов берилмай қолган юза камаяди, лекин тўлиқ бартараф этилмайди.



1-расм. Мотоблок

Кимёвий ҳимоя қилиш ишлари ҳам асосан қўл меҳнати орқали амалга оширилади. Махсус кичик аппаратлар ёрдамида кимёвий дори воситалари сепилади (2-расм). Бунда кўп ишчи кучи ҳам вақт талаб қилинади. Шунингдек аралашмани пуркаш ҳам бир хил меъёрда амалга оширилмайди. Шуларни ҳисобга олган ҳолда ушбу жараённи ҳам замонавий технологиялардан, масалан дронлардан фойдаланган ҳолда йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ.



2-расм. Ўсимликларни химоялаш воситаларини пуркаш аппарати

Юқоридаги биринчи муаммо бўйича “Тошкент ирригайия ва қишлоқ хўжалигини механизайиялаш муҳандислари институти” миллий тадқиқот университети ёш олимлари томонидан изланишлар олиб борилмоқда.

Хулоса

Келтиририб ўтилган муаммолар қишлоқ хўжалигининг узумчилик соҳасида механезатциялаш ишлари бўйича тадқиқотлар олиб бориш заруратини кўрсатмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2013-йил 13-мартдаги «2013-2015-йиллар даврида республикада узумчиликни янада ривожлантириш дастури тўғрисида»ги ПҚ-1937-сонли қарори;
2. <https://uz.m.wikipedia.org>;
3. 2017-2021-йилларда Ўзбекистан Республикасини ривожлантиришнинг беша устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси.

SYNTHESIS OF NANOCRYSTALS IN THE CORE/SHELL

Ishankulov A.F., Mukhamadiev N.K.

Samarkand state university, Uzbekistan.

e-mail: Ishankulov-alisher@mail.ru

Annotation: On the basis of a semiconductor material, a hybrid CdSe/ZnS quantum-sized (1-10 nm) hybrid of cadmium selenide with a “core-shell” structure was synthesized. The absorption and luminescence spectra of quantum dots were studied and quantum yield was calculated theoretically. The values of the theoretical and experimental dimensions of CdSe nanocrystals were studied comparatively. Optimal temperature conditions for efficient synthesis were determined.

Keywords: Quantum dot, CdSe, CdSe/ZnS, stabilizer, oleic acid, nanoparticle, size, nanocrystal.

Nowadays, along with the growing demand of mankind for new nanotechnologies, chemical nanotechnologies are also developing rapidly [1]. Therefore, in the field of nanochemistry, the scientific literature pays great attention to the development of nanotechnologies and their application in various fields of human activity [2]. In the last decade, the synthesis of nanocrystals of metals and semiconductors, which defines the main direction of research in the development of chemical nanotechnologies, has become particularly important [3].

Semiconductor nanocrystals or quantum dots (QDs), which exhibit luminescence properties, have become a promising material for use in a variety of fields due to their unique optical properties. QDs are used as biomarkers in the manufacture of light-emitting diodes, displays, lasers, solar cells, and in the study of cells [4,5].

The nature and composition of a semiconductor as an nucleus play an important role in the synthesis of quantum dots. By changing the composition of the semiconductor, effective luminescence can be achieved in the desired range. Among the most studied nanoparticles among QDs are CdSe nanocrystals with good luminescence properties.

Methods for obtaining quantum dots in a colloidal environment allow nanoparticles to form in a highly quantum efficient state over a short-range distribution range. In this case, a stabilizer is selected in organic solvents, such as amines, fatty acids, thiols, which ensure the distribution of quantum dots in different media, depending on the conditions of synthesis, which in turn provides a monodisperse-sized distribution of quantum dots [6].

The synthesis of CdSe/ZnS QDs was carried out with partial modification based on the method described by the authors [7,8]. The synthesis temperature was changed

to 260°C. The synthesis was carried out in an argon atmosphere in a colloidal manner. A 1:1 mixture of ethanol and acetone was used to purify the reactants. The mixture was separated in a centrifuge at 10000 rpm for 10 minutes (the cleaning process was repeated 3 times). During high-temperature synthesis, oleic acid (OA) was used as an organic solvent octadecen and stabilizer to obtain CdSe/ZnS nanocrystals. To study the optical properties of the obtained nanocrystals, they were dissolved in an organic solvent.

The obtained nanoparticles have a spectral range of 500-600 nm in the luminescence spectrum. The spectrum shows that the luminescence range is narrow and symmetrical. This suggests that nanocrystals have very few surface defects and are characteristic of colloidal synthesis. The selected synthesis method made it possible to obtain monodispersed quantum dots. The maximum photoluminescence intensity of quantum dots is 555 nm (Figure 1a). The quantum yield of the synthesized hybrid CdSe / ZnS quantum dots was determined by the coumarin method, based on a solution of rhodamine 6G (96%) in ethanol [9]. The quantum yield of hybrid CdSe/ZnS nanocrystals was 19%.

As can be seen from the absorption spectra of the quantum dots CdSe/ZnS (Figure 1b), an exciton peak of 537 nm is observed in the field of view. The field of view of CdSe quantum dots is 500-600 nm. corresponds to the wavelength.




Figure 1. Luminescence (a) and absorption (b) spectra of CdSe/ZnS QDs

The average size of quantum dots is determined by the following formula, depending on the position of the exciton peak in their absorption spectrum [10]:

$$D = (1.6122 \cdot 10^{-9}) \cdot \lambda^4 - (2.6575 \cdot 10^{-6}) \cdot \lambda^3 + (1.6242 \cdot 10^{-3}) \cdot \lambda^2 - 0.4277 \cdot \lambda + 41.57$$

Here: D-particle size (nm), λ - the wavelength corresponding to the first exciton peak of the absorption spectrum.

The average hydrodynamic size of the nanoparticles was calculated based on the dynamic scattering data of light scattering on the Malvern Zetasizer Nano. According

to the literature, the size of the oleic acid molecule used as a stabilizer is 2.35 nm. The size of the quantum point CdSe/ZnS was calculated taking into account the equality of [11]. The mean hydrodynamic (GD) size was 11.3 nm when QDs was stabilized with oleic acid at the surface.




Figure 2. Diagram of the average GD size distribution of the obtained QDs

The values of quantum dots stabilized with oleic acid based on theoretical calculations and practical results obtained by the method of dynamic scattering of light are given in Table 1.

Absorption spectroscopy data also allow the calculation of the extinction coefficient and the concentration of nanoparticles. The extinction coefficients for CdSe and hybrid CdSe/ZnS nanocrystals were determined by the following formula.

$$\varepsilon = 5857 \cdot (D)^{2,65}$$

In this D is the diameter of the nanoparticle, ε = extinction coefficient ($M^{-1} \cdot cm^{-1}$), CdSe QD extinction coefficient for 187676,4 ($M^{-1} \cdot cm^{-1}$), for hybrid CdSe/ZnS QDs, 89669.34 ($M^{-1} \cdot cm^{-1}$) equality was determined.

In turn, the nanoparticle concentration in the solution was determined using the following formula using Lambert-Beer's law.

$$C_M = \frac{A_{max,abs}}{\varepsilon \cdot l}$$

Where C_M is the quantum dot concentration (mol/l), $A_{max, abs}$ – the maximum absorbance, l – surface shell layer.

The average hydrodynamic size of the nanoparticles was determined based on the dynamic scattering method of light in a Malvern Zetasizer Nano instrument. The results show that the average size of a nanoparticle is 3 min. was 8.4 nm when continued (Figure 3 b).




Figure 3. Mean hydrodynamic size distribution of hybrid CdSe/ZnS quantum dots (a). Size distribution diagram of CdSe/ZnS hybrid quantum dots coated with different stabilizers (b)

The mean hydrodynamic size of the synthesized hybrid CdSe/ZnS nanocrystals was 11.2 nm, taking into account the stabilizer shell (Figure 2 a). From this, it can be determined that the thickness of the ligand shell is 2.35 nm, given that the size of the core of the hybrid CdSe/ZnS QDs is 2.8 nm

Table 1. Dimensional characteristics of quantum dots CdSe/ZnS

	Average hydrodynamic size	The size of the CdSe core	The size of the ZnS shell	Stabilizer shell size
CdSe/ZnS (OA)	11,3 nm	2,8 nm	0,9 nm	2,35 nm

Oleic acid-stabilized hybrid CdSe/ZnS nanocrystals were synthesized in a colloidal manner. The selected synthesis method made it possible to obtain monodispersed quantum dots. The absorption and luminescence spectra of the hybrid CdSe/ZnS quantum dot have moved to a region with shorter wavelengths.

References

1. A.V. Barve, S.J. Lee, S.K. Noh, S. Krishna, Review of current progress in quantum dot infrared photodetectors, *Laser Photon. Rev.* 4 (2010) 738–750.
2. H.K. Jun, M.A. Careem, A.K. Arof, Quantum dot-sensitized solar cells-perspective and recent developments: a review of Cd chalcogenide quantum dots as sensitizers, *Renew. Sustain. Energy Rev.* 22 (2013) 148–167.
3. H. Shin, D. Jang, Y. Jang, M. Cho, and K. Park, “High resolution imaging analysis of CdSe/ZnS core-shell quantum dots (QDs) using Cs-corrected HR-TEM/STEM,” *Journal of Materials Science: Materials in Electronics*, vol. 24,no. 10,pp. 3744–3748, 2013.

4. A.M. Kelley, Q. Q. Dai, Z.-J. Jiang, J.A. Baker, and D. F. Kelley, “Resonance Raman spectra of wurtzite and zincblende CdSe nanocrystals,” *Chemical Physics*, vol. 422, pp. 272–276, 2013.
5. Chang, J., Waclawik, E.R., “Colloidal semiconductor nanocrystals: controlled synthesis and surface chemistry in organic media,” *RSC Adv.* 4(45), 23505-23527 (2014).
6. W. Zhang, C. Jin, Y. Yang, and X. Zhong, “Noninjection facile synthesis of gram-scale highly luminescent CdSe multipod nanocrystals,” *Inorganic Chemistry*, vol. 51, no. 1, pp. 531–535, 2012
7. R. R. Shamilov, A. F. Ishankulov, Yu. G. Galyametdinov “Size-optical characteristics of CdSe/Zns quantum dots modified by thiol stabilizers T.23, №3, 19-23 (2020).
8. Xinyue Liu, Yixuan Liu, Shu Xu, Chong Geng, Yangyang Xie, Zi-Hui Zhang, Yonghui Zhang, and Wengang Bi . Formation of “Steady Size” State for Accurate Size Control of CdSe and CdS Quantum Dots. *The Journal of Physical Chemistry Letters* 2017, 8 (15) , 3576-3580. DOI: 10.1021/acs.jpcllett.7b01238.
9. *Quantum Dots: research, technology and applications*. Ed. by R.W. CDoss. Nova Science Publishers, Inc. New York. 2008.
10. J. Chen, J.L. Song, X.W. Sun, W.Q. Deng, C.Y. Jiang, W. Lei, J.H. Huang, R.S. Liu. // *Applied physics letters*. 2009. V. 94. P. 153115-3.
11. N. Tessler, V. Medvedev, M. Kazes, S. Kan, U. Banin. // *Science*. 2002. V. 295. P. 1506 – 1513.

TARIXIY OBIDALAR VA QURILISH INSHOOTLARINING MUSTAHKAMLIGIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Rahmatxo'jayeva Dilrabo Shuhratxo'ja qizi

Kalit soʻzlar: zilzila, seysmik, gorizontal, plastmassa, ohak, arxitektura, minimallashtirish.

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarixiy obidalar va qurilish inshootlarining mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish bo'yicha ma'lumotlar berilgan, tahlilda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni oldini olish choralari ko'rsatilgan.

Key words: earthquake, seismic, horizontal, plastic, mortar, architecture, minimization.

Annotation

This article provides information on the study of factors that have a negative impact on the strength of historical monuments and construction structures, and measures to prevent possible damage are indicated in the analysis.

Ma'lumki, zilzila paytida seysmik to'lqinlar uning manbasidan turli yo'nalishlarda tarqaladi. Uning vertikal tarkibiy qismlari strukturaning poydevoriga pastdan yuqoriga qarab katta kuch bilan uriladi. Seysmik to'lqinlarning gorizontal tarkibiy qismlari binoning poydevoriga gorizontal yo'nalishda ta'sir qiladi, zarba kuchi poydevorni poydevor ostidan siljitishga qodir. Bino va inshootlarning qarshiligi (chidamliligi) ko'plab omillar bilan bog'liq.

Me'moriy yodgorliklarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, qadimda me'morlar va hunarmandlar g'isht devor konstruksiyalarini qurishda elastik va plastmassa (gips) ohaklardan foydalanganlar. Binoning pastki qismida ohak qalinligi 5 sm, ya'ni kamarlarning soni minimallashtiriladi va devor qurilishi darajasiga ko'ra, kamarlarning qalinligi 1,0 sm gacha kamayadi.

Shu bilan birga, balandlikdagi devorning umumiy hajmida gipsli ohak miqdori 25-30% ni tashkil qiladi, bu chora mustahkamlikka hissa qo'shdi va seysmik yuklarni idrok etishda yaxshi natijalar berdi. Devorlarni o'rnatishda gipsli ohakdan foydalanish ohak va g'isht o'rtasida yaxshi bog'lanishni, shuningdek, ularning yopishishini ta'minlashga yordam beradi.

Mavjud standartlarga muvofiq, devorlar seysmik ta'sirga chidamlilik darajasiga ko'ra toifalarga bo'linadi. Yuqori toifadagi ushbu talablarga muvofiq

Bu talab bog'lanmagan g'ishtli kamarlarning vaqtinchalik kuchlanish kuchiga teng bo'lganda bajariladi.

$$R_t^B \geq 500 \text{ kPa} \left(\frac{5 \text{ kN} \cdot \text{c}}{\text{cm}^2} \right)$$

Ma'lum sonli qiymatlar paydo bo'ladigan hisoblangan qarshilik qiymatlaridan oshmasligi kerak. devorni buzish paytida. Yuqoridagi talablardan ko'rinib turibdiki, ohak va g'isht o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (yopishqoqlik) muhim rol o'ynaydi va seysmik hududlarda qurilgan bino va inshootlarning mustahkamligini ta'minlashga yordam beradi. Yuqoridagi dalillarga asoslanib, shunday xulosa qilish mumkinki, devorlar va ularning g'ishtlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan gipsli ohak yordamida qurilgan va shuning uchun me'moriy yodgorliklar yuqori mustahkamlikka ega. Tarixiy yodgorliklarni o'rganishda asosan landshaft ishlari olib boriladi, shuningdek, inshootlarning kuchlanish-deformatsiya holatlari tahlil qilinadi. Buning uchun asosiy konstruksiyalarning yuk ko'tarish qobiliyati tekshiriladi, shu bilan birga yoriqlar paydo bo'lishiga yordam beruvchi omillar chuqur o'rganiladi va hisob-kitoblar ham keltiriladi. Buning natijasida tarixiy obidalar bino va inshootlarining ishonchliligi va ekspluatatsiya qilish imkoniyatlari oshirilmoqda. O'tkazilgan landshaft kuzatuvlari va hisob-kitoblari asosida hududda me'moriy yodgorliklarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha xulosalar chiqariladi, loyihalar yaratiladi, texnik asoslar va yechimlar keltiriladi. Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda: tarixiy obidalar hududi atrofida istirohat bog'lari hududlarini tashkil etish bo'yicha takliflar, arxitektura-rejalashtirish tizimlari, obodonlashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, transport kommunikatsiyalari va boshqalar.

Tarixiy obidalar va binolarning texnik holatini baholashda quyidagi asosiy texnik tadqiqotlar olib boriladi:

- ichki va tashqi tekshiruv;
- poydevor tuproqlarini o'rganish;
- jismoniy eskirishni aniqlash;
- tajribalar asosida materiallar sifati va mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlash;
- seysmik yuklarni idrok etish, nuqsonlar va buzilishlarni shakllantirish uchun yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni hisoblash;

konstruktiv nuqtai nazardan o'lchash va tahlil qilish asosida haqiqiy rejani chizish.

O'tkazilgan tadqiqotning qiziqarli bosqichi - bu tuzilmalarning haqiqiy holatini hisoblash, ushbu hisob-kitoblar asosida o'tirish va tiklanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot natijalari oldingi tadqiqotlar natijalari bilan bevosita bog'liq.

Zamonaviy shaharsozlikda arxitektura yodgorliklari joylashgan bo'sh hududlar yaqinida yangi bino va inshootlar qurish zarurati paydo bo'ldi. Bunday hollarda yangi bino va inshootlar qurish uchun ajratilgan tarixiy obidalarga tutashgan hududlar poydevorining tuproq sharoitini o'rganish asosiy vazifa hisoblanadi.

Tarixiy obidalar, shuningdek, har qanday bino va inshootlar yaqinidagi bino va inshootlarni qurish uchun deformatsiyani hisoblash va qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarning barqarorligini ta'minlash kerak. Mavjud binodan yangi qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan binogacha bo'lgan eng kichik masofa aniqlanadi, zarar omillari hisobga olinadi va shartlar belgilanadi. Bundan tashqari, mavjud va yangi qurilgan bino va inshootlarning yaxlitligi va xavfsizligini saqlash uchun binolar va inshootlarning ishonchligi va mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni minimallashtirish bo'yicha ba'zi choralarni ko'rish zarur.

Zamonaviy qurilishda seysmik zonalarda bino va inshootlarni qurish me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi va ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, vertikal yuk ko'taruvchi konstruksiyalar ularning og'irligi va qattiqligi butun bino bo'ylab teng taqsimlanadigan tarzda joylashtirilishi kerak. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, tarixiy obidalarni qurishda bunday talablar hisobga olingan deb taxmin qilish mumkin. Me'moriy yodgorliklarning kvadrat va to'rtburchak ko'ndalang kesimiga qaramasdan, ularning fazoviy qat'iyligi ta'minlangan. Shunday qilib, tarixiy obidalar va binolar o'z davrining seysmik chidamlilik talablarini hisobga olgan holda qurilgan deb taxmin qilishimiz mumkin.

O'tkazilgan texnik tekshiruvlar natijalariga ko'ra, tekshirish hisob-kitoblari usulidan foydalangan holda, asosiy yuk ko'taruvchi tuzilmalarning va umuman binoning mustahkamligini, shuningdek, poydevor tuproqlarining barqarorligini aniqlash kerak. Buning uchun texnik tadqiqotlar o'tkazish va konstruksiyalarning haqiqiy geometrik parametrlarini, qurilish materiallarining haqiqiy mustahkamligini, dizayndagi tuproq qarshiligini, binoga ta'sir qiluvchi yuklarni aniqlash, nuqsonlar va shikastlanishlarni aniqlash va printsipni o'rnatish kerak. binoni hisoblash.

Seysmik qarshilikni aniqlash bo'yicha hisob-kitoblar natijalariga ko'ra binolarning kuchlanish-deformatsiya holati o'rganiladi, seysmikaga qarshi, shuningdek binolar va inshootlarning mustahkamligini tiklash yoki mustahkamlash choralari belgilanadi. Bunday hisob-kitoblar tuzilmalar mustahkamlangandan so'ng yana amalga oshiriladi va bu hisob-kitoblar asosida texnik baholash o'tkaziladi va binoning keyingi foydalanishga yaroqliligi aniqlanadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz hududidagi tarixiy obidalar, binolar asosan g'ishtdan qurilgan bo'lib devor konstruksiyalari har tomonlama o'rganilishi zarur. Devorlarni tekshirishda qurilish turi, materiallari, texnik va mustahkamlik xususiyatlari, g'ishtlarning o'lchamlari, bo'g'inlarning qalinligi, shikastlanish va deformatsiyaning mavjudligi, ularning tabiati, xususiyatlari, paydo bo'lish sabablari o'rganiladi. Natijalarni qayta ishlagandan so'ng, ular hisoblash ishlarida qo'llanilishi mumkin.

Yakuniy bosqichda, olingan natijalar asosida binoni rekonstruksiya qilish loyihasi ishlab chiqiladi, binolarga qo'yiladigan talablar zamonaviy qoidalarga muvofiq

ularning ishonchliligini ta'minlashi kerak. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish tarixiy obidalar va inshootlarning mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурашидов К.С., Хабилов Б.А., Тўйчиев Н.Ж., Рахимбоев А.Г. Дарслик. «Қурилиш механикаси», Тошкент, 2000.
2. Azimov X.A. Bino va inshootlar yong'in xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T.:2004
3. Асқаров Б. "Қурилиш конструкциялари" Дарслик Тошкент, 1995.
4. Худоев А.Д. Yong'in xavfsizligi. Toshkent. 2000 у.
5. Қамбаров Х.У, "Турар жой биноларининг конструктив элементлари" Ўқув кўлланма. «Ўқитувчи Тошкент-1992 й.
6. ҚМҚ 2,03.08- 98 «Ёғоч конструкциялари». ЎзР Давлат архитектура ва қурилиш қўмитаси - Тошкент, 1998, 79 бет.
7. ҚМҚ 2.01.03-96 «Зилзилавий худудларда қурилиш.
8. ҚМҚ 2.02. 01-98 «Бино ва иншоотлар заминлари».
9. ҚМҚ 2.08. 01-94 «Тураржой бинолари».
10. ҚМҚ 1.02. 07-97 «Қурилиш учун мухандислик изланишлар».
11. Расулов Х.З. «Замин ва пойдеворлар». Ўқув кўлланма Тошкент. Ўқитувчи. 1993

ЛИНГВОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНЦИЯ МАДАНИЯТ ОБРАЗЛАРИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИЯ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Фарход Усмонов

ф.ф.ф.д. (PhD), Андижон давлат университети

Аннотация. Мақолада ўзбек тилидаги миллий-маданий маркерланган турғун ўхшатишлар таҳлил этилган. Ўзбек миллатига хос оламнинг лисоний манзарасида мифологик образларнинг ўрнига баҳо берилган.

Annotation. The article analyzes culturally marked stable comparisons in the Uzbek language. An assessment is given of mythological images in the linguistic picture of the world characteristic of the Uzbek linguistic culture.

Калит сўзлар: антропоцентризм, ўхшатиш, мифология, диний-мифологик тасаввурлар, олам манзараси, фольклор персонажлари, мифологик персонажлар.

Key words: anthropocentrism, similarities, mythology, religious-mythology imagination, worldview, folklore characters, mythological characters.

Оламнинг лисоний манзараси хусусида сўз юритилганда, унинг лингвомаданиятшуносликда марказий тушунчалардан эканлиги, борлиқни идрок этишнинг тилда акс этган, миллатнинг кўп асрлик тажрибалари орқали шаклланган, инсоннинг воқеликка муносабат тарзини белгиловчи, замонда ўзгарувчан, оламнинг илмий манзарасига нисбатан содда миллий ўзига хос шакли¹ эканлиги таъкидланади.

Лингвомаданиятшуносликда маданиятга биринчи навбатда қадриятлар тизими сифатида қаралиб, унинг ўзига хос ифодаловчилари, белгилар системаси орқали гавдаланиши таъкидланади. Дарҳақиқат, маданият нафақат миллий кийим, чиройли одоб-ахлоқ, балки шу маданият вакилларининг мулоқот, юриш-туриш, умуман, ҳаёт кечириш одатлари, қадриятлари, қўйингки, қадам ташлаш тарзи ҳамдир. Шу боис Э.Сепир “маданият” тушунчаси одатда санъат, фан ва дин тушунчалари билан чегараланиши, бу эса мақсадга мувофиқ эмаслигини баён қилади. Зеро, маданият тушунчаси остида муайян миллатнинг эътиқоди ёки ўз фаолиятининг маҳсулидан ҳам кўра унинг шу маҳсулотга муносабати, шу эътиқоднинг ва маҳсулотнинг миллат ҳаётида тутган ўрни назарда тутилмоғи лозим². Демак, миллий маданият ўзининг белгилар тизими – семиосферасига эга. Семиосфера бирликлари – культуремалар тилда ифодасига эга бўлиб, бошқа белгилар системасига ўтади. Яъни, ўз мазмун мундарижасида маданий ахборотни ташувчи тил белгилари лингвокультуремани ташкил этади.

¹ Сабитова З.К. Лингвокультурология. Москва. 2013. –С.53.

² Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М., 1993. С.469.

Лингвокултурама атамасини биринчи бўлиб қўллаган В.Воробъев шундай ёзади: сўз референт (денотат) билан боғланади, унга олиб боради, лингвокултурама унинг мазмун мундарижасини тушунтиради. Биринчиси – реалема билан чегараланади, иккинчиси – реалия(ушбу маданиятга алоқаси бўлган барча нарса – Ф.У.)ларнинг ўзига хослиги ва предметлар синфидаги ўрнини ифодалайди³. Унга кўра, лингвокултурама маъносини тўлақонли тушуниш “маъно – культурологик мазмун” тарзидаги доимий алоқа кўринишига эга бўлади⁴. Масалан, сув бўйи халқлари учун “денгиз” сўзи лингвокултурама мақомига эга бўлиши табиий. Тарихи, кундалик турмуш шароити уни доим денгиз билан боғлиб туриши, у билан боғлиқ афсона, одатлар, умуман, асрлар давомида тўпланган билимларнинг жами унинг маданиятига, демакки, миллатнинг онгидаги концептуал манзарага таъсир этади, унинг фольклори, мифологияси, дунёқарашида ўз изини қолдиради.

Миллий-маданий коннотацияни аниқлаш ва уларни тўғри талқин этиш инсоннинг лингвомаданий билимлар захираси билан боғлиқ. Бундай билимлар маданий ахборотни талқин этиш учун зарур интерпретация базаси вазифасини ўтайди. Тил эгасининг ёки тадқиқотчининг лингвомаданий компетенцияси учун шу миллат мифологияси, фольклори, диний ва бадиий матнларини ўзлаштириш пойдевор вазифасини ўтайди.

Турғун ўхшатишлар миллатнинг тафаккуридаги оламнинг лисоний манзарасини яққол намоён этади. Айнан ўхшатиш ушбу халқ миллий аксиологик нигоҳини акс эттиради. Миллат лисоний манзарасидан муқим ўрин олган турғун ўхшатишлардаги эталонлар шу миллат вакиллари учун алоҳида аҳамиятлидир. Қуйида ўзбек тилидаги ўхшатишлар учун образ вазифасини ўтовчи мифологик ва фольклор персонажлари хусусида сўз юритмоқчимиз.

Ўзбек тилида хунук, беўхшов инсонни ифодалаш учун қўлланиладиган алвасти лексемаси “шарқ мифологияси ва хурофий тасаввурларда гўё ҳар хил қиёфада кўринадиган афсонавий маҳлуқ” (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I. 68. Кейинги ўринларда “ЎТИЛ” тарзида берилади) сифатида таърифланади. “Алвасти одатда оч рангли узун сочларини ёйиб олган бадбашара аёл кўринишида тасаввур қилинган. ...Туркий халқларга мансуб ўзга мифларда алвастининг пешонасида битта кўз бўлганлиги, у ҳам бўлса, тош кўз қизил мисдан эканлиги, шунингдек, қўлларида ўткир тирноқлар бўлганлиги айтилади.”⁵ Алвасти ҳақидаги тасаввурлар тил соҳибларида хунуклик, ёқимсизлик билан боғлиқ ассоциацияларни юзага келтирган. Масалан: У худди, алвастидек хунук бир одамни кўриб қолгандек, бошини бир томонга эгганича,

³ Воробьев В. В. Лингвокультурология. – Москва. 2006. – С.45

⁴ Воробьев В. В. Кўрсатилган манба. – С.45

⁵ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метаболарининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.32.

тез юриб, меҳмонхонадан чиқди (О.Ёқубов). Биз айнан шу эталон диний тасаввурлар боғлиқлигини таъкидламоқчи эмасмиз. Аммо унинг мифологик тасаввурлар билан боғлиқлиги ҳақида қатъий фикр юритиш мумкин. Шу ўринда халқнинг мифологик, диний тасаввурлари ҳамда фольклори ўртасида чегара қўйиб бўлмаслигини таъкидлаш жоиз.

Ўзбек тилида бақувватлик, забардастлик образлари сифатида дев, алп Рустам, Алпомиш, Фарҳод каби мифологик ва бадий персонажлар қўлланилади: Дев – зардуштийликда ёвузликнинг асосий тимсоли; туркий ва форс-тожик халқлари мифологиясида ёвузлик тимсоли. У даҳшатли, зулм ва зўрлик, қонхўрлик ёки ёвуз кучларнинг иродасига бўйсунувчи баҳайбат махлук сифатида намоён бўлади, «Гулнор пари», «Юнус пари», «Мисқол пари» каби дostonларда қаср, боғ ва ҳ.к. соҳибининг амрига итоат этиб, париларни кўриқлайди (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Кейинги ўриларда “ЎЗМЭ” тарзида берилади). Алп – ўзбек халқ дostonларида ғайритабий куч-қудрати, мардлиги, жасорати ва ақл-фаросати билан ажралиб турадиган қаҳрамон сифати (ЎЗМЭ). Алпомиш – шу номдаги ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonининг ўз ёри учун, ўз юрти учун курашган забардаст, бақувват “Юсуф талъатли, Рустам келбатли” қаҳрамони. Рустам – Ўрта Шарқ халқлари оғзаки ва ёзма адабиётидаги анъанавий образ; мардлик, паҳлавонлик ҳақидаги мифологик тушунча ва эпик идеалнинг рамзий ифодаси (ЎЗМЭ). Фарҳод – қадимги мифология ва фольклорда тоғ қаҳрамони сифатида тасвирланган; ривоятларда афсонавий кучлардан ҳам юқори қўйилган образ. Фарҳоднинг мукамал эпик образини Навоий яратган (ЎЗМЭ).

Мисолларга эътибор беринг: Кўз ўнгига кўк оти келди. У **девдай** бақувват эди (Э.Аъзам); - Амирзодамизга кўз тегмасин, **алплардай** зўр қомати бор– -деб қўйишарди (П.Қодиров); **Алпомишдай** келбатидан гапирмай, Ўн саккиз ёшга ҳам кириб ё кирмай...(М.Юсуф); Таъбир жоиз бўлса, бу ерда **Фарҳоддек** жасур, келбатли, тоғни талқон қиладиган йигитлар ишлайди (“Учқудук” газетаси).

Хунук қиёфа ялмоғиз, ажина, асроил каби мифологик образлар воситасида ифодалаб, кучли салбий муносабатни кўрсатади:

Бад ниятни минг бадиият билан ифодаласанг ҳам, худди гўзал либос кийган **ялмоғиз кампирдай** хунуклигича қолади (Д.Ражаб). **Ажинадек** қийшайиб тушган шу бир парча суратни деб беш минг сўмлик китобни нобуд қилди-я (Х.Тўхтабоев). Ўшанда у кўзимга **асроилдек** кўриниб, бўғибгина ўлдиргим келгани рост (Э.Аъзам). Асроил эталони, шунингдек, қийноққа солиш, жонини олишни ифодалаш учун ҳам қўлланади: - Сиз мисоли Асроилсиз, хоним, ҳар чошгоҳда жонимни олгани келасиз (М.М.Дўст).

Кўрқинчли овоз чиқариш ёки ютиб юбориш ҳаракатларининг образли ифодасига айланган аждарҳо, юҳо эталонлари ҳам мифологик илдизларга эга.

Аждар(хо) – турли халқлар оғзаки ижодида қанотли, оғзидан ўт пуркайдиган икки ва ундан ортиқ бошли афсонавий илон образи (ЎЗМЭ). Юхо – барча жониворларни аралаш еб, ютиб юборадиган афсонавий махлук (ЎТИЛ V. 98). Масалан: Қора кечаларнинг қора қўйнида Қора **аждар** каби пишқирган Аму (Ғ.Ғулом). Яхшиям, чекланган инсонда имкон, Барча истакка ҳам етавермас қўл. Йўқса, кўзи очлар **юҳодай** ишон, Ямлаб ютар эди дунёни буткул (Ж.Исмоилов).

Малика лексемаси аёл подшоҳ ёки подшоҳ оиласига мансуб аёл маъносини беради. Ўзбек фольклорида қаҳрамони гўзаллик, мардлик, вафодорлик хислатларини ўзида мужассамлаштирган “Маликаи Ҳуснобод” “Маликаи Хубон”, “Маликаи Жаҳон” каби эртақлар бўлиб, уларда, албатта, маликанинг хусни ва зукколиги тасвирланади. Қўйидаги мисолда гўзал аёл маликага ўхшатилади: Дунё яғонаси бўлган **маликадай** қамарсиймо ўзининг монанди йўк гўзаллиги, нодир ақлу фаросати ила тақдир томонидан шундай сийловга муносиб кўрилдими? (М.Али)

Ўзбек лингвомаданиятида ўлмаслик, оловда кўймаслик хусусиятларини ифодалаш учун самандардек ўхшатиши қўлланади. У мифологик персонажлардан яғона ирреал хусусиятни ифодаловчи ирреал эталондир: **Самандардек** қайта туғилдим?! Узун бўйли йиллар оралаб (У.Ҳамдам); Яхшиям боқийдир дилбар шеърят, **Самандар** мисоли ўлим билмас жон (А.Орипов). Самандар – афсонага кўра, гўё ўт ичида туғиладиган ва ўтда яшайдиган махлук (ЎТИЛ III. 434).

Жуда озғин инсон ёки сассиз ҳаракатни образли ифодалаш учун эса арвоҳдек эталони қўлланади: **Оч арвоҳдай** озғин ва новча бу одам тоғларнинг тошларигача кўриқларди (Н.Норқобилов). Арвоҳ – (арабча “руҳ” сўзининг кўплиги, руҳлар) диний тасаввурларга кўра, фақат одам тириклигида, ҳаётида у билан бўладиган, вафотидан кейин танидан чиқиб, абадий мавжуд бўладиган ғайримоддий асос (ЎТИЛ I.94) бўлиб, унинг луғат дефинициясида озғинликка боғлиқ нуқтани топиш мушкул туюлади. Аммо бунда ўхшатиш когнитив даражада кечиб, номоддийлик, енгиллик, демакки, том маънода кўримсизлик унга озғинлик билан қиёсланиш имкониятини берган. Худди шу хусусиятлар сассиз ҳаракат ифодасига айланиш имконини беради: У изимдан арвоҳдай сассиз-шарпасиз эргашиб келарди (Н.Эшонкул).

Ҳотам, Ҳотами той – Ямандаги Той қабиласи бошлиғи, машҳур лашкарбоши, шоир. Ўз саҳийлиги билан Арабистон ва Шарқ халқлари орасида шуҳрат қозонган. Шарқ, жумладан, ўзбек адабиётида саҳийлик образи сифатида Ҳотамтой антропоними қўлланади⁶: Эй, менинг жонкуяр, мард она халқим, Ҳотамдек саҳийсан, Ҳотамдек саҳий! (Н.Орзиқулов)

⁶ Худойберганаева Д., Анданиёзова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”. 2016. – Б. 126.

Алоҳида қайд этиш керакки, ўзбек тилидаги ўхшатиш эталонларидаги мифологик персонажлардан антропонимлар фақат ижобий коннотацияларга эга. Буни қадимги даврлардан бери инсонларнинг афсонавий қахрамонларни ғайритабиий куч эгаси сифатида тасаввур этишлари, ҳатто уларга сиғинишлари (масалан, юнон илоҳлари) ҳам кенг тарқалганлиги билан изоҳлаш мумкин. Эътиборлиси, эзгуликлар “инсон” (Рустам, Алпомиш, Фарҳод, Ҳотамтой)нинг; ёмонлик эса кўпроқ “инсон эмас”(жин, аждарҳо, Яъжуж-маъжуж, шайтон, ялмоғиз, алвасти, юҳо, азроил ёки ит)нинг машғулоти эканлиги ўзбек миллатининг дунёқарашининг яна бир ўзига хос хусусияти сифатида кўзга ташланади.

Ўзбек тилида сира топилмайдиган, ёки ғоят кам учрайдиган нарсанинг образли ифодаси бўлган анқонинг уруғи ўхшатиш эталонини мифологик персонажлар сирасига киритиш мумкин. Зеро, анқо – оти бор, ўзи йўқ афсонавий қуш. Гўё Қоф тоғида қушларнинг подшоҳи бўлиб яшар эмиш (ЎТИЛ I. 89). У инсонлар кўзига кўринмайди, қаноти, пати олтин, кумуш ва б.дан деб таърифланади. Халқимиз орасида а. бахт, толе, давлат қуши, кимга сояси тушса, ўша бахтли бўлади деган фикр мавжуд. Такчил, камёб нарсалар ҳақидаги "анқонинг уруғи" деган ибора шундан олинган⁷. Масалан: Бироқ онаси на ул-бул еб олгани, на оёғининг увишиғини ёзгани чиқарди. Худди сал чалғиса, ўша **анқонинг уруғидек** одам келадию кетиб қоладигандек хавотирланарди (Н.Жўраев).

Ўзбек лингвомаданиятида бировнинг ортидан эргашишни, изғишни ифодаловчи образ сифатида Алаканинг итидек ўхшатиши турғунлашган. Масалан: Ҳаётингиз ҳам чиройли кўриниш олиб бошлайди. Олдинги чиройлисига **алаканинг итидек** чопган пайтингиздагидан яхши бўлади (Б.Аҳмедов). Ушбу ўхшатишнинг моҳиятини англаб этиш учун ўзбек адабиёти ёрдам беради. Алаканинг ити, аслида, “Ҳулағунинг ити” бўлиб, бу ҳақида Мирмуҳсин ўзининг “Мамлуклар” ҳикоясида шундай дейди: “Ҳулағунинг итидек” деган мақол ўзбеклар ичида тарқалган, бунга сабаб Чингизнинг саркардаси Ҳулагу нўён аслида сакбон бўлгани, ўз итига ҳар куни бир қўй сўйиб, едиришини одамлар биларди...”

Кўринадики, ўхшатишларда қўлланган образларни идентификация қилиш ва уларни адекват интерпретация қилиш учун лингвомаданий компетенция эгаси бўлмоқ лозим. Юқорида таҳлил этилган ўхшатишларда қўлланган образлар таҳлили эса ушбу компетенция шаклланиши учун мифологик, диний ва фольклор материаллари билан танишлик тақозо этилишини исботлайди.

⁷ <https://hadis.uz/term/37>

Адабиётлар:

1. Сабитова З.К. Лингвокультурология. – Москва. 2013. – 528 с.
2. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993. – 656 с.
3. Воробьев В. В. Лингвокультурология. – Москва. 2006. – С.45
4. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.32.
5. Худойберганова Д., Анданиёзова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”. 2016. – Б. 126.
6. <https://hadis.uz/term/37>

CONCEPT AND ITS LINGUISTIC INTERPRETATION

Hoshimov Ganijon Mirzaakhmedovich

Andijan State University, Doctor of Philology, Professor

Mamurov Sanjarbek Abdunabievich

Fergana State University, Linguistics (English), 2nd level

Mirzaeva Dilshoda Ikromjonovna

Fergana State University, Doctor of Philosophy in Philology

mamrovvs@mail.ru

Abstract: Concept is one of the most important topics of modern linguistics. This term is one of the important categories of cognitive linguistics. This article presents some considerations about the role of the concept in linguistics.

Key words: anthropocentric approach, independent paradigm, concept, cognitive term, linguoculturology, neutral attitude.

At the moment, the anthropocentric approach to language embodies the latest achievements of the field of linguistics and is increasingly strengthening its status as an independent paradigm. According to many researchers, cognitive linguistics and linguocultural science are the leading directions of the anthropocentric paradigm.

One of the main categories common to both fields, an important object of study, is the concept. This term was first used in 1928 by the Russian linguist Askoldov in his article. He commented on the concept that "it is a unit that reflects the process of thinking about concepts of one type or another"⁴. However, even in the 70s of the 20th century, this term was considered a problem that required a deep explanation. The introduction of the concept into the use of linguists in the 80s is connected with the works of English scientists Cheif, R. Jackendoff, and Lakoff. It is in those texts that the terms conceptualization and conceptual essence are found. Many scientists express different opinions on the dictionary meaning of the concept. According to him, there are those who consider it as a logical category, a concept of practical philosophy, a basic unit of national mentality. "concept" is derived from the Latin word "conceptus" and means "concept". In the dictionary of cognitive terms, the term concept is defined as follows: a concept is a concept that allows the mental and psychic resources of our thinking to be reflected in human knowledge and skills. The term "concept" is used in modern linguistics to express the mental image of a lexical unit. In everyday scientific work, the term concept is used as a synonym for "concept".

Linguistics, a new branch of linguistics, studies the relationship between language and culture. Concept is its central concept. Professor N. Mahmudov writes about the study of the concept in linguistic culture (linguistic culture): "In linguistic

research, a great deal of attention is paid to the problems of expression of the concept, when you familiarize yourself with the Internet materials, for example, you can see that this direction is extremely widespread in linguistics in Russia. difficult

Even in recent years, a very large part of candidate's theses is dedicated to the linguistic and cultural research of the concept in one or another language. Although this term is considered an important category for both cognitive linguistics and linguocultural studies, its interpretation in these disciplines is different. While this term was used in linguistics as a synonym for the word concept until the 80s of the last century, today it can be seen that its interpretation has expanded compared to the term concept.

The notion of concept has been widely studied by almost all eminent linguists, all of whom have different individual interpretations of the concept. The opinion of Y.A. Stepanov and S.A. Askoldov is very close to each other, they interpret the concept as a "logical category". That is, according to Askoldov, "a concept is a form of one of the elements of culture formed in a person's thinking, in the same way culture enters the mental world of a person."

Another Russian linguist, V. A. Maslova, looks at the meaning of the concept as a multifaceted structure, and shows that it includes the excitement, evaluation, national image and connotation not only thought by the speakers of the language, but also felt by them, and emphasizes that the structure of the concept has a special nuance. He stated in his opinion that value is at the center of the concept, that it serves the study of culture, and that the principle of value is the basis of culture. In addition, each concept emphasizes that, in addition to its complex mental harmony, its semantic structure, it also includes human or general, national-cultural, social, language-related, and personal individual components.

O'.Q. Yusupov defines the concept as "a complex of knowledge in our mind about something or an event in the external or internal world, images about it and positive, negative, neutral attitudes towards it, i.e. evaluations". When distinguishing concept from concept, the scientist gives the following opinion: "concept and concept can be compared to an ayeberg." If a concept is an iceberg, the tip of it is a concept."

As a result of the study of the above points, it can be concluded that concept understanding is a process that is individual for each person and national for society, and takes place in the connection of mind, language and psyche. A topic that requires further study in linguistics. As a result of studying the opinions of various scholars in cognitive linguistics. It turns out that no unequivocal conclusion has been reached, and it appears to be a topic of linguistics that requires further study.

References:

1. Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны//Вестник Воронежского государственного университета. – Воронеж, 2001.90-с
2. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
3. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon,2012/-B.212-219.
4. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С.267-280
5. Ray Jakendoff, 1989: “What is a concept, that a person may grasp it”. Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham.
6. George Lakoff: 1980: Metapfors We Live BY
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab// O'zbek tili va adabiyotiT.:2012, 3-16-B
8. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.

АВЛОДЛАРАРО ВОРИСИЙЛИКНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Абдукаримова Гулчехра Баратовна

Тошкент давлат транспорт университети

“Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси,

тел: +998 97 598 64 62

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотлар ва унинг жамият ҳаётида туб бурилиш даврининг ижтимоий-фалсафий моҳияти, ижтимоий аҳамияти ва Авлодлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш ҳозирги кунда кўплаб маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг диққат марказида турибди.

Калит сўзлар: Герантология, Авлодлараро, Ворисийлик, Таълим ва тарбия, ёш авлод, Ёшлар.

КИРИШ. Глобаллашув шароитида ёшларнинг замонавий маданий қиёфаси ўрганилиши жамият ҳаётининг барча соҳалари билан боғлиқ ҳолда амалга оширилмоқда. Ёшларнинг замонавий маданий қиёфасини шакллантиришда умуминсоний қадриятларнинг ўрни, бугунги кундаги жамият тараққиётидаги роли бевосита аҳамиятлидир. Ёшларнинг умуминсоний қадриятларга бўлган муносабатида толерантликнинг намоён бўлиши ёшлар маънавий қиёфаси билан боғлиқдир. Шунга асосланиб, вақт ўтиши билан қадриятлар тизими жамиятда муҳим роль ўйнашини ёшларнинг маънавий дунёсига таъсир этишида кўришимиз мумкин. Ёш авлоднинг ҳар бир вакили ўз мамлакатини ривожлантириш ва инсониятга фойда келтиришни мақсад сифатида белгилаб, фаолиятини ташкил этиши керак. Ҳар бир миллатнинг келажаги халқнинг интеллектуал салоҳияти мамлакатнинг қайси йўлдан ривожланишига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Шахснинг ижтимоий фаоллик даражаси, маданий юксалишини таъминловчи муҳим омил таълим ва тарбия ҳисобланади.

Авлодлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш ҳозирги кунда кўплаб маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг диққат марказида турибди. Қарилик ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида оддийлиги, табиийлиги туфайли узоқ вақт мобайнида илмий таҳлил объекти тарзида ўрганилмаган. XIX аср охирида швейцариялик олим А.Сабатье илгари сурган ёндашув “қарилик”, “қариш”, “ўлим” ва “ўлиш” тушунчаларининг илмий

талқинига асос солди¹. У ўз илмий тадқиқот ва маърузаларида қарилик ва қариш муаммоларига нисбатан табиий-илмий ёндашувларни бирлаштирувчи нуқтаи назарни илк бор таърифлаб берди. У қариликни организм фаолиятининг ўлимга олиб боровчи таназул даври сифатида талқин қилди. Бугун тадқиқотларнинг аксарияти ёш ва ўрта авлоднинг ижтимоий ўзаро таъсирини ўрганишга қаратилган бўлиб, ёшлар ва кексалар ўртасидаги муносабатларни шакллантиришни тақазо этмоқда.

Авлодлараро ворисийликнинг назарий-методологик асосларини авлодлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар ташкил этади. М.Б.Готов фикрича, “Авлод – бу аниқ тарихий даврда шаклланган ва ёш фарқи асосида фаолият юргизиш учун ижтимоий шарт-шароитлар билан чегараланган инсонларнинг объектив равишда такомиллашадиган социал-демографик ва маданий-тарихий бирлиги саналади”². Бизнингча, авлод тушунчасининг бошқа маънолари мавжуд бўлиб, “авлод” ва “ёш” тушунчаларини аралаштиришга асосланган ёки тарихий маънога нисбатан ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, унинг ўзига хос жиҳатларини ифодалайди.

Этимологик жиҳатдан олиб қараганда, «авлод» тушунчаси ўзида «gan» («насл қолдириш»)³ ва лотин тилидаги «generation» («яратилган», «мева») сўзи билан ҳамда социологияга оид рус тилидаги адабиётларда «колени» («авлод тармоғи», «шажаранинг босқичи»)⁴ маъноларини англатади. Авлодлараро ворисийлик-аждодлар билан авлодлар ўртасидаги қаришдошлик алоқалари, муносабат анъана ва кадриятларнинг давом этишини, наслий маънавий-ахлоқий яқинликни англатади.

Авлодлараро ворисийлик умумий маънода жамият ҳаётининг ижтимоий-иқтисодий маънавий маданиятнинг авлоддан-авлодга ўтказилишини англатади ва шахснинг ривожланиш қобилятида намоён бўлади. Шу маънода авлодлараро ворисийлик жамиятнинг тараққиётининг асосий мезонлари ва зарурий шарти ҳисобланади. Бизнингча, инсоният азалдан авлоддан-авлодга ўтиб келаётган ҳаётдан мақсад – юрт бирлигини, ер яхлитлигини ва халқнинг ҳамжиҳатлигини таъминлашдан, шунингдек бой миллий маънавият хазиналарини асраб-авайлаш ва кўпайтиришга интилган. Улар бу вазифани ҳаётга татбиқ этишда ҳамиша етакчи бўлиб келган, олижаноблик, саховатпешалик уларни асосий маънавий-ахлоқий фазилатлари бўлган. Герантология авлодлараро ворисийликнинг ижтимоий-фалсафий ва тарихий тушунчалардан бири бўлиб, ижтимоий ва маданий кадриятларни ифода этади.

¹ А.Сабатье А. Жизнь франциска ассизскаго. – Москва. 1996. – 365 с.

² Готов М.Б. Поколение как категория социологии // Социологические исследования. – Москва, 2004. № 10. – С. 42-48.

³ Социологический энциклопедический словарь. – Москва, Издательство НОРМА, 2000. – С. 488.

⁴ Калиновский, Ю.И. Философия образовательной политики / Ю.И. Калиновский. – Москва, 2000. – С. 540.

Мадомики, миллий- маънавий мерос, диний анъаналар, урф-одатларнинг қадрланиши, ёш авлодга етказилиши ва ривожланиши маънавий маданият соҳасидаги авлодлар давомийлигини ўзда ифода этади. Ҳозирги кунда герантология ижтимоий-фалсафий тадқиқот объекти қариллик ва қариш жараёнларининг ижтимоий-фалсафий, назарий-методологик жиҳатдан тадқиқ этмоқда. Чунки, ҳар бир авлод олдинги авлодга нисбатан ўзгарган ва ўзгарувчан шароитларда меросхўрликни қўллади. Бинобарин, авлодлар узлуксизлиги ўзининг атрибути сифатида тадқиқот объектини ҳам ўз ичига олади.

Бизнинг фикримизча, ижтимоий-маданий муҳит кексалар ва ёшлар ўртасидаги ижтимоий ўзаро муносабатларнинг жамиятга таъсирини ўрганишга имкон берадиган ва бундай ўзаро таъсир маданиятининг узлуксизлиги билан боғлиқлигини ифода этадиган ижтимоий-маданий таҳлилни ўтказиш керак. Ушбу муаммони тадқиқ этишнинг истиқболли йўналишлари мамлакатимизда кексалар ва ёшлар ўртасидаги ижтимоий ўзаро муносабатларни уйғунлаштиришга ёрдам берадиган назарий ва амалий тавсияларни ишлаб чиқиш лозим. Мадомики шундай экан, герантологиянинг илмий-фалсафий мезонларини, кексалар ва ёшлар ўртасидаги ижтимоий ўзаро муносабатларнинг жамият ривожига таъсирининг хусусиятларини аниқлаш, ижтимоий-маданий ёндошув асосида амалга оширилади. Бу эса тарихий ижтимоий-маданий контекстни таҳлил қилиш имконини яратади⁵.

Инсоният яратилгандан буён жамиятда бирорта авлод ўзининг авлодларидан ажралмаган ва ажралиб туролмайди. Барча авлодлар нафақат ўзаро боғлиқликда, балки ўзаро таъсир жараёнида бўлади. Чунки, бир авлод маълум бир тарзда, узининг маънавий-диний қадриятлари, урф одатлари келажак авлодга мерос қолдиради. Шундай экан ёшлар ва кекса авлодлар ўртасидаги ижтимоий ўзаро муносабатлар масаласи абадий муаммолардан бири бўлиб, бу муаммо нафақат биологик, балки ижтимоий-маданийдир. Унинг аҳамияти, теранлиги, кўп қирралилиги ва қарама-қаршилиги жиҳатидан инсониятнинг мавжудлиги ва унинг истиқболини белгилаб берувчи омиллар ҳисобланади. Хусусан, “Авлодлараро муносабатлардаги ворисийлик ёки зиддиятли ихтилофларни социологик тадқиқ қилиш бугунги жамиятнинг тарихий ва ижтимоий ривожланишидаги ўзига хос жиҳатларни маълум маънода англашга ёрдам беради. Авлодлар ворисийлиги – ижтимоий ҳаётда муҳим аҳамиятга эга бўлган масала бўлиб, биз унда авлодлар ўртасида юзага келиши мумкин бўлган

⁵ Раматов, Жуманиёз Султонович, Ҳасанов, Миршод Нўъмонович, & Валиев, Лочин Азаматович (2022).

Янги ўзбекистон ёшлари ва уларнинг ижтимоий ҳимояси. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1338-1344.

келишмовчиликни кузатмаймиз. Бироқ икки авлод ўртасида зиддиятларнинг вужудга келиши табиий жараён”.

Бизнингча, авлодлар ўртасидаги ижтимоий ўзаро таъсир - бу ёшларнинг ҳам, кексаларнинг ҳам эҳтиёжлари, қизиқишлари, қадрият йўналишларини тўплаш ва мувофиқлаштиришнинг мақбул моделлари, шакллари ва усулларини доимий равишда излаш демакдир. Шу маънода герантология илмий-фалсафий таълимотлардан бири бўлиб, узининг тадқиқот объекти сифатида намоён бўлади.

REFERENCES

1. А.Сабатье А. Жизнь франциска ассизскаго. – Москва. 1996. – 365 с.
2. Глотов М.Б. Поколение как категория социологии // Социологические исследования. – Москва, 2004. № 10. – С. 42-48.
3. Социологический энциклопедический словарь. – Москва, Издательство НОРМА, 2000. – С. 488.
4. Калиновский, Ю.И. Философия образовательной политики / Ю.И. Калиновский. – Москва, 2000. – С. 540.
5. Раматов, Жуманиёз Султонович, Ҳасанов, Миршод Нўъмонович, & Валиев, Лочин Азаматович (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИЖТИМОЙИ ҲИМОЯСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1338-1344.
6. Абдукаримова Г. Б. Научно-философский анализ современного этапа глобализации // Наука, образование и культура. – 2019. – №. 4 (38). – С. 36-37.
7. Файзулла Абдуллаевич Кушаков (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ ТЕХНИКИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 428-432.
8. Журабоев, Носир Юсупович, Ҳасанов, Миршод Нўъмонович ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙИ-ИҚТИСОДИЙ СОҲА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ // *ORIENSS*. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-izhtimoiy-i-tisodiy-so-a-rivozhi-islo-ot-va-isti-bol> (дата обращения: 10.10.2022).
9. Умарова Р. Ш., Абдукаримова Г. Б., Тухтабоев Э. А. Вклад Абу Райхана Беруни в развитие философии Ближнего, Среднего Востока и мировой науки // Проблемы науки. – 2019. – №. 12 (48). – С. 65-66.
10. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
11. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 925-930.
12. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 984-988.
13. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 973-979.
14. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Валиев, Л. А. (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗЦОВ ПЕРОКСИДА КАЛЬЦИЯ, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОСНОВЕ 30%-НОГО РАСТВОРА НИТРАТА КАЛЬЦИЯ-ОТХОДА ОБОГАЩЕНИЯ ФОСФОРИТЕ

Холов Илхом Абдукаюмович

Ташкентский государственный технический университет,

Республика Узбекистан, г. Ташкент

E-mail:uzxolov88@mail.ru

Искендеров Амед Макседаевич

Филиал “МЭИ” в городе Ташкенте,

Эркаев Ақтам Улашевич

Ташкентский химико-технологический институт,

Республика Узбекистан, г. Ташкент

Турдикулов Толмас Нуруллаевич

ООО «GlobalWaterEngineering»,

Республика Узбекистан, г. Ташкент

Бобокулова Махзуна Шайдулло кизи

магистр химической технологии Термезского

инженерно-технологического института,

Республика Узбекистан, г. Термез

Аннотация. Целью исследований являлось проведение физико-химических анализов образцов пероксида кальция, синтезированного на основе 30%-ного раствора нитрата кальция, образующегося при азотно-кислотном обогащении низкосортных фосфоритов. Энергодисперсионным, рентгенофазавый микроскопический анализом определены элементный и минералогический состав и кристаллическую структуру образцов пероксидов кальция.

Ключевая слова: пероксида кальция, пероксида водорода, нитрата кальция, скорость, аммиак, фосфорит, раствор, температура, плотность.

Морфологические исследования поверхности образцов проводились с помощью сканирующего электронного микроскопа SEM-EVO MA 10 (Zeiss, Germany) следующим образом. Для пробоподготовки на круглый держатель из металлического сплава, поверх которого приклеена алюминиевая фольга с двухсторонней клейкой поверхностью наносились порошки исследуемого образца в необходимом количестве. Данный процесс пробоподготовки применялся для определения размеров микрочастиц, а также исследование микроструктуры отдельных частиц. Измерение проводились в масштабах

200мкм-20мкм. В ходе измерения подавалось ускоряющее напряжение (EHT-ExtraHighTension) 20.00кВ, рабочее расстояние (WD-workingdistance) равнялось 8,5мм. Изображение было получено в различных масштабах с помощью программного обеспечения SmartSEM (рис.).





Рис. (б) СЭМ-изображение порошка CaO₂

Была проведена энергодисперсионная рентгеновская спектроскопия на локальном участке (energy-dispersive X-rayspectroscopy (EDS)), в котором определялся с элементный состав с помощью энергодисперсионного элементного анализаторам марки - OxfordInstrument– AztecEnergyAdvanced

X-act SDD. Для этого на отдельный держатель, поверх которого клеилась алюминиевая фольга с двухсторонней клейкой поверхностью клеился образец, в форме спрессованных таблеток диаметром 0,7 см и толщиной до 2 мм. При получении данных об элементном составе были представлены электронные фотографии с выделенными локальными участками, таблица состава, а также графический спектр.

Как показали энергодисперсионные спектры, в промытых образцах содержание кальция и кислорода составляет более 50,1;43,96% соответственно, а содержание углерода не превышает 5,93%.

Микрофотографии образцов показывают, что порошок CaO_2 (образец №9 таб.1), синтезированный из раствора хлорида кальция в щелочной среде, состоит из микрочастиц аморфной фазы, имеющих произвольную форму и размеры от нескольких десятков до нескольких сотен микрометров. На поверхности данных агрегатов наблюдаются массивы мелкодисперсных бесформенных образований размером менее 1 мк.

Микроснимки образца CaO_2 , синтезированного из раствора нитрата кальция в аммиачной среде, демонстрируют, что порошок с содержанием 93% CaO_2 имеет кристаллическую структуру в виде агрегатов частиц.

Кроме того, из разбавленных растворов солей кальция, аммиака и пероксида водорода при определенных условиях можно получать нанокристаллический CaO_2 , который используется для очистки почв и грунтовых вод от толуола и других органических веществ.

У наноразмерного порошка CaO_2 возрастает отношение поверхности к объему, что позволяет увеличить скорость реакции, а значит, реакционную способность при использовании такого вещества.

Измерения фазовых характеристик исследуемых порошков, проводились на порошковом рентгеновском дифрактометре «PanalyticalEmpyrean». Данный прибор является универсальным рентгеновским дифрактометром общего назначения с вертикальным гониометром, и является системой для проведения широкого спектра анализов в области рентгеновской дифрактометрии. Применение высокоточного вертикального гониометра, позволяет проводить анализ различных образцов, таких как порошки, тонкие пленки, а также минералы, полупроводниковые соединения и металлы. Весь контроль за работой оборудования осуществляется посредством компьютера по программе DataCollector, анализ рентгенограмм проводился по программе HighScore с базой данных PDF 2013. Рентгенофазовый анализ исследуемых порошков выполнялся на рентгеновском дифрактометре «PanalyticalEmpyrean», оснащенной Cu трубкой ($K_{\alpha 1} = 1.5406 \text{ \AA}$). Измерения проводились при

комнатной температуре в интервале углов 2θ , в диапазоне от 5° до 90° в режиме пошагового сканирования с шагом 0.013 градуса и временем накопления сигнала в точке.

Заключение

Таким образом, образцы пероксида кальция, полученные из раствора хлорида кальция в щелочной среде, состоят из микрочастиц аморфной фазы, на поверхности которых наблюдаются массивы мелкодисперсных бесформенных образований размером менее 1 мкм.

Образцы пероксида кальция, полученные из раствора нитрата кальция в аммиачной среде, показывают наличие 93% продукта, имеющего кристаллическую структуру в виде агломератов частиц.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вольнов, И.И. Перекиси, надперекиси и озониды щелочных и щелочноземельных металлов. М.: Наука, 1964. 143 с.
2. Вольнов И.И. Перекисные соединения щелочноземельных металлов. М.: Наука, 1983. 135 с.
3. Пат. 2259344 РФ, МПК С 06 В 33/12. Воспламенительный состав для твердых источников кислорода / Копытов Ю.Ф., Ульянова М.А.; ФГУП «ТамбовНИХИ». 2005.
4. Пат. 2056341 РФ, МПК С 01 В 13/02. Пиротехнический состав для получения кислорода / Синельников С.М., Разумова А.П., Сасновская В.Д., Ключарев В.В.; ИНХП РАН. 1996.
5. Пат. 2052283 РФ, МПК В 01 J 7 /00, С 01 В 13/02. Пирохимический генератор кислорода / Сасновская В.Д., Разумова А.П., Алешин В.В., Ключарев В.В., Синельников С.М., Логунов А.Т., Смирнов И.А., Шибков В.Г.; ИНХП РАН. 1996.
6. Pat. 8283004 JP, МПК А 62 D 9/00, С 01 В 13/02. Oxygen generator/ Nishii Shigeki, Asai Yukio; Daicel Chem. 1996.
7. Pat. 2008137880 JP, МПК С 06 В 33/00, С 06 В 43/00. Gunpowdercomposition for launching shooting-up fireworks / Fukui H., Hatanaka S.; Rokkusu Japan KK., Kawai Sekkai KK. 2008.
8. Гладышев Н.Ф., Гладышева Т.В, Лемешева Д.Г. и др. Пероксидные соединения кальция. Синтез. Свойства. Применение // 2013, М.: Издательский дом «Спектр».
9. Pat. 101275095 CN, МПК С 10 L 9/10. Coal burning additive /Xuelong Xu. 2008.
10. Pat. 4755493 US, МПК С 04 В 35/00, С 04 В 35/465. Ceramic composition for dielectric ceramic bodies / Takeuchi Y., Masumori H.; NGK Insulators Ltd. 1988.

HIJOMA VA GIRUDOTERAPIYA MUOLAJASI ORQALI DAVOLASH*Tashov Umidjon Qobil og'li**Buxoro viloyati Buxoro tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi**Buxoro Davlat tibbiyot instituti**4- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Girudoterapiya (lot. hirūdō — «zuluk» va qad. yun. θεραπεία — «davolash») — ma'lum kasalliklarni dorivor zuluklar (*Hirudo medicinalis*) yordamida davolash usuli. Fizioterapevtik muolaja, muqobil tibbiyotga oid sanaladi. Bunday zuluklar ushbu kichik sinf chuvchalchanglariga oid yagona tur hisoblanadi, qolganlari shifobaxsh ta'sir ko'rsatmaydi. Ushbu maqolada shu va girudoterapiya muolajasi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: hijoma, qon olish, girudoterapiya, tashxis, davolash, metod.

KIRISH

Arab tilida "hijoma" so'zi «al-hajm» o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, u «so'rib olish» degan ma'noni anglatadi. Hijoma, ya'ni qon oldirish qadimdan kasalliklarni davolashda asosiy vositalardan biri hisoblangan. Qon inson organizmining eng muhim elementlaridan biri. U to'qimalarga kislorod yetkazishda va moddalar almashinuvda faol ishtirok etadi. Biroq har kim ham organizmdagi qon bir joyda turib qolishini, vena, arteriya tomirlarida qonning ma'lum bir qismigina oqishini bilmaydi. Kishi harakatsiz holatida qon «қарий boshlaydi», o'zining sifatini yo'qotadi, qolaversa, noto'g'ri ovqatlanish, havoning ifloslanishi, stresslar natijasida barcha yomon moddalarni o'ziga shimib oladi. Hijoma ana shu «chiqit»lardan qutulishda yordam beradi. Qon oldirish quyidagi xastaliklarda tavsiya etiladi: prostatit, bo'yin va yelkadagi og'riqlar, jinsiy zaiflik, qon bosimi oshishi, immunitet susayishi, bavoil, bosh og'rig'i, bepustlik, sil, yurak xastaliklari, qandli diabet, kamqonlik, revmatizm, ko'z nuri xiralashishi, glaukoma, gaymorit va boshqalar. Qon oldirilgach, organizm yangi qon ishlab chiqaradi. Bu esa kishi salomatligini yaxshilab, ko'pgina kasalliklarni davolashra ko'mak beradi. Qon olishning bir necha usullari bor. Masalan, qortiq qo'yish, nashtar urish, igna (shprints) yordamida olish, zuluk solish va hokazo. Bular ichida eng foydalisi zuluk solishdir. Zulukni qariyb uch ming yildan beri tabiblar turli kasalliklarga davolash sifatida ishlatib kelishmoqda. Abu Ali ibn Sino ham zuluk bilan davolashra alohida e'tibor qilib, o'zining «Tib qonunlari» kitobida zuluk soldirishning afzalliklari, tartib-qoidalari haqida batafsil ma'lumot bergan. Zulukning 270 ta tishi bor va u tishlari ostidagi girudin moddasini inson tanasiga yuborish orqali qonni suyultiradi, kislorod bilan to'yintiradi, yurakning kislorodga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Natijada, tanadagi limfa bezlari quvvati oshadi va immunitet kuchayadi. Girudoterapiya tarixi

ikki ming yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga oladi. Qadimgi Yunoniston, Hindiston, Misr, Xitoyda zuluklar bilan davolash mashhur bo'lgan. Afsonaga ko'ra, bepushtlikdan aziyat chekkan qirolicha Kleopatra zuluklarning ta'siri tufayli Yuliy Sezardan homilador bo'la olgan. Shundan so'ng, hatto Misr fir'avnlari qabri devorlarida zuluklar tasvirlari paydo bo'la boshlagan.

O'rta asrlarda girudoterapiya semizlikka qarshi yordam berishi aniqlangan. O'sha vaqtlarda ko'p mamlakatlarda ortiqcha vazn muammosi deyarli eng muhim muammolardan biri bo'lgan. Qazish ishlari davomida eski kutubxonalar materiallarida topilgan qo'lyozmalarda qayd etilishicha, shifokorlar zuluklar bilan davolash natijasida ajoyib natijalarga erishishgan: odamlar 10 kg gacha vazn tashlashgan va salomatliklari yaxshilanganini ta'kidlashgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zuluklar yordamida yurak muammolari, bosh aylanishi, nafas qisilishi, bepushtlik davolangan. Girudoterapiya shu qadar mashhur ediki, Uyg'onish davri ustalari, masalan, Bottichelli, hatto o'z san'at asarlarida buni aks ettirishgan.

Girudoterapiya muolajasi XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida keng mashhurlikka erishgan. Bu usul deyarli barcha kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Ushbu davrda zuluklar sanoat miqyosida yetishtirilib, mamlakatlar o'rtasida eksport qilingan ham. Hatto Pirogov girudoterapiyani davolashning eng kuchli usuli deb hisoblagan. Zuluklar barcha dorixonalarda sotilgan.

Biroq, bu vaqtgacha shifokorlar zulukning asosiy «kuchi» — qon chiqarish ta'siri deya hisoblashgan. Va faqat XX asrning 90-yillarida olimlar nafaqat qon chiqarish terapevtik ta'sir berishini isbotladilar. Asosiy shifobaxsh omil — bu zuluk so'lagi, unda 15 dan ortiq noyob xususiyatlarga ega bioaktiv moddalar mavjud. Qizig'i shundaki, hozirgacha olimlar bunday moddani sintez qila olishmagan, garchi Angliya, Isroil va AQShda tadqiqotlar olib borish va uni yaratish ustida yuzlab million dollar mablag' ajratilgan bo'lsa ham. Genetik muhandislik texnologiyalari ham yordam bermagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Dunyoning barcha mamlakatlarida girudoterapiya ko'plab kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi va ushbu usulning asosiy ustunligi asoratlarsiz umumiy tiklanishdir.

Dorivor zulukning shifobaxsh ta'siri uning so'lagiga asoslangan — unda bioaktiv moddalar mavjud. Asosiy tarkibiy qism — bu girudin, u qon ivishini oldini oladi va qon tromblarini rezorbsiya jarayonini rag'batlantiradi. Girudin va so'lakning boshqa bioaktiv tarkibiy qismlari bakteritsid (patogen mikroblarni o'ldiradi), shuningdek bakteriostatik (bakteriyalar ko'payishi va rivojlanishini oldini oladi)

ta'siriga ega. Ushbu moddani aniqlash davomida olib borilgan izlanishlar tibbiyotda antikoagulyantlarni qo'llay boshlash amaliyotiga asos solgan ^[manba].

Zuluklarning so'lagi tarkibida gialuronidaza fermenti mavjud bo'lib, u faol moddalarni organizmning to'qimalariga chuqur kirib borishiga imkon beradi — 10 sm`gacha. Shuningdek, bu ferment biriktiruvchi to'qimalarni parchalaydi, shu sababli chandiqlarning so'rilib ketishini kuchaytiradi.

Ushbu terapiya usuli foydalanish uchun ko'plab ko'rsatmalarga ega, ular orasida quyidagi kasalliklar mavjud:

- Yurak-tomir tizimi kasalliklari;
- Oshqozon-ichak trakti kasalliklari;
- O'pka kasalliklari;
- Qalqonsimon bez kasalliklari;
- Siydik-tanosil tizimi kasalliklari;
- Teri kasalliklari (shuningdek kosmetik nuqsonlar);
- Markaziy va periferik asab tizimi kasalliklari;
- Revmatologik kasalliklar;
- LOR kasalliklar;
- Mushak-skelet tizimi kasalliklari;
- Infektsion kasalliklar;
- Turli jarohatlar;
- Ko'z kasalliklari.

Bu holatda ayrim qarshi ko'rsatmalar ham uchrashi mumkin.

Muolaja quyidagi holatlarda o'tkazilishi mutlaq qarshi ko'rsatiladi:

- Trombotsitopeniya;
- Onkologiya;
- Gemofiliya;
- Uzoq muddatli va og'ir qon ketishlar;
- Qon ivishining buzilishi;
- Zuluklarning so'lagi tarkibiy qismlariga nisbatan intolerantlik.

Nisbiy qarshi ko'rsatmalar (bu holda muolaja o'tkazilishi mumkin, ammo asoratlar xavfi yuqori bo'ladi):

- Gipotoniya;
- Ayollarda anemiya va hayz ko'rish;
- 10 yoshgacha bolalar;
- Ba'zi ruhiy kasalliklar;
- Surunkali kasalliklarning xuruj olishi;
- Homiladorlik;
- Sabablari hali aniq bo'lmagan kasalliklar.

Girudoterapiyaning mohiyati tanaga dorivor zuluklarni qo'yishdan iborat. Bitta muolaja davomiyligi 40-60 daqiqani tashkil etadi, bunda o'rtacha 6-10 ta zuluk ishlatiladi. Ularning har biri 5 ml'dan 15 ml'gacha qon so'rib olishi mumkin. O'rtacha davolanish kursi 7-14 kunlik tanaffus bilan 10 seansdan iborat bo'ladi.

O'tkazilish tartibi:

- Teri spirt bilan artiladi. Boshqa antiseptik ishlatilmaydi, chunki zuluklar hidga juda sezgir bo'lishadi;
- Zuluklarni joylashtiriladi. Ularning tishlov chuqurligi sayoz — 2 mm gacha. So'lak tarkibida og'riq qoldiruvchi ferment mavjud, shuning uchun bunda deyarli noqulaylik sezilmaydi;
- Muolaja paytida zuluklar asta-sekin bemorning qoniga so'lak tarkibidagi bioaktiv moddalarni ajrata boshlaydi. Ta'sir zonasida ushbu moddalarning 70-80 foizigacha kasal a'zoga «kirib boradi». Shundan so'ng zuluk qonni so'rib olishni boshlaydi;
- Jarayondan so'ng, zuluk olinib, tishlovi joyiga steril salfetkaler qo'llaniladi.

Aksariyat hollarda zuluklar yetarlicha qon so'rgach, o'zlari tushib ketgunlaricha qo'yiladi. Zulukni muddatidan oldin tanadan olish uchun uning oldingi so'rgichiga spirt yoki yodga yengil botirilgan paxta qo'yish yetarli bo'ladi, shunda ular darhol tushib ketadi. Shuningdek bu maqsadda uning ustiga tuz sepish, sirka kislotasi yoki boshqa o'tkir hidli moddani unga yaqin keltirish mumkin. Agar zuluk qon so'rishni to'xtatmasa, uning old so'rgichini skalpel yordamida ko'tarib, uning ostiga havo kiritish kerak. Zulukni kesib tashlash befoyda, bunda u qon so'rishni davom ettiraveradi. Qo'llanilgach, zuluklar odatda yo'q qilinadi, ularni qayta ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

Zuluk bilan davolashning foydalari:

- Tromb hosil bo'lishi xavfi kamayishi;
- To'qimalarda va organlarda qon aylanishini tiklanishi;
- Bakteritsid va yallig'lanishga qarshi ta'sir;
- To'qimalarni ozuqa moddalari va kislrorod bilan yaxshiroq ta'minlanishini;
- Tishlash joyida va butun tanaga og'riq qoldiruvchi ta'siri;
- Modda almashinuvini me'yorlashishi.

Zuluklar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan zarar ularning oziqlanishi va o'ziga xos tuzilishiga bog'liq, shuning uchun quyidagi muammolar ehtimoli mavjud:

- Faol moddalar terining ta'sirlanishini chaqirishi;
- Zulukning so'lagida qonni suyuqlashtiradigan fermentlar tufayli jarohat joyidan bir muddat qon ketishi;

- Zulukning oshqozon-ichak traktida «kasal» qonni so'rishda uni infeksiyadan himoya qiladigan bakteriya mavjud. Bu odamlarda zaharlanish, oshqozon-ichak trakti muammolari, shilliq qavatlar kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. www.ziyonet.uz
2. www.med.ru
3. www.uzlib.uz
4. [www. https://med360.uz/salomatlik/zuluk-bilan-davolash](https://med360.uz/salomatlik/zuluk-bilan-davolash)

ЮҚОРИ АНИҚЛИКДАГИ КООРДИНАТАЛАРНИ ҲИСОБЛАШДА AUSPOS ОНЛАЙН ТИЗИМИДАН ФОЙДАЛАНИШ (PRECISE POINT POSITIONING)

А. А. Абдусаломов¹, Ж. А. Қудратов².

“ТИҚХММИ” МТУ нинг Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти.

e-mail: abduraufabdusalomov8@gmail.com

Аннотация: Ҳозирги вақтда геодезик тармоқларни куриш ҳам қиммат жараён бўлиб, узлуксиз ишлов бериш учун махсус дастурлар (BERNESE, EUPOS, GIPSY ва бошқалар) мавжудлиги доимий равишда қайта ишлашни талаб қилинади. Шу сабабли, охириги йиллар давомида PPP (Precise Point Positionинг) юқори аниқликдаги жойлашишни аниқлаш усули номи билан амалиётга кирган муқобил усул таклиф қилинди. AUSPOS онлайн тизими Бернесе дастурий таъминотидан фойдаланган ҳолда олинган координаталар ечимларини ҳисоблайди.

Калит сўзлар: AUSPOS, PPP (Precise Point Positionинг), сунъий йўлдош, BERNESE, EUPOS, GIPSY, дифференциал усул

Аннотация: В настоящее время построение геодезических сетей также является дорогостоящим процессом, а наличие специальных программ (BERNESE, EUPOS, GIPSY и др.) для непрерывной обработки требует постоянной обработки. По этой причине за последние годы был предложен альтернативный метод, который вошел в практику под названием PPP (Точное точечное позиционирование) - метод высокоточного позиционирования. Онлайн-система AUSPOS рассматривает решения координат, полученные с помощью программного обеспечения Bernese.

Ключевые слова: AUSPOS, PPP (Precise Point Positionинг), спутник, BERNESE, EUPOS, GIPSY, дифференциальный способ

Асосий қисим. Канада фазовий мос ёзувлар тизими - аниқ нуқталарни аниқлаш (CSRS-PPP) бу GNSS маълумотларини қайта ишлаш учун онлайн дастур бўлиб, у фойдаланувчиларга кузатув маълумотларини Интернет орқали юбориш ва аниқ GNSS Орбитаси ва Соат маълумотлари, Канадада жойлашишни аниқлашнинг яхшиланган аниқлигидан фойдаланган ҳолда тиклаш имконини беради. Фазовий маълумот тизими (CSRS) ва Халқаро ер усти маълумот рамкаси (ITRF).

¹ А. А. Абдусаломов – “ТИҚХММИ” МТУ нинг Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти стажёр-ўқитувчиси.

² Ж. А. Қудратов – “ТИҚХММИ” МТУ нинг Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти стажёр-ўқитувчиси.

Шу кунга қадар яратилган геодезик ва картографик потенциални сақлаб қолиш ва янги миллий фазовий маълумотлар тизимини жорий этишда сунъий йўлдош ва анъанавий ўлчовларни тўғри тенглаштириш учун икки тизимлар ўртасидаги ўтишга таъсир қилувчи асосий омил тармоқ нуқталарининг координаталарини юқори аниқлик билан аниқлашдир [1]. Шу сабабли, ишнинг ушбу қисмида янги доимий станциялардан ўлчовларни қайта ишлашнинг аниқлиги баҳолаш бўйича тадқиқот олиб борилди. Ўзбекистон миллий геодезия тармоғини қуришда тармоқнинг янги киритилган тармоғ пунктларининг аниқ координаталари жаҳон геодезия тизимига (WGS-84) ёки халқаро ер таянч тизимига (ITRF) нисбатан аниқланиши керак. Ўлчов усулини танлаш, агар у тегишли норматив меъёрий ҳужжатда кўрсатилмаган бўлса, маълумотларнинг тезкорлигига қўйиладиган талаблар, назорат нуқталаридан (таянч пункт) узоқлик даражаси, иш динамикасининг табиати, тегишли инфратузилма мавжудлиги ва бошқалар каби кўплаб омилларга боғлиқ. Бироқ, асосий омил, албатта, усулнинг потенциал аниқлигидир [2]. Ҳозирги кунда кенг қулланиладиган сунъий йўлдошлар маълумотига асосан жойлаштиришнинг дифференциал усули миллиметр даражасида координаталарни ҳисоблаш имконини беради. Бу ҳолда ўлчовлар камида иккита икки частотали қабул қилувчилар ёрдамида амалга оширилади, улардан бири маълум координатали таянч станцияга ўрнатилиши керак. Бундай ўлчовларни амалга оширишнинг зарурий шарти маълум бир ҳудуд учун таянч станциялари тармоғининг ривожланган инфратузилмаси, қимматбаҳо ускуналарнинг мавжудлиги ва таянч станцияда "узоқ муддатли боғланиш" ни амалга ошириш, координаталари маълум бўлган нуқта ва янги станция билан квазинхрон кузатувларни ўтказишдир. Фаза ноаниқликларини ечиш бир ва икки хил фарқлардан фойдаланиш орқали амалга оширилади [3]. Ҳозирги вақтда геодезик тармоқларни қуриш ҳам қиммат жараён бўлиб, узлуксиз ишлов бериш учун махсус дастурлар (BERNESE, EUPOS, GIPSY ва бошқалар) мавжудлиги доимий равишда қайта ишлашни талаб қилинади. Ҳозирги кунда республика ҳудудидаги мавжуд тармоқ мазкур талабларга жавоб бермайди (ҳозирча фаолият юритаётган истеҳкомларнинг чекланган сони, тармоқ тузилмаси жойлаштириш босқичида, маълумотларни қайта ишлашни тўлиқ автоматлаштириш йўқ ва бошқалар). Шу сабабли, охириги йиллар давомида PPP (Precise Point Positionинг) юқори аниқликдаги жойлаштиришни аниқлаш усули номи билан амалиётга кирган муқобил усул таклиф қилинди. Бу усулнинг концепцияси биринчи марта 70-йилларда таклиф қилинган ва назарий тамойиллар Zumberge ва бошқалар томонидан яратилди. PPP усули яқин келажакда нафақат тармоқ маълумотларини қайта ишлаш учун, балки ўлчаш усуллари учун ҳам муқобил сифатида кўриб чиқилиши мумкин, чунки реал вақтда кинематик ва

дифференциал GPS ўлчовлари (RTK) бажалириши имкони яратилди [4]. GPS сигналининг псевдокодлари ва фазалар ёрдамида кузатиш тенгламалар ёрдамида қўйидагича моделлаштирилади [5]. Бунда фақатгина ефемерида-вақт маълумоти (ЭВМ) аниқлигига боғлиқ L фазанинг ионосфера-еркин комбинациялар (IF) модели ва (P) коддан фойдаланилган:

$$P_{IF} = \rho + cdt_{P_{IF}}^r - cdt_{P_{IF}}^s + T + \varepsilon_{P_{IF}} \quad (1)$$

$$L_{IF} = \rho + cdt_{P_{IF}}^r - cdt_{P_{IF}}^s + T - \lambda_{IF} N_{IF} + (b_{L_{IF}}^r - b_{P_{IF}}^r) - (b_{L_{IF}}^s - b_{P_{IF}}^s) + \varepsilon_{L_{IF}} \quad (2)$$

бу ерда L_{IF}, P_{IF} – приёмник билан ўлчанган фаза ва псевдоузоқлик, ρ – геометрик масофа, c – ёруғликнинг вакуумдаги тезлиги, $dt_{P_{IF}}^r, dt_{P_{IF}}^s$ – приемник ва йўлдош соатининг хатоликлари, T – тропосфера кечикиши, $\varepsilon_{P_{IF}}, \varepsilon_{L_{IF}}$ – хатолик (шовқин) ҳамда код ва фазанинг моделланмайдиган таъсири, λ_i – i -частотадаги тўлқин узунлиги, N – фазанинг бир маъноли эмаслиги, $b_{P_{IF}}^r, b_{L_{IF}}^r$ – приемник жиҳозлари силжиши, $b_{P_{IF}}^s, b_{L_{IF}}^s$ – йўлдош жиҳозлари силжиши.

Сўнги йилларда бир қатор таҳлил марказлари юқори аниқликдаги координата усулидан фойдаланган ҳолда янги белгиланган нуқталар учун координаталарни ҳисоблаш учун бепул онлайн хизматларни ишлаб чиқдилар. Автоматик аниқ жойлашишни аниқлаш хизмати (APPS), Jet Propulsion Laboratory (JPL) томонидан ишлаб чиқилган (<http://apps.gdgps.net/>), Австралиянинг таянч тизимини яратиш лабораториясининг AUSPOS (<https://gnss.ga.gov.au/auspos>) ва Канада фазовий маълумотлар тизими Canadian Spatial Reference System (CSRS) (<http://www.geod.nrcan.gc.ca/>). Уларнинг қисқача тавсифи:

RINEX форматида тақдим етилган GPS ўлчовларининг босқичлари ва кодларини қайта ишлаш учун JPL лабораториясининг Автоматик Аниқ Поозициялаштирувич Хизмат (APPS) лабораториянинг GIPSY-OASIS дастурининг 5-версиясидан фойдаланади. Zumbege-да тасвирланган юқори аниқликдаги жойлашишни аниқлаш усули [6], орбиталарнинг JPL қийматлари ва соат тузатишларидан фойдаланган ҳолда, станция координаталари (статик режим) ёки станция вақт қаторлари (кинематик режим), фаза ноаниқликлари, гидростатик ва нам ҳаво ҳужумига қарши кечикиши ҳар 2 соатда 0,3 мм ўзгаришлар билан аниқланади.

Ионосферик еркин комбинация Канада фазовий таянч тизимининг (CSRS) группаси томонидан юқори аниқликдаги IGS орбиталаридан фойдаланган ҳолда моделлаштирилган. Статик ва кинематик режимларда асосий фазани бирлаштириб, станциянинг ҳолатини, фазанинг ноаниқлигини, антенналарнинг силжиши, сув оқими ва океан юқларини симуляция қилиш, ернинг айланиш

параметрларини аниқлаш мумкин. Статик режимда икки частотали ўлчовларнинг олинган координаталарининг аниқлиги 1-2 см га етади [7].

AUSPOS онлайн тизими еса Бернесе дастурий таъминотидан фойдаланган ҳолда олинган координаталар ечимларини ҳисоблайди. Берн Астрономия Университети (AIUB) томонидан ишлаб чиқилган ушбу комплекс бир ва икки частотали ўлчовларни қайта ишлаш, узоқ базавий чизиқлардаги ноаниқликларни бартараф етиш, ионосфера ва тропосферани моделлаштириш ва бошқалар учун мўлжалланган, асосан GPS маълумотларини қайта ишлашнинг дифференциал усули. Бернес дастурий пакетининг PPP варианты қуйидагиларни ўз ичига олади: дастлабки маълумотни тайёрлаш, кузатишларни дастлабки қайта ишлаш, ҳар бир нуқта учун PPP координаталарини ҳисоблаш ва танланган мос таянч тизимига яқуний ўтиш. Бироқ, Берн Астрономия институти ушбу процедуранинг фақат дастлабки 3 босқичини амалга оширган [9]. Уфқ бурчаги ишлов бериш жараёнида 10° ни ташкил етади, IGS ва IERS стандартларига мувофиқ геофизик моделлар танланган [8].

Қушимча айтиб ўтиш лозимки, APPS хизмати учун EGM2008 глобал модели ва Канада хизмати учун NAD83 геоид моделидан фойдаланиш билан боғлиқ. Турли хил онлайн хизматлар, шунингдек, халқаро IGS хизматининг маълумотларни таҳлил қилиш марказлари маълумотларини қайта ишлаш ҳозирги вақтда IERS 2010 стандартлари билан бир қаторда турли хил маълумотларни таҳлил қилиш стратегияларидан (ионосфера моделлари, орбиталар ва соатни тузатишлар ва бошқалар) фойдаланадиган турли дастурий таъминот тизимларидан фойдаланишга асосланган. Турли хил ечимлар горизонтал компонентларда 1-3 мм ва вертикалда 2-6 мм даражасида мос келади [10]. Бироқ, турли хил орбита маълумотлари ва соатларнинг ўзгариши географик марказнинг силжишига олиб келади ва шунинг учун нуқта координаталарини аниқлашнинг аниқлигига таъсир қилади. Ушбу хизматлар томонидан эълон қилинган сантиметр аниқлиги керакли конвергенция вақтини таъминлаган ҳолда турли хил таҳлилий марказларнинг ва бирлаштирилган IGS ечимининг аниқ эфемеридалари ва соат тузатишлари ёрдамида амалга оширилиши мумкин. 30 сонияли ўлчовларни 24-соатлик сессия билан яқуний орбитали ечимлар ва 5 дақиқа оралиғида соатни ўзгартириш билан биргаликда фойдаланиш тавсия етилади [11; 12].

Фойдаланилган адабиётлар

1. «Омерах по реализации инвестиционного проекта «Создание Национальной географической информационной системы». Постановление Президента №2045 от 2013 года. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact id=2242710>

2. «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-4947 [Электронный ресурс]. -Режим доступа: http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107042
3. «О применении и открытом использовании на территории Республики Узбекистан международных геодезических систем координат» Постановление Кабинета Министров республики Узбекистан. №1022. 26.12.2017 [Электронный ресурс]. -Режим доступа: http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3481466
4. Beutler G., Mueller I., Neilan R. The International GPS Service for Geodynamics: development and start of official service on 1 January 1994// Bulletin of Geodesique. 1994. - 68, -pp. 39-70.
5. Willis P., Fagard H., Ferrage P., Lemoine F.G., Noll C.E., Noomen R., Otten M., Ries J.C., Rothacher M., Soudarin L., Tavernier G., Valette J.J. The International DORIS Service (IDS): Toward maturity, in DORIS: Scientific Applications in Geodesy and Geodynamics. P. Willis (Ed.) // Advances in space research. 2010, -45(12). -p.1408-1420, doi: 10.1016/j.asr.2009.11.018
6. Reigber Ch., Schwitzer P., Neumayer K., Barthelmes F., König R., Förster Ch., Balmino G., Biancale R., Lemoine J.-M., Loyer S., Bruinsma S., Perosanz F., Fayard T. The CHAMP-only earth gravity field model EIGEN-2 II Advances in Space Research. 2003. -Volume 31, Issue 8. -pp. 1883-1888.
7. Schone T., Zech C. et all. A new permanent multi-parameter monitoring network in Central Asian high mountains - from measurements to data bases// Geosci. Instrum. Method. Data Syst. 2013, -No. 2, -pp. 97-111.
8. Saunier J. Station re-location at Kitab (Uzbekistan) to get better visibility // IDS Newsletter. 2018. -No. 4. -pp.1-3.
9. Bernese GPS Software Version 5.0. User manual / Edited by Rolf Dach, Urs Hugentobler, Pierre Fridez, Michael Meindl. -Astronomical Institute, University of Bern, 2007. - 612 p.
10. REGINS network. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://space-geodesy.nasa.gov/docs/2011/02 REGINAhostingsitev1_en.pdf
11. Herring T.A., Hager B.H., Meade B., Zubovich A.V... Contemporary horizontal and vertical deformation in the Tien Shan //International seminar "On the Use of Space Techniques for Asia-Pacific Regional Crustal Movements Studies". Moscow, GEOS. 2002, - p. 75-84.
12. Кайранбаева А. Б. Геодезический мониторинг и компьютерное моделирование геодинамических процессов на территории Северного Тянь-Шаня: дис. ... доктора философии (PhD). -Республика Казахстан. Алма-Аты. 2014. - С.145.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ПАХТА ТОЛАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИК СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИГА КУЗГИ БУҒДОЙДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ЎҒИТЛАР МЕЪЁРЛАРИ ВА ТАКРОРИЙ ЭКИН МОШНИНГ ТАЪСИРИ	3
2	ASALNING SIFATI VA SAQLANISHINI JARAYONLARI	7
3	MENDELEYEV DAVRIY SISTEMASI VA DAVRIY QONUNNI ASSESMENT TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	11
4	PEDAGOGICAL ACTIVENESS OF THE FUTURE TEACHER	21
5	O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATIDA SO'Z BILAN OG'ZAKI TA'SIR O'TKAZISH	24
6	ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ КАК БОЛЬШАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА	28
7	O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI	33
8	КОНЦЕПЦИЯ ЛИЧНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ	37
9	МНОГОЛЕТНЕЕ ИЗМЕНЕНИЕ ГИДРОХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ВОД РЕКИ СУРХАНДАРЬЯ	42
10	BANK TIZIMINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	45
11	БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ ВО ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	48
12	GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	52
13	SHE'RIYATDA FONOPOETIK IFODA (Zulfiya Mo'minova ijodi misolida)	56
14	ZULFIYA MO'MINOVA SHE'RIYATINING MILLIY –MADANIY XUSUSIYATLARI	60
15	KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR RIVOJLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	65
16	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	69
17	BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMIDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH	73
18	O'ZIGA XOS ANOR DARAXTINING ISHLATILADIGAN QISMLARI HAMDA XALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI	77
19	OMBORXONA XO'JALIGINI BOSHQARISHDA INNOVATSION LOGISTIKADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	81
20	QISQA XABARLARNI GAZETA DISKURSIDA O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	94
21	IN SCIENCE THE ROLE OF TECHNOLOGY	97
22	ОСОБЕННОСТИ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА СЕРГЕЯ ДОВЛАТОВА	100
23	“QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM”	106
24	ГЕТЕРОГЕН-КАТАЛИТИК УСУЛДА АЦЕТОНИТРИЛ СИНТЕЗИ	110

25	RELIGIOUS BUILDINGS OF AMIR TEMUR	117
26	ШАҲРИСАБЗ ШАҲРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ	122
27	ARCHITECTURE OF MONUMENTS OF SHAHRISABZ CITY (TIMURID PERIOD)	129
28	ВЫЯВЛЕНИЕ ЭРОЗИОННОЙ ОПАСНОСТИ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ	132
29	ВОДНАЯ ЭРОЗИЯ ПРИ ЭКСТЕНСИВНЫХ ФОРМАХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ	144
30	ВИТАМИНЫ В ЭРОДИРОВАННЫХ ТИПИЧНЫХ СЕРОЗЁМАХ	149
31	ҚИЗҒИШ ТУСЛИ ЛАЛМИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ БИОЛОГИК ФАОЛЛИГИ	154
32	УЗУМ ЕТИРИШНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ	165
33	SYNTHESIS OF NANOCRYSTALS IN THE CORE/SHELL	168
34	TARIXIY OBIDALAR VA QURILISH INSHOOTLARINING MUSTANKAMLIGIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR	173
35	ЛИНГВОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНЦИЯ МАДАНИЯТ ОБРАЗЛАРИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИЯ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	177
36	CONCEPT AND ITS LINGUISTIC INTERPRETATION	183
37	АВЛОДЛАРАРО ВОРИСИЙЛИКНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	186
38	ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗЦОВ ПЕРОКСИДА КАЛЬЦИЯ, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОСНОВЕ 30%-НОГО РАСТВОРА НИТРАТА КАЛЬЦИЯ-ОТХОДА ОБОГАЩЕНИЯ ФОСФОРИТЕ	190
39	НҲОМА ВА ГИРУДОТЕРАПИYA МУОЛАЖАСИ ОРҚАЛИ ДАВОЛАШ	194
40	ЮҚОРИ АНИҚЛИКДАГИ КООРДИНАТАЛАРНИ ҲИСОБЛАШДА AUSPOS ОНЛАЙН ТИЗИМИДАН ФОЙДАЛАНИШ (PRECISE POINT POSITIONING)	199



**JOURNAL OF
NEW CENTRY
INNOVATIONS**

IN ALL AREAS

